2. **Lack of Knowledge and Understanding:** Another potential issue with peer responding is the lack of knowledge and understanding about writing principles and strategies. Students may not fully grasp the concepts of grammar, organization, or coherence, making it difficult for them to provide meaningful feedback. Teachers should consider implementing mini-lessons on specific writing skills and provide examples of well-written texts to promote a better understanding of what constitutes effective writing.

3. **Unequal Participation:** In peer responding activities, there is a risk of some students dominating the process, while others remain passive. Shy or less confident students may hesitate to provide feedback or may not feel comfortable critiquing their peers' work. To address this issue, teachers can assign specific roles to ensure equal participation, such as a reader who focuses on content, a grammar expert, or a vocabulary specialist. Additionally, teachers should encourage a supportive and non-threatening atmosphere that promotes constructive criticism among students.

4. **Lack of Quality Feedback:** Ensuring the provision of high-quality feedback from peers can be another potential challenge. Students may be inclined to provide general comments such as "good job" or "nice work" without offering specific suggestions for improvement. To combat this issue, teachers can introduce peer response protocols that emphasize specific areas for feedback, such as clarity of ideas, supporting details, or sentence structure. Providing students with a checklist can also guide them in providing more focused and detailed feedback.

5. **Cultural Sensitivity and Respect:** In multicultural EFL classrooms, cultural differences in communication styles and attitudes towards feedback can pose challenges during peer responding. Some students may perceive direct criticism or correction as disrespectful or offensive, leading to social tensions within the class. To promote a positive and culturally sensitive environment, educators should explicitly discuss cultural differences and establish guidelines for providing feedback that respects individual perspectives and values.

6. **Lack of Confidence in Peer Feedback:** Students may also lack confidence in the feedback received from their peers, fearing they may be misguided or incorrect. This can undermine the effectiveness of peer responding as students may disregard or overlook valuable suggestions. To address this issue, teachers can incorporate a system of validation, where they review and verify peer feedback, providing additional comments or corrections if necessary. This not only instills confidence in students but also helps them notice inconsistencies or errors in their peers' feedback.

In conclusion, peer responding activities can be beneficial for EFL writing classes, as they promote collaborative learning, critical thinking, and self-reflection. However, it is important for educators to acknowledge the potential problems that may arise and take proactive steps to address them. Language proficiency, cultural differences, and limited understanding of writing conventions are significant challenges that can hinder the effectiveness of peer feedback in EFL contexts. To overcome these challenges, educators can implement strategies such as scaffolding language support, promoting cross-cultural understanding, and providing explicit instruction on writing conventions. Additionally, establishing clear guidelines and expectations for peer feedback can help students provide constructive and helpful comments to their peers. By addressing these potential problems, educators can create a conducive learning environment that maximizes the benefits of peer responding activities. Through these activities, EFL students can develop their writing skills, enhance their language proficiency, and gain a deeper understanding of cultural nuances in English writing. Ultimately, the goal is to empower EFL students to become effective and confident writers and communicators in English. In conclusion, peer responding in EFL writing classes is a powerful instructional tool when implemented effectively. By recognizing and addressing the potential problems associated with this approach, educators can foster a supportive and inclusive learning environment, allowing students to flourish in their writing abilities. Peer responding is an effective tool for improving writing skills in EFL classrooms. However, potential problems may arise due to varying language proficiency, lack of knowledge, unequal participation, lack of quality feedback, cultural sensitivity issues, and lack of confidence in peer feedback. By addressing these challenges effectively, teachers can maximize the benefits of peer responding and create a supportive and collaborative learning environment that facilitates growth in students' writing abilities.

REFERENCES:

1. F. Mulaydinov, Solidjonov, D. (2021). APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND ONLINE PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.
2. Solidjonov, D. Z. (2021). The impact of social media on education: advantage and disadvantage. Экономика и социум, (3-1 (82)), 284-288.
3. Solidjonov, D. Z. O. (2021). The impact of the development of internet technologies on education at pandemic time in Uzbekistan. In СТУДЕНТ ГОДА 2021 (pp. 108-110).
4. Solidjonov, D. (2022). IMMERSIVE AUGMENTED REALITY AND VIRTUAL REALITY TECHNOLOGY FOR EDUCATION. Involta Scientific Journal, 1(3), 249-256.

BUGUNGI KUNDA TA'LIM TIZIMI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o'qituvchisi

Azimova Niginaxon

Qo'qon Universiteti, Xorijiy til yo'nalishi

Annotatsiya: XXI asr – texnologiyalar asri hisoblanadi. Shunday ekan dars jarayonida turli zamonaviy axborot vositalaridan o'rinli foydalanish, kompyuterli ta'lim jarayonida darslarni o'quvchi va kompyuter orasidagi munosabatlarga ko'ra tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish bugungi kunda dolzarb masalalardandir.

Kalit so'zlar: axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, intellektual,

Аннотация: 21 век – это век технологий. Поэтому надлежащее использование различных современных средств массовой информации в классе, организация, управление и контроль курсов по компьютерному обучению, основанных на отношениях между студентом и компьютером, являются одним из самых сложных вопросов сегодня.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari tanlov tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan eng yangi texnologiyalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olgan innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish huquqiga ega. Kompyuter savodxonligini oshirish, shu jumladan turli dasturlar orqali, axborot texnologiyalarini faol o'zlashtirish zarur. 20-asr oxiri va 21-asr boshlarida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida ham axborot texnologiyalarining tarqalishi qayd etilgan.

Bugun hech kimga sir emaski biz yashayotgam XXI asr – intellektual boylik hukumronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z anglab olmasa, intellektual boylikga intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanasa- bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lida chetda qolin ketishi muqarrar. (I.Karimov)¹²

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichga chiqdi. Shunga monand barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Bugun biror soha faoliyatini axborot- kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda ham u

¹² I.Karimov – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishidagi maruzasidan. 2009 yil 5 dekabr

muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet, aynan ommaviy axborot vositalarining misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, uyali telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellectual tovushli, videoli va animatsion elementlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv materialidan iborat bo'lib, tabiiyki, bu atama kompyuter xotirasidagi yoki disklardagi ma'lumotlarga nisbatan ishlatiladi beradigan interfaol vositalar tushuniladi. Multimediali o'quv materiali bosma material, videofil'm, animatsiyali grafik obrazlar, matn va tovushlar ustida amal bajarishga imkon. Xususan, salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, ma'naviy immuniteti kuchli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida masofali, ya'ni internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo'lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda yetarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Axborot kommunikatsiyaning globalashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita elektron ta'lim bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'rgazma vositalar o'qituvchi uchun o'quvchining bilish faoliyatini boshqarish quroli, o'quvchi uchun bilim manbai, tasavvur, tushuncha, qonuniyat va nazariyani o'zlashtirishga yordam beradigan vosita vazifasini bajaradi. O'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablarga ko'ra bu tasvirlanadigan umumiy axborot hajmining 40-90 % igacha oshirilishi lozim Elektron o'quv materialini tayyorlash uchun multimediali vositalardan foydalaniladi. Multimediali vositalar deganda esa, bir vaqtning o'zida harakatlanadigan tasvir,

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning o'rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalar mazmunidagi bilimlar bilan cheklanilmasligi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab gazeta, jurnal, axborotnoma-byulleten, radio, televideniey, axborot agentliklari, internetda veb-saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ta'lim sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lim shunchalik takomillashadi, albatta.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "2012: The Year of eSports"". <https://www.forbes.com>.
2. "Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport"". <https://www.theverge.com>.
3. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Kibersportni bo'lajak Olimpiya tadbirlariga kiritish masalasini muhokama qilgan. <https://en.wikipedia.org>
4. "Newzoo: Global esports will top \$1 billion in 2020, with China as the top market"". <https://venturebeat.com>.
5. "Global esports revenues to top \$1 billion in 2019: report"". <https://www.reuters.com>.
6. "Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport"". <https://www.theverge.com>.

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNALOGIYALARINING
O'RNI****Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o'qituvchisi

Murodjonova Ibodatxon Dexqonboy qizi,

Qo'qon Universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda va bolalarni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda hamda ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikr yutilgan.

Annotation: This article discusses the importance of modern information technologies in the use of information and communication technologies in preschool educational organizations, in the education and training of the young generation, in raising children to maturity in all aspects, and in increasing the effectiveness of education.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya, ta'lim-tarbiya, innovatsiya, kadrlar, tasavvur, rivojlanish, pedagog.

Keywords: Modern technologies, information and communication, education, innovation, personnel, imagination, development, pedagogue.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi kompyuter asri davrida umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysidir qismini axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va sifatli ta'lim berish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa, o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimining mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda va uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish usullari va tadbirlari izlanmoqda, shu bilan birga maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashtirilmoqda. Ayni paytda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim

muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta'minlash, ta'limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o'quv muassasalaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini jadal rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarining samaradorligi beqiyosdir.¹³

Asosiy qism. Hozirgi jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda texnika va texnologiyaga bo'lgan ehtiyojlar yuqori o'rinni egallaydi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida bolaning texnikaga bo'lgan qiziqishi va texnologiyalardan foydalanish salohiyati bugungi kunda muhim o'rinni egallamoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida axbarot-kommunikatsiyalaridan qanday foydalanish mumkin, degan savol tug'iladi. Albatta, bolaga faqatgina mashg'ulotlarning o'zi kamlik qiladi. Chunki maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisi ba'zilar tajribasiz va malakasi endi rivojlanayotgan bo'ladi. Shu sababdan, bolaning ongini rivojlantirish, unga mustaqil fikrlashni o'rgatish uchun texnologiyalardan foydalanib, turli xil ibratli filmlar yoki multfilmlar qo'yib berish, yoki bola tez charchashi va zerikib qolishi mumkin, shuni hisobga olgan holda turli enerjayer o'yinlarni tomosha qilib, uni birgalikda bajarishi mumkin. Faqatgina o'yin yoki videorolikning o'zi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Xususan, chiroyli jihozlangan xona yoki barcha sharoitga ega bo'lgan muassasalar hammaga birdek ma'qul kelishi joiz. Buni qanday qilish mumkin? Masalan, bola kirayotgan xona shinam, televizor va tarbiyachi uchun kompyuter, internetdan foydalanish uchun Wi-Fi, agar zamonaviy talablarga javob beruvchi muassasa bo'lsa, bola o'ynashi uchun texnik robot o'yinchoqlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Agar bola yoshlikdan texnika va texnologiyaga qiziqsa, u uchun barcha sharoitlar yaratilishi lozim. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiyasining o'rni va IT sohasiga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojlar ancha yuqori.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi huzuridagi Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi muassisligidagi "Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyat (keyingi o'rinlarda Innovatsion markaz deb ataladi) etib qayta tashkil etish to'g'risidagi qaror ham qabul qilindi. Bunga ko'ra, Innovatsion markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: "Akademiya", 2007 y.

- boshqaruvning zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va maktabgacha ta'lim sohasiga joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimining tegishli ravishda ishlashini ta'minlash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- axborot xavfsizligining tegishli darajasini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida yagona axborot makonini shakllantirish;
- maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni samarali tashkil etish maqsadida tadbirkorlik subyektlari, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliya institutlari va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni doirasida foydalanish uchun o'quv-metodik materiallarni, multimedia kontentini, maktabgacha ta'lim tizimi tashkilotlarining pedagoglari va rahbarlarini o'qitish hamda turli telekommunikatsiya kanallari orqali tarqatish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilim va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish;
- istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish va maktabgacha ta'lim tizimini, shu jumladan ta'lim sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar tashkil etish hamda o'tkazish orqali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash va yanada takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat.¹⁴

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar faoliyatida innovatsion yo'nalishlarni amalga oshirish, ta'lim va tarbiya sohasiga yangi yondashuvlar izlash tendentsiyasi mavjud.

Aynan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanishicha, "Uzluksiz ta'lim-kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir". "Maktabgacha ta'lim" atamasi 1997 yida YuNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichini tashkil etadi. Shu sababli bolalar bog'chalarini axborotlashtirish zamonaviy jamiyatning zaruriy haqiqatiga aylandi. Maktab ta'limini kompyuterlashtirish juda uzoq tarixga ega, ammo bolalar bog'chasida kompyuterlarning tarqalishi endilikda paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga,

¹⁴<https://lex.uz/docs/-4372737>

o'qituvchining (shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining)ishini axborot manbalaridan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. AKTdan foydalanish maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv jarayonini boyitish, sifat jihatdan yangilash va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'limning barcha sohalarida yangi usullar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv tizimini jadal va modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini oshirish yo'llarini qidirish ishlari olib borilmoqda.¹⁵

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar va boshqa mutaxassislar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Ular hamkorlikda bolaning har tomonlama riojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Zero, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ham kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga maktabgacha ta'lim bosqichidanoq sifatli ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: “Akademiya”, 2007y.
2. <https://lex.uz/docs/-4372737>
3. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2,
4. Axborot texnologiyalari/M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov. T.: Noshir, 2009.— 368-b. I. Oripov M. B
5. Maxborot -kommunikatsiya texnologiyalariabgacha ta'lim pedagogikasi kitobi Fotima QODIROVA, Shoista TOSHPO'LATOVA, Nargiza KAYUMOVA, Malohat A'ZAMOVA
6. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012

¹⁵ Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi.

KITOB VA KITOBXONLIK – INSON MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI**Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o'qituvchisi

Nematova Guljahon Shuxratjon qizi

Qo'qon Universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi.

Annotatsiya: O'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrini kuchaytirish orqali ularda yuksak ma'naviy fazilatlar, vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Kitob o'quvchining ongi tafakkurini teran, dunyoqarashini keng, qolaversa nutqini ravon qiladi. Bunday kishilar bilan muloqot qilish maroqli bo'ladi. Kitob bu g'uyoki nurga o'xshaydi. U insonlarni ezgulikka, mexr-muhabbat va ma'rifatli bo'lishga chorlaydi.

Annotation: By strengthening students' love for the book, they develop such qualities as high spiritual qualities, patriotism, self-sacrifice, industriousness, respect for adults, and honor for minors. The book makes the reader's mind terrestrial, worldly, and fluent in his. It would be interesting to communicate with such individuals. The book is like this g'uyoki light. He encourages people to be kind, to be kind, to be enlightened

Kalit so'zlar: Kitob, tarbiya, kitobxonlik, ma'naviyat va ma'rifat.

Keywords: Books, education, reading, spirituality.

Kirish. Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Inson hayotida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli, baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish, kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitob mutolaasining alohida o'rni bor.

Asosiy qism: Aslida ham, kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go'zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan ma'naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun har doim kitob o'qishga ehtiyojimiz bor. Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Dunyoni faqatgina a ilm bilan zabt etish mumkin ekanligi haqidagi asl haqiqat bugun hech kimga sir emas. Ilmni mustahkam egallashning yo'li esa bitta, ya'ni – kitob o'qish.

Mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va keng targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak avlod uchun, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'quv adabiyotlari va darsliklarning saviyasini ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi. Yurtimizda bolalarga sifatli kitoblar yetkazib berish borasida ham bir qancha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada bolalar ko'ngliga tez va oson kirib boradigan kitoblar kun sayin ko'paymoqda. Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy-estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. Kitob haqida bizning buyuk bobolarimizning ham bizga qoldirib ketgan fikrlari bordir. Masalan: «Kitob - beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi», deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy. Bugungi axborot asrining ilg'or texnologiyalarisiz kunlarimizni tasavvur qilolmamasak-da, tengdoshlarimiz orasida kitobga oshno bo'lgan yoshlarning borligi quvonarli holdir. Ko'cha ko'yda, transportlarda qo'llarida kitob tutgan insonlarni ko'rib quvonamiz. Afsuski, ba'zan yoshlar orasida qimmatli vaqtini behuda ishlarga, xususan, haddan tashqari ko'p kompyuter va qo'l telefoni o'yinlarini o'ynash, mazmunsiz filmlarni ko'rishga sarflashlari to'g'ri emas. Buning o'rniga, o'qishdan tashqari o'tadigan vaqtini samarali ishlar uchun rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kunning ma'lum qismlarini foydali kitob mutolaasi uchun ajratish muhim ahamiyatga ega. Chunki, "yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh" yanglig' o'qigan kitobi yillar o'tsa-da hayotda albatta asqotadi.

Kitobdan shunchaki ermak yoki bo'lmasa zerikishda qo'l keladigan bir vosita sifatida foydalanish xatodir. Kitob tafakkur va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, uning shaxsi shakllanishida asosiy turtki beruvchidir. Kitob mutolaa qilish jarayonida undagi ma'lumotlarni kishi nafaqat ongi va ko'zi, shuningdek ko'nglini ham birdek uyg'oq holda tutishi bilan xotirasida saqlab qolishi mumkin. Kitob o'qishdan maqsad bu - uning mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma'no-mazmunni qalban tuyish va bu orqali ma'nan ozuqaga ega bo'lishdir. Kitob mutoalasi insonda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga zinhor va zinhor yo'l qo'ymaydi, shunday ekan kitobni mutolaa qiluvchi har qanday inson yuksak ma'naviyatli shaxs bo'lib yetishishi mumkin.

Xulosa. Shunday ekan, aziz yoshlar kitob o'qing Zero, kitob insonning hayot yo'lida yo'ldoshi bo'lsa, hayot so'qmoqlaridan ravon va mamnuniyat bilan o'tadi.

"Kitob — bilim manbai", deymiz. Bu isbot talab qilmas haqiqat. Zero, inson bilimni asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakllanadi. Yoshlarimiz badiiy adabiyotlarni o'qiganda, ularning dunyoqarashi kengayadi, hayotga munosabati o'zgaradi.

Zero, kitob — qalb chirog‘i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrdan topib bo‘lmaydigan o‘ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo‘jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko‘ngil cheksiz zavqqa to‘lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur-halovati tamoman o‘zgachadir. Xalqimizda kitob o‘qib, munosib ta‘lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanishning ahamiyatiga doir maqollar ham juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqlarni uzoq davom ettirish mumkin. Bolalarni kitob o‘qishga qiziqtirishda maktablarning roli beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ”asari.
2. Alisher Navoiyning “Mahbub ul qulub”asari.
3. “O‘zbek xalq maqollari” kitobi.

TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI**Batirov Behzod Barotovich**

doktorant, Andijon mashinasozlik instituti (Ozbekiston)

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiyadan foydalanish, raqamli texnologiyani ta'lim tizimi vositalari, raqamli texnologiyasini ustunliklari, haqida tushuncha berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ta'limda raqamli texnologiya, bulutli texnologiya.

Abstract: The article provides an understanding of digital technology, the use of digital technology in education, the benefits of digital technology in the educational system, and the advantages of digital technology.

Keywords: digital technology, digital technology in education, cloud technology.

Bugungi kunda mamlakatimiz va dunyoning boshqa davlatlarida texnika va texnologiyalar vaqt sayin rivojlanib, ishlab-chiqarishda yangidan-yangi usullar joriy etilmoqda. Shuningdek, har bir sohada raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotganligini bevosita kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi globallashuv jarayoni va axborot ko'lami davrida axborotdan foydalanish tezligi juda yiriklashgan. Shunday ekan usbu davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish va axborotni sintezlash ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasida: ta'lim tizimini to'liq raqamlashtirish, oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilm-fan yutuqlarining electron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy islanmalar bazasini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "bir million dasturchi" loyixasini amalga oshirish hamda ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy masalalarga e'tibor qaratgan edi.[1]. Bugungi kunga kelib esa bu ishlar amalga oshirildi.

Shu kunga kelib ta'lim dasturlarini an'anaviy usuli ya'ni ma'ruzani yirik hajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilishi, ta'lim sifatining u qadar yuqori bo'lmaganini ko'rsatib turibdi. Hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Hususan, bizning Andijon mashinasozlik institutida ham talabalar "Kredit-modul" tizimiga asoslangan "Hemis" platformasida ta'lim olmoqdalar.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining o'rne ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta'lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tez va samaralidir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiya – xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayonida xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni. masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.[2]

Adabiyotlar tahliliga ko'ra raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa o'quvchilarda ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bu o'rinda ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalari, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. O'quvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Shunday ekan raqamli texnologiyalarga o'tish ob'yektiv zaruratdir. Ayniqsa, onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

Masalan, sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektdan foydalanishga asoslangan ilg'or texnologiyalar inson hayotini saqlab qolish, kasalliklarni aniqlash va umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim sohasida virtual o'quv muhiti va masofaviy ta'limning ta'minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo'lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo'ladi, ularni ta'minlovchi institutlar mas'uliyatini oshiradi va sun'iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo'ladi. Katta ma'lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yurtimizda pandemiya davrida bunday texnologiyalarni ta'lim tizimiga qo'llash yagona yechim bo'lib qoldi, qolaversa ushbu davr qaysidir ma'noda raqamli texnologiyalarni rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Raqamli ta'limda:

- xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag` sarfini keskin kamaytiradi;

–“raqamli dunyo” da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'lishgi kabilar. Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Quyida raqamli texnologiyalarni bazilariga to'xtalib o'tamiz: bulutili texnologiyalar –internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir. Bugungi kunda zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyani joriy etish tufayli professor-o'qituvchilarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qiluvchi dasturlar va aqlli o'qitish tizimlari paydo bo'ldi. Ular talabalarning bilimlarini, ularning javoblarini tahlil qilish orqali tekshirishlari, fikr-mulohazalarini bildirishlari va shaxsiy o'quv rejalarini tuzishlari mumkin.

Ta'lim sohasida VR(Virtual reallik) o'quvchilarning bilim olish uslubini o'zgartiradi. Sinf xonalarida VR(Virtual reallik) dan foydalanish o'quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rganishga yordam beradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyaning hayotimizdagi o'rni kundan-kunga chuqurlashib bormoqda. Ular insoniyatning yutug'imi yoki mag'lubiyati, degan savol ustidagi bahslar hali uzoq davom etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Ishonch bilan aytish mumkinki, yaqin kelajakda ushbu texnologiya yutug'i bilan bosqa texnologiyalarni ortda qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABDIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. Mirzahmedova Nargiza Dilmurodovna. “Raqamli texnologiyalarining ta'lim sohasida qo'llanilishi”. 2022 y. May. <https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-5-2-538-545>

ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH TEXNOLOGIYALARI**Xoldarboyev Rahimjon Axmatdjanovich****Abduvaxobova Robiyaxon Abdusamat qizi**

Andijon Mashinasozlik Instituti 2-bosqich talabasi

E-mail: robiyaxonabduvakhobova@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda ta'lim sohasida kompyuter dasturlari - turli fanlar bo'yicha elektron darsliklarni ishlab chiqish eng dolzarb masala hisoblanadi. Elektron o'quv qo'llanmalaridan foydalanish nafaqat kelajakdagi mutaxassislikka qiziqishni, balki o'rganilayotgan fan bo'yicha o'quv faoliyatini ham oshirishi mumkin. Aksariyat talabalar ma'lumotni vizual tarzda yaxshiroq qabul qiladilar, ayniqsa, agar u yuqori sifatli bo'lsa. Elektron darsliklardan foydalanishda talabalar tashqi motivatsion omillardan qat'i nazar, o'quv jarayonining o'zidan zavqlana boshlaydilar. Mazkur maqolada elektron darsliklardan qay maqsadda foydalanish va ularning ijobiy taraflari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Elektron darslik, ta'lim, talaba, jarayon, axborot, video ma'ruza, resurs.

Annotation: Currently, the development of computer programs - electronic textbooks in various subjects - is the most urgent issue in the field of education. The use of electronic textbooks can increase not only interest in the future specialty, but also educational activity in the studied subject. Most students perceive information better visually, especially if it is of high quality. When using electronic textbooks, students begin to enjoy the learning process itself, regardless of external motivational factors. This article provides information about the purpose of using electronic textbooks and their positive aspects.

Keywords: Electronic textbook, education, student, process, information, video lecture, resource.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni ta'lim sohasida, barcha sohalarda iqtisodiyot, fan-texnika va ijtimoiy hayotda jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, Elektron darsliklar soni tashkil etish va boshqarishni qayta ko'rib chiqishdagi o'zgarishlar va islohotlar samaradorligini oshirish uchun ta'lim jarayoni va o'qitish usullari ta'lim jarayonida talab etiladi. Ta'lim tizimida yangi adabiyotlar va darsliklardan foydalanish, ya'ni shevalaga hos holda yoki badiiy tillarda bo'lsa, talabalar, balki oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun ham qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida hisobga olish, isloh qilish va rivojlantirish texnologiyalar, rivojlangan mamlakatlar innovatsiyalari va yutuqlarini o'rganish va ularni mamlakatimizda joriy etish zarur deb hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda muammolarni ijobiy hal qilish uchun bir qator imkoniyatlar paydo bo'ldi ya'ni ta'limdagi muammolar. Axborot va pedagogik integratsiyani amalga oshirish o'quv jarayonidagi texnologiyalarni oshirish bilan bog'liq maqsadlarga erishishni talab qiladi. Kompyuterga asoslangan o'qitish va nazorat qilish jarayonini qamrab olgan ushbu jarayonning samaradorligi texnologiyasi, shuningdek, bu jarayonni aniq shaklda bosqichma-bosqich amalga oshirish. Elektron darsliklarga tayangan holda o'qitish va nazorat qilish jarayonini rivojlantirish axborot texnologiyalariga asoslangan va ularning mexanizmlarini yordami bilan tashkil etish, har bir mavzu bo'yicha gipermedia, multimedia, gipermatn, audio, video kabi dasturiy vositalar foydalanish ta'lim tizimida o'qitilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Elektron o'quv kitoblari yoki elektron darsliklar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish uchun mo'ljallangan.

Elektron darslik bilan solishtirganda o'quv materiallarini namoyish qilish uchun katta imkoniyatlar beradi. O'quv jarayonida barcha talablarga javob berishi kerak, shuningdek mustaqil ravishda didaktik vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni ko'proq ishlashga majburlash kerak. Chunki inson tanasi ma'lumotni qabul qilish uchun o'ziga xos xususiyatlarni talab qiladi.

Elektron darsliklardan foydalanishning asosiy maqsadi:

- Shakkllantirish orqali ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish, yangi axborot va ta'lim usullari va zamonaviy axborotdan foydalanish va pedagogik, shuningdek, axborot va kompyuter texnologiyalari;
- Zamonaviy ta'lim resurslari va elektron darsliklardan keng foydalanish, ularni tashkil etish, kutubxonalar, masofaviy ta'lim usullarini amaliyotda qo'llash va global miqyosga kirish shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida elektron tizimni hosil qilish.
- O'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun videoma'ruza imkoniyatlari:
- Talabalarning kelajakdagi ixtisoslik sohasiga, ilmiy laboratoriyalarga virtual kirishi;
- Jarayonlar, hodisalar, ko'rinishlar va ularning turli modellarini kuzatish tushunish qiyin (kamdan-kam hollarda bajariladi, doimiy);
- Muammoli jarayonning borishini uning hayotini boshqarish orqali his qilish va tushunish, namoyish qilish;
- Namoyishlar diqqatni jalb qilish, affektiv-emotsional, mos mantiqiy ta'sir usullariga asoslanadi.

Video ma'ruzalardan foydalanish orqali texnik vositalar yordamida o'quvchilarning samarali o'quv faoliyatini boshqarish va tashkil etish mumkin. Aniq tasvirlar, grafiklar, turli xil ramziy ma'lumotlar mavzuni to'liq tushunishga imkon beradi. Video ma'ruzada turli xil ob'ektlar, diagrammalar va harakatlanuvchi namoyishlar mavjud. Eng oddiy samarali vosita sifatida birlamchi signallar orqali talaba ongini o'zgartirish hamda axborotni qabul qilish darajasi yuqori bo'ladi.

Video ma'ruza shunday yaratilishi kerakki, u foydalanuvchiga tabiiylik beradi. Fotosuratlar va videolarni taqdim etish orqali o'rganish ob'ektini ko'rsatish juda samaralidir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ma'lumotlarning taxminan 80% odamlar tomonidan qabul qilinadi ya'ni ko'rish orqali. Shunday qilib, talaba videodan foydalanganda leksiyada juda ko'p ma'lumot oladi

Xulosa

Yuqorida qayd etilgan talablardan kelib chiqib, bir qator elektron darsliklar uchun Oliy ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalari mutaxassisliklari ham shunday yaratilgan:

“Informatika, axborot texnologiyalari”, “Veb-sahifa yaratish texnologiyalari”; “WebEditor”, “Kompyuter tarmoqlari”, “Adobe Flash”, “Adobe Dreamweaver”; “Kompyutergrafika”, “Video ma'lumotlarni qayta ishlash dasturi”, “JavaScript kursi”;

Ushbu Elektron darsliklardan foydalanish bir qator afzalliklarni keltirib chiqaradi:

- O'qituvchi va talaba foydalanish vaqtini tejaydi;
- Talabani zamonaviy texnologiyalarga yaqinlashtiradi;
- Har tomonlama tejamkorlikka ega;
- Talabani ta'lim doirasi cheklanmagan;
- Talabalar uchun qulay, oson va sodda;

O'quv rejasini shunga mos ravishda tez va doimiy ravishda o'zgartirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tillaev A.I. Videoma'ruzalarni tayyorlash va o'tkazishning umumiy qoidalari ta'lim jarayoni ular asosida "O'zbekiston Milliy universiteti axborotnomasi". 2013 yil, 165-167betlar
2. Tillaev A.I. Axborotdan foydalangan holda pedagogik dasturlarni yaratish va ulardan foydalanish texnologiyalar. "Amaliy fanlarning zamonaviy muammolari" xalqaro konferensiya tezislari matematika va axborot texnologiyalari - al-Xorazmiy 2018" Sentyabr, 2018 yil. Toshkent, 208-bet.
3. M.Aripov va boshkalar. "Informatika va xisoblash texnikasi asoslari" oliy o'quv yurtlari uchun, TTDU, 2002 y.
4. T.S.Safarov, Sh.U.O'roqov, R.R.Baxromov "Informatika va axborot texnologiyalari." Toshkent-2006 y.

**INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI**

Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, professor

Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich – NDPI, dotsent

Raximov Nodirbek Sharif o'g'li – NDPI, talaba

Annotasiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan elektron ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Kalit so'zlar: interaktiv, metod, innovatsiya, texnologiya, axborot ta'lim.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir sohaning taraqqiyoti aynan, shu soha vakillari yoki mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi hamda shu yo'nalishdagi rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham Vatanimizning ertangi kuni va uning mustahkam poydevorini yaratuvchisi bo'lgan yosh avlodning ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlaridagi tarbiyaviy jihatlarni yoshlarning ma'naviyatiga singdirib borish va Yangi O'zbekistonning ertangi kunini egalari bo'lgan yoshlarning tarbiyasi bugungi zamonaviy ta'lim tizimini qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Shu sababdan ham milliy ta'lim tizimini tubdan yangilashning muqobil yechimlarini topish va amaliy faoliyatga joriy etish har birimizning asosiy maqsadimiz ekanligini unutmasligimiz darkor.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchitalabalarining bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innavation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va talabaning doimiy hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonida qo'llanilishi zaruru bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblanadi, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, gurug esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan,

Olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot — ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar,

innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, innovasion metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o’zlashtirilib va qo’llanib borilishi ta’lim mazmunini tubdan o’zgartirib yubordi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o’quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo’lgan innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotda samarali qo’llashdir. Xulosa qilib aytganda, innovasion usullardan foydalanish, barkamol va komil shaxslarni tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari” to’g’risidagi PQ-4851-son Qarori.

OLIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI FOYDADANISHNING AHAMIYATI

Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, professor

Annotasiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda elektron ta'lim resurslarini foydadanishning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni va ko'lamiga o'zgarishlar kiritdi. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi.

Kalit so'zlar: elektron, texnologiya, ta'lim, resurs, raqamli, kompyuter.

So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida va uni axborotlashtirishda ham keng ko'lamli va shiddatli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu islohatlarga asos bo'lgan qator qonun hujjatlari ham ishlab chiqilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagi "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son qarorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasida Davlat dasturida ta'lim jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni, raqamli ta'lim resurslari, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish zarurligi asosiy vazifalardan biri deb olingan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni va ko'lamiga o'zgarishlar kiritdi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida O'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish choratadbirlari" to'g'risidagi PQ-4851-son qarorida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab berildi[1]. Mazkur me'yoriy hujjatlar doirasida Respublika ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish, masofadan turib o'qitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar o'tkazishga erishish, raqamli ta'lim platformalarini yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashga qaratilgan tadbirlar, ta'limni isloh qilish bo'yicha nufuzli loyihalar, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim tizimi dars jarayonlarida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish asosan yangi mavzuni bayon qilishda, takrorlash va umumlashtirish darslarida, yakuniy sharhli mashg'ulotlarda va shunga o'xshash darslar turlarida kutilgan natijani beradi. Ma'ruza davomida

taqdimot dasturlari orqali yaratilgan slayd-filmlardan foydalanish darsni an'anaviy usuldan uzoqlashtiradi, ma'lumotlarning dinamikligini, ko'rinishini, yuqori darajasini ta'minlaydi, o'rganilayotgan masalaga va umuman fanga talabning qiziqishini paydo qiladi. Darsga tayyorgarlik ko'rishda pedagog va talaba uchun electron darsliklar, internet ma'lumotlaridan foydalaniladi, didaktik materiallar, o'quv qo'llanmalar yaratiladi. Ma'ruza mazmuni va materialning taqdimoti talabalarning tayyorgarlik darajasiga qarab farqlanadi. Taqdimotni yaratishda uni yaratish maqsadi haqida unutmazlik kerak. Buning uchun ma'lum hajmdagi taqdimotni yaratish kerak, chunki ko'proq slaydlarning vizual diapazoni charchoqni keltirib chiqaradi, o'quvchini o'rganilayotgan materialning mohiyatidan chalg'itadi. Tushuntirish bilan birga bo'lmagan "qo'shimcha" slaydlar bo'lmasligi kerak. Mazzuga aloqador taqdimotga kiritiladigan so'z ma'nolariga ko'ra tanlanishi, ulardan eng maqbullarigina kiritilishi kerak. Bunda albatta, talabning bilim va tajribasidan kelib chiqqan holda yondashiladi. Taqdimotlarda matnli ma'lumotlar o'rnini diagrammalar, rasmlar, chizmalar, video parchalari egallashi kerak. Matnlardan iloji boricha kamroq, faqat xabarning asosiy fikrlari shakli ifodasi uchun foydalanish kerak. Elektron axborot ta'lim resurslarilari vositalaridan foydalanish ma'ruzalarni o'qishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Biroq, u puxta o'ylangan bo'lishi va o'qitish usullarini o'zgartirish bilan birga bo'lishi kerak. Multimediya texnologiyalaridan foydalangan holda ma'ruzani tashkil etish uchun, birinchidan, ular qanday imkoniyatlarni taqdim etishini bilish, ikkinchidan, ulardan oqilona foydalana olish maqsadga muvofiq. Bu taqdimotlarni tayyorlash bosqichi ko'p vaqtni talab qiladi, doimiy takomillashtirishni nazarda tutmasa ham, bugungi kunda kompyuter vositalari dars jarayonini takomillashtirishning eng keng imkoniyatlarini ifodalaydi hamda o'qitishning usul va metodlarni yanada rivojlantirish istiqbollari va yo'nalishlarini belgilaydi. Zamonaviy elektron axborot ta'lim resurslarilarining imkoniyatlari keng, ulardan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlarni ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitishda raqamli innovatsion texnologiyalarni qo'llash ma'lumotlardan tezkor foydalanish, o'quv materialini mazmunini ochishda audio va video taqdimotlarning o'zaro muvofiqlikda qo'llanilishi, talabalar bilim saviyalarini muntazam nazorat qilib borish va h.k.lar kabi qator afzalliklarga ega. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim jarayoni uchun katta imkoniyatlar ochadi. Ular nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ishlar samaradorligini ta'minlay oladi. Shu bilan birga, ta'lim oluvchilar bilish faoliyatini faollashtirib, bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishda nazariy tushunchalarni idrok etishning ko'rgazmalilik darajasini oshiradi hamda ko'nikma va malaka kompetensiyalarini oson egallashlariga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4851-son Qarori.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna – NDPI, katta o'qituvchi

Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich – NDPI, dotsent

Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, professor

Annotatsiya: Maqolada elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyalari va ularning o'quv jarayonlarini takomillashtirishdagi tadbirg'i keltirilgan. O'quv materialini kamchiliklarini tezda tuzatish, zarur o'zgartirishlar kiritish imkonining borligi, materialni kompyuter yordamida turli ko'rinishda tayyorlash mumkinligi, rangli tasvirlardan foydalanish, ularni harakatlantirish imkoniyatini yaratishda elektron taqdimotning afzalligi mavjud.

Kalit so'zlar: Elektron, ta'lim, resurs, kompyuter, vosita, o'quv, gipermatn, grafik jadval.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o'tish talablari ta'lim strategiyasini o'zgarishiga olib kelmoqda. Uzluksiz ta'lim olishning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari vujudga keldi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan yangi ta'lim turlarining paydo bo'lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda, sobiq ta'lim tizimining yillar davomida shakllangan an'anaviy usul va vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligidadir.

Elektron ta'lim resursini yaratish ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash, talabaning o'quv faoliyatini o'zi nazorat qilish va to'g'ri yo'naltirish, kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o'quv vaqtini tejash, o'quv materiallarini vizuallashtirish, o'rganilayotgan ta'lim jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, fikrlashning aniq bir shakli (ko'rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish, bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi.

Elektron ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri "Ispring" dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft - PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolak shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan.

Ta'lim tizimida elektron ta'lim resurslardan foydalanishning ommalashuvini asosiy sababi sifatida nafaqat pedagoglar uchun, balki, o'quvchilar uchun ham qulay bo'lgan tomonlarining mavjudligini ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zlari istagan holda va hohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari ta'limda elektron ta'lim resurslardan foydalanish orqali quyidagi:

- pedagog kadrlar yetishmaydigan hududlarda ham o'quvchilarni onlayn yoki masofaviy shaklda ta'lim olishlari;
- o'qituvchi va o'quvchilarning internet tarmog'idan o'zlari istagan fanga oid ma'lumotlarni olish, izlash, tarqatish va undan foydalanish;
- tizimda elektron ta'lim resurslardan foydalanish asosida ta'lim samaradorligini oshirish, vaqt va mablag' sarfini kamaytirish;
- ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslarni qo'llash orqali o'quvchilarning shunchaki, fanlarni o'zlashtirishlari emas, balki ularning bilimlarni qay darajada o'zlashtirayotganligi va muammoli vaziyatlarga tayyorligi hamda ularda tanqidiy tafakkurni shakllanganligi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil o'z ustida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish kabi imkoniyatlarga ega bo'lamiz.

Bugungi kunda elektron resurslarni ta'lim jarayoniga faol kirib borayotganligining bosh omili darslarning sifatini ijobiy tomonga o'zgartirishdagi samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etayotganligidir. Bunday sifat darajasini yanada yuksalirishda o'qitishning turli vositalari va elektron ta'lim resurslarni qo'llashning yangi strategik loyihalarini ishlab chiqish hamda yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini faqat eshitish emas, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450
2. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Kholmurodova Z.N., Karimova N.A. Specific features of using the multimedia system in the educational process *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10.5958/2278-4853.2020. 00201.3, Impact Factor : SJIF 2020 = 6.882, r. 40-46

**TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH TIZIMNI RIVOJLANTIRISH
IMKONIYATLARI**

Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich – NDPI, dotsent

Qo'chqorova Surmaxon Suvonovna – NDPI, katta o'qituvchi

Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, professor

Annotatsiya: Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi pedagogik texnologiyalar» atamasini ishlata boshladik. Internet leptomlar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi.

Kalit so'zlar: pedagogika, onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim, axborot, texnologiya, innovatsiya.

Oliy ta'lim tizimi rivojiga qaratilgan muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni bo'lib, unda oliy ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish tizimni rivojlantirishning ustuvor yunalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Bir so'z bilan aytganda, oliy ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maqsadli tadbqiq qilish, shu orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Ta'lim tizimi, o'quv jarayoni va o'qitish usullari bo'yicha tashkil etilgan tizimdir. Bu tizim, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma va qoidalarni ma'lum qiladi. Ta'lim tizimi, maktab, kollej, instituti, universitet va boshqa ta'lim muassasalari kabi o'quv markazlarida amalga oshiriladi. Bu tizim orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni o'rganishini yanada yaxshilashadi va amaliyotga taalluqli mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Milliy ta'limni takomillashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o'rni yildanyilga ortib bormoqda, ularning joriy etilishi ta'limni modernizatsiya va rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va ta'limni ilm-fanga olib borishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalar ta'lim faoliyatiga mavjud yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek ularning jamiyat va alohida ijtimoiy guruhlarga ta'sirini tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan ta'limni raqamlashtirish va uning ijtimoiy oqibatlarini o'rganish ilmiy tadqiqotning juda dolzarb yo'nalishi bo'lib ko'rinadi.

Ta'lim sohasi eng tez rivojlanayotgan, mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadigan, zamonaviy axborot texnologiyalari, hamda raqamli resurslarni talab qiladigan istiqbolli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalar hamda

raqamlashtirilgan resurslardan keng foydalanib kelinmoqda. Bu esa ta'lim sifatini, o'qitish samaradorligini yanada oshirishning ustuvor yo'nalishlaridandir. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy mehnati, faollik va ijodiy fikrlashidan iborat bo'lgan

ko'pqirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Dars samaradorligini oshirish ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda yo'lga qo'yish va yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishdan asosiy maqsad o'qituvchilar va talabalar jamoasi hamkorligi izchilligini ta'minlash hamda uni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu ishda ham pedagogik, ham boshqaruv masalalari hal etiladi. Shuni qayd etish lozimki, pedagogik innovatsiyalar ishtirokchilari innovatsiyalarning yuzaga kelish, namoyon bo'lish va boshqarish jarayoni qonuniyatlari haqida metodologik, psixologik, pedagogik, texnologik bilimlarni puxta egallashi lozim. Aks holda pedagogik innovatsiyalar samarali natija bermaydi.

Ta'lim tizimida axborot va raqamli resurslardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega bo'lishingizga yordam beradi. Bu, o'quvchilarga o'rganishni sifatliroq qilish va ularga qulayliklar yaratish imkonini beradi.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanishingiz mumkin:

1. Ommaviy kutubxonalardan foydalanish
2. Video darslardan foydalanish
3. Internetdan foydalanish
4. Mobil ilovalardan foydalanish
5. E-booklardan foydalanish

Bugungi kunda, internetda bir nechta o'z-o'zini ko'rsatuvchi ta'lim platformalari mavjud, bu sizga bir qadamdan boshlab ta'lim tizimini boshlashga yordam beradi. Bu platformalarning bir necha misollariga quyidagi manbalardan murojaat qiling: Udemy, Coursera, Edx, Lynda, Khan Academy. Elektron kitoblar ta'lim uchun juda jihatli resursdir. Bu sizning o'rganishni sifatliroq qilishingizda va xarajatlaringizni tekshirishingizda yordam beradi. Ta'lim tizimida yozilish sizga ta'lim jarayonidan foydalanish imkonini beradi. Bu sizning o'rganishni rivojlantirishga yordam beradi. YouTube'da darslar toplami mavjud, shuningdek, bir qancha video darslariga kirib oling va o'rganishni boshlang. Ommaviy kutubxonalarda ko'pgina ma'lumotlar mavjud, bu sizning xonadoningizga yaqin joylarda bo'lmasligi mumkin bo'ladi. Mobil ilovalar ta'lim tizimida osonlik va qulayliklar yaratish imkonini beradi. Misol uchun, Duolingo ilovasi orqali chet tillarini o'rganishingiz mumkin.

Ta'lim tizimida axborot va raqamli resurslardan foydalanish, o'quvchilarga ko'proq ma'lumot va bilim olishi uchun yaxshi samaraga ega bo'ladi. Bu, bir necha sabablarga qarab amalga

oshirilishi mumkin. Axborot va raqamli resurslar o'quvchilar uchun qulay va tezroq erkin bo'lishlariga imkon beradi. Ularga kerak bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirishga yordam beradi. Axborot va raqamli resurslar orqali o'quvchi, o'sha fan yoki mavzuga oid cheklanmagan ma'lumotlarni ham olishadi.

Axborot va raqamli resurslar, katta aholiga ta'limni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bular sayt, blog, video darslar kabi ko'rinishda taqdim etilishi mumkin. Ta'lim tizimida axborot va raqamli resurslardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu, ta'limning yangi bosqichi bilan muvafaqqiyatli bir xil katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ta'lim tizimida axborot va raqamli resurslardan foydalanish, o'quvchilar uchun muhimdir. Bu, ularga qulayliklar va samaradorlik bilan ta'lim olishlariga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450
2. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Kholmurodova Z.N., Karimova N.A. Specific features of using the multimedia system in the educational process *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10.5958/2278-4853.2020. 00201.3, Impact Factor : SJIF 2020 = 6.882, r. 40-46

MATEMATIKA DARSLARINI TASHKILLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Azimova Toyibaxon Elmurodjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda matematika darslarini tashkillaashda raqamli texnologiya elementlaridanfoydalanishning muhim jihatlari va foydalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: onlayn, dastur, raqamli o'yinlar, Educreations, Explain Everything, Prodigy Math, Math Playground, Mathletics.

Raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvi o'quv tajribasini inqilob qildi. Matematikani o'qitishning an'anaviy usuli o'zgartirildi. Endi o'quvchilar texnologiya orqali interaktiv va ko'rgazmaliroq bilim olishlari mumkin. O'qituvchilar matematika darslarini tashkil etish, uni yanada qiziqarli qilish, o'quvchilarga o'rganayotganda yanada unutilmas va quvonchli vaqt o'tkazish imkonini berish uchun turli raqamli elementlardan foydalanishlari mumkin.

Matematikani o'qitishning eng samarali raqamli elementlaridan biri onlayn simulyatsiyalardir. Simulyatsiyalar o'quvchilarga boshqariladigan va interaktiv sharoitda matematik tushunchalarni amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatini beradi. Aksariyat onlayn simulyatsiyalar bosqichma-bosqich jarayonga ega va talabalarga tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi, bu ularga materialni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, Matematika dasturi, boshqalar qatorida kalkulyatsiya, statistika va algebra o'rgatishda qo'llaniladi.

Matematika darslarini tashkil qilishda qo'llaniladigan yana bir raqamli element Educreations va Explain Everything kabi raqamli oq taxtalardan foydalanishdir. Raqamli oq taxtalar yordamida o'qituvchilar turli matematik tushunchalar haqida ko'proq vizual va batafsil misol keltirishlari mumkin, bu esa o'quvchilarga tushunishni osonlashtiradi. Raqamli oq taxa, shuningdek, guruh ishini osonlashtirish uchun ishlatilishi mumkin, chunki talabalar birgalikda hamkorlik qilishlari va muammolarni birgalikda hal qilishlari mumkin.

O'quvchilarga matematik tushunchalarni vizuallashtirishda animatsiyalar, video va interaktiv grafikadan ham foydalanish mumkin. Matematika darslarini to'ldirish uchun Khan Academy, Ted-Ed, YouTube kabi platformalardagi videolardan foydalanish mumkin. Ushbu resurslar o'quvchilarning turli mavzular bo'yicha eng yaxshi tushuntirishlarni o'z darajasida olishlari uchun mavzu mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, Prodigy Math, Math Playground, Mathletics kabi raqamli o'yinlar Matematika darslarini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu o'yinlar o'quvchilarga o'yinlar

o'ynayotganda matematik tushunchalarni mashq qilish imkonini beradi, bu esa o'rganish jarayonini yanada quvonarli qiladi. O'yinlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi, bu esa muammolarni yanada yangicha tarzda hal qilish imkonini beradi.



Xulosa qilib aytganda, matematika darslarini tashkil etishda raqamli texnologiya elementlaridan foydalanish o'rganishni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Onlayn simulyatsiyalar, raqamli oq taxtalar, animatsiyalar, videolar va interaktiv o'yinlarni birlashtirish o'quv tajribasini interaktiv va unutilmasroq qiladi. Texnologiya ilgari lab borishda davom etar ekan, o'qituvchilar undan foydalanib, matematikani o'rganishni yanada zavqli qilish uchun taqdim etayotgan imkoniyatlarni maksimal darajada oshirishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

2. 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmoni
3. 2.G'ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2000.
4. Nasretdinova Sh. Excel 7.0 jadval hisoblagichlari. Moliya va bank akademiyasi nashriyoti, T., "Moliya": 2000 y.
5. Yusupov A.I., Quromboyev H.N. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti uzmu_1121@inbox.ru
6. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Фан, 2006.
7. Zunnunov A, Maxkamboyev U. Didaktika: Oily o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma.-T.: "Sharq" 2006
8. Jumayev M.E, Matematika o'qitish metodikasi (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2011 yil.

ТЕКИСЛИҚДА БЕРИЛГАН ЭЛЛИПСЛАР МИНКОВСКИЙ АЙИРМАСИ**Жалолхон Нуритдинов Турсунбой ўғли**

Кўқон Университети оқитувчиси

Аннотатсия: Ушбу мақола оптимал бошқариш масалаларини ҳал қилишда кенг қўлланиладиган Минковски операторларининг бир тури Минковски айирмаси ҳақида. Ишда эллипслар билан чегараланган текисликнинг икки қавариқ майдонининг Минковский айирмасини топиш бўйича илмий тадқиқот натижалари баён этилган.

Калит сўзлар: Минковски йиғиндиси, Минковски айирмаси, параллел кўчириш, эллипс, эллипс диаметрис.

Abstract: This article is about the Minkowski difference, a type of Minkowski operator widely used in solving optimal control problems. The work describes the results of scientific research on finding the Minkowski difference of two convex areas of a plane bounded by ellipses.

Keywords: Minkowski sum, Minkowski difference, parallel displacement, ellipse, ellipse diametric.

Дифференциал ўйин назарияси замонавий математиканинг жадал ривожланаётган тармоғидир. Унинг ривожланиши, хусусан, тадқиқот масалалари ва уларни қўллаш соҳаларини (ҳарбий характердаги масалалардан иқтисодий, механик, биологик ва инсон фаолиятининг бошқа соҳаларигача) кенгайтириш билан боғлиқ.

Дифференциал ўйинларда таъқибни тугатиш учун олинган натижаларни, масалан, тугатиш вақтини интеграл тўпламларнинг кенглиги бўйича таққослаш кейинчалик амалий масалаларда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Бу масалани ўрганиш, айниқса, кучсиз қавариқ тўпламлар назариясини ва Минковски операторининг геометрик хусусиятларини ишлаб чиқишни ва уни чизиқли дифференциал ўйинларга қўллашни талаб қилади. Шунинг учун Минковски операторининг геометрик хусусиятларини ўрганиш долзарблигича қолмоқда.

Минковский операторлари биринчи марта дифференциал ўйинларни ўрганиш учун Л.С. Понтрягин [1],[2]. Шунингдек, Минковский операторининг дифференциал ўйинларга қўлланилиши Н.Ю.Сатимов, Г.Е.Иванов, Б.Н.Пшеничнийлар томонидан ўрганилган.

$X * Y$ Минковский айирмасининг геометрик маъноси Y тўпламни X тўпламдан чиқмасдан параллел равишда силжитиш мумкин. Қуйида текисликда берилган эллипсларнинг Минковски фарқини топиш учун баъзи натижалар келтирилган.

Текисликда иккита E^A ва E^B эллипслар билан чегараланган топламлар берилган бўлсин. Айтайлик $F_1^A(\alpha_1^1, \alpha_1^2)$, $F_2^A(\alpha_2^1, \alpha_2^2)$ нуқталар E^A эллипснинг, $F_1^B(\beta_1^1, \beta_1^2)$, $F_2^B(\beta_2^1, \beta_2^2)$ нуқталар эса E^B эллипснинг фокуслари бўлсин. $2a^A$ ва $2a^B$ сонлар мос равишда E^A ва E^B эллипсларнинг катта ўқлари узунликлари бўлиб

$$a^A \geq a^B, \quad (1)$$

$$4(a^A)^2 - |F_1^A F_2^A|^2 \geq 4(a^B)^2 - |F_1^B F_2^B|^2, \quad (2)$$

муносабатлар ўринли бўлсагина $E^A * E^B$ айирма ҳақида гапириш мумкин. Бу дегани $E^A * E^B$ айирма бўш бўлмаслигининг зарурий шarti: E^A эллипснинг ўқлари узунлиги, E^B эллипснинг ўқлари узунлигидан кичик бўлмаслиги лозим. Лекин (1) ва (2) шартлар бажарилиши $E^A * E^B$ айирма бўш бўлмаслиги учун етарли эмас. Қуйида (1) ва (2) шартлар бажарилган тақдирда $E^A * E^B$ тўпламнинг бўш бўлмаслиги учун етарли шартларни баён қиламиз.

Текисликда эллипсни аниқлаш бир қийматли бўлиши учун унинг фокусларининг координаталарини ва катта ўқини узунлигини бериш кифоя. E^A эллипснинг маркази $O^A\left(\frac{\alpha_1^1 + \alpha_2^1}{2}, \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}\right)$ нуқта, худди шу каби $O^B\left(\frac{\beta_1^1 + \beta_2^1}{2}, \frac{\beta_1^2 + \beta_2^2}{2}\right)$ нуқта E^B эллипснинг маркази бўлади.

$\vec{i}(1,0)$ вектор билан $\overline{F_1^A F_2^A}(\alpha_2^1 - \alpha_1^1, \alpha_2^2 - \alpha_1^2)$ вектор орасидаги бурчак косинуси ва синуси

$$\cos \mu = \frac{\alpha_2^1 - \alpha_1^1}{\sqrt{(\alpha_2^1 - \alpha_1^1)^2 + (\alpha_2^2 - \alpha_1^2)^2}}, \quad \sin \mu = \frac{\alpha_2^2 - \alpha_1^2}{\sqrt{(\alpha_2^1 - \alpha_1^1)^2 + (\alpha_2^2 - \alpha_1^2)^2}}, \quad (3)$$

формулалар орқали топилади. У ҳолда фокуслари $F_1^A(\alpha_1^1, \alpha_1^2)$, $F_2^A(\alpha_2^1, \alpha_2^2)$ нуқталарда бўлган ва катта ўқи узунлиги $2a^A$ га тенг E^A эллипснинг тенгламаси

$$\frac{(2(x \cos \mu + y \sin \mu) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^A)^2} + \frac{(2(-x \sin \mu + y \cos \mu) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(a^A)^2 - (\alpha_2^1 - \alpha_1^1)^2 - (\alpha_2^2 - \alpha_1^2)^2} = 1 \quad (4)$$

кўринишда бўлади.

Худди шу каби фокуслари $F_1^B(\beta_1^1, \beta_1^2), F_2^B(\beta_2^1, \beta_2^2)$ нуқталарда бўлган ва катта ўқи узунлиги $2a^B$ га тенг E^B эллипсининг тенгламаси

$$\frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \beta_1^1 - \beta_2^1)^2}{4(a^B)^2} + \frac{(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \beta_1^2 - \beta_2^2)^2}{4(a^B)^2 - (\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 - (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2} = 1 \quad (5)$$

кўринишда бўлади. Бу ерда η бурчак $\vec{i}(1,0)$ вектор билан $\overline{F_1^B F_2^B}(\beta_2^1 - \beta_1^1, \beta_2^2 - \beta_1^2)$ вектор орасидаги бурчак бўлиб, бу бурчакнинг косинус ва синуси

$$\cos \eta = \frac{\beta_2^1 - \beta_1^1}{\sqrt{(\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 + (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2}}, \quad \sin \eta = \frac{\beta_2^2 - \beta_1^2}{\sqrt{(\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 + (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2}}, \quad (6)$$

каби топилади.

$E^A \neq E^B$ тўплам бўш бўлмаслиги учун E^B тўпламни параллел кўчириш ёрдамида E^A тўпламнинг ичига жойлаштириш мумкин бўлиши лозим. Шунинг учун, E^B тўпламни $\overline{O^B O^A}$ вектор бўйлаб параллел кўчирамиз. Натижада ҳосил бўлган \tilde{E}^B эллипс тенгламаси

$$\frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^B)^2} + \frac{(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(a^B)^2 - (\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 - (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2} = 1 \quad (7)$$

кўринишда бўлиб қолади.

Теорема 1. Евклид текислигида фокуслари ва катта ўқи орқали берилган иккита E^A ва E^B эллипслар $E^A \neq E^B$ Минковский айирмаси бўш бўлишлиги

$$\begin{cases} \frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^B)^2} + \frac{(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(a^B)^2 - (\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 - (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2} = 1; \\ \frac{(2(x \cos \mu + y \sin \mu) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^A)^2} + \frac{(2(-x \sin \mu + y \cos \mu) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(a^A)^2 - (\alpha_2^1 - \alpha_1^1)^2 - (\alpha_2^2 - \alpha_1^2)^2} = 1; \end{cases} \quad (8)$$

система 4 та ҳақиқий ечимга ега бўлиши зарур ва етарли. Қолган ҳолларда $E^A \neq E^B$ Минковский айирмаси бўш бўлмайди. Бу ерда $a^A \geq a^B$.

Исбот. Бу теоремани исбот қилишда биз (8) системани таҳлил қилишимиз керак. (8) системани соддароқ ёзиш учун баъзи белгилашларни киритамиз:

$$2b^A = \sqrt{4(a^A)^2 - (\alpha_2^1 - \alpha_1^1)^2 - (\alpha_2^2 - \alpha_1^2)^2}, \quad (9)$$

$$2b^B = \sqrt{4(a^B)^2 - (\beta_2^1 - \beta_1^1)^2 - (\beta_2^2 - \beta_1^2)^2}, \quad (10)$$

(9) ва (10) ифодалар мос равишда E^A ва E^B эллипсларнинг кичик ўқлари узунликларидир. Бу белгилашлардан кейин (8) системани

$$\begin{cases} \frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^B)^2} + \frac{(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(b^B)^2} = 1; \\ \frac{(2(x \cos \mu + y \sin \mu) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^A)^2} + \frac{(2(-x \sin \mu + y \cos \mu) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(b^A)^2} = 1; \end{cases} \quad (11)$$

кўринишда ёзиб оламиз. $E^A * E^B$ айирмани ҳисоблашда E^B тўпламни $\overline{O^B O^A}$ вектор бўйлаб параллел кўчирамиз натижада маркази O^A нуқтада бўлган E^B эллипсга ўхшаш \tilde{E}^B эллипс ҳосил бўлади. Бунда қуйидаги ҳоллар бўлиши мумкин:

1) Биринчи ҳолда $\overline{F_1^A F_2^A}$ ва $\overline{F_1^B F_2^B}$ векторлар ўзаро параллел бўлади. E^B тўпламни $\overline{O^B O^A}$ вектор бўйлаб параллел кўчирганимизда \tilde{E}^B ва E^A эллипсларнинг мос ўқлари устма-уст тушади ва $\mu = \eta$ бажарилади. Бундай ҳолатда (11) система чексиз кўп ҳақиқий ечимга, фақат 2 та ечимга эга бўлиши ёки умуман ечимга эга бўлмаслиги мумкин. Агар $a^A = a^B$ бўлиб, $|F_1^A F_2^A| = |F_1^B F_2^B|$ тенглик ўринли бўлса, у ҳолда (11) системанинг иккала тенгламаси ҳам бир хил бўлиб қолади. Бу дегани система чексиз кўп ечимга эга, яъни \tilde{E}^B ва E^A эллипслар устма-уст тушиб қолади. Бу эса $E^A * E^B \neq \emptyset$ эканлигини англатади.

Агар $a^A = a^B$ бўлиб, $|F_1^A F_2^A| < |F_1^B F_2^B|$ муносабат бажарилса, (11) системанинг биринчи тенгламасидан иккинчи тенгламасини айириб қуйидагича соддалаштирамиз:

$$\frac{(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(b^B)^2} - \frac{(2(-x \sin \mu + y \cos \mu) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2}{4(b^B)^2} = 0. \quad (12)$$

Бунда биринчи ва иккинчи тенгламаларнинг биринчи ҳадлари бир хил бўлиб қолганлиги учун қисқариб кетди. $\mu = \eta$ бўлгани учун (12) тенгламани

$$(2(-x \sin \eta + y \cos \eta) - \alpha_1^2 - \alpha_2^2)^2 \left(\frac{1}{4(b^B)^2} - \frac{1}{4(b^A)^2} \right) = 0, \quad (13)$$

кўринишда ёза оламиз. $|F_1^A F_2^A| < |F_1^B F_2^B|$ бўлганлиги учун (13) тенгламанинг иккинчи кўпайтувчиси нўлдан фарқли бўлади, шу боисдан (13) тенглама

$$-x \sin \eta + y \cos \eta = \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}, \quad (14)$$

тенглама билан тенг кучли.(14) ифодани (11) системага қўйиб

$$\begin{aligned} x \cos \eta + y \sin \eta &= a^B + \frac{\alpha_1^1 + \alpha_2^1}{2}, \\ x \cos \eta + y \sin \eta &= -a^B + \frac{\alpha_1^1 + \alpha_2^1}{2} \end{aligned} \quad (15)$$

тенгламалани ҳосил қиламиз. Демак, (11) системанинг ечимларини топиш масаласи


$$\begin{cases} -x \sin \eta + y \cos \eta = \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}; \\ x \cos \eta + y \sin \eta = a^B + \frac{\alpha_1^1 + \alpha_2^1}{2}; \end{cases} \quad (16)$$

$$\begin{cases} -x \sin \eta + y \cos \eta = \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}; \\ x \cos \eta + y \sin \eta = -a^B + \frac{\alpha_1^1 + \alpha_2^1}{2}; \end{cases} \quad (17)$$

системаларни ечишга келиб қолади. (16) ва (17) системалар икки ноъмалумли биринчи даражали тенгламалар системаси ва унинг асосий детерминанти

$$D = \begin{vmatrix} -\sin \eta & \cos \eta \\ \cos \eta & \sin \eta \end{vmatrix} = -\sin^2 \eta - \cos^2 \eta = -1 \neq 0 \quad (18)$$

бўлганлиги учун ҳар бир система биттадан ечимга эга. Бундан эса (11) система иккита ечимга эга эканлиги келиб чиқади. Демак, \tilde{E}^B ва E^A эллипсларнинг иккита умумий нуқтаси бор экан. $\overline{F_1^A F_2^A} \cap \overline{F_1^B F_2^B}$ ва $a^A = a^B$ бўлганлиги сабабли бу эллипсларнинг умумий нуқтаси катта ўқларидаги учлари бўлади. $|F_1^A F_2^A| < |F_1^B F_2^B|$ бўлгани учун эса \tilde{E}^B эллипс, E^A эллипснинг ичида жойлашиб қолади (1-расм). Бу $E^A * E^B \neq \emptyset$ эканлигини англатади.



1-расм

Агар $a^A = a^B$ бўлиб, $|F_1^A F_2^A| < |F_1^B F_2^B|$ муносабат бажарилса, (2) муносабат бажарилмай қолади ва $E^A * E^B$ айирма бўш тўпладан иборат бўлади.

Агар $a^A > a^B$ бўлиб, $(a^A)^2 - |F_1^A F_2^A|^2 = (a^B)^2 - |F_1^B F_2^B|^2$ муносабат бажарилса, (11) системадаги ҳар иккала тенгламаларнинг иккинчи қўшилувчилари бир ҳил бўлиб қолади ва

$$\frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^B)^2} - \frac{(2(x \cos \eta + y \sin \eta) - \alpha_1^1 - \alpha_2^1)^2}{4(a^A)^2} = 0, \quad (19)$$

тенглик ўринли бўлади. $a^A > a^B$ бўлгани учун (19) тенглама


$$x \cos \mu + y \sin \mu = \frac{\alpha_1^1 - \alpha_2^1}{2}, \quad (20)$$

тенгламага тенг кучли. (20) тенгликни (11) системага қўйиб

$$\begin{cases} -x \sin \eta + y \cos \eta = b^B + \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}; \\ x \cos \eta + y \sin \eta = \frac{\alpha_1^1 - \alpha_2^1}{2}; \end{cases} \quad (21)$$

$$\begin{cases} -x \sin \eta + y \cos \eta = -b^B + \frac{\alpha_1^2 + \alpha_2^2}{2}; \\ x \cos \eta + y \sin \eta = \frac{\alpha_1^1 - \alpha_2^1}{2}; \end{cases} \quad (22)$$


системаларни ҳосил қиламиз. Демак, бу вазиятда (11) системани ечиш (22) ва (21) системаларни ечишга келиб қолар экан. Бу системалар учун ҳам (18) муносабат ўринли бўлгани учун, улар ягона ечимга эга ва шунинг учун (11) система иккита ечимга эга. Бу ҳол учун эллипсларнинг жойлашуви 2-расмдагидек бўлиб, уларнинг умумий нуқтаси кичик ўқлари учларидан иборат бўлади;



2-расм


2) Бу ҳолда $\overline{F_1^A F_2^A}$ ва $\overline{F_1^B F_2^B}$ векторлар ўзаро параллел бўлмайди. E^B тўпلامни $\overline{O^B O^A}$ вектор бўйлаб параллел кўчирганимизда \tilde{E}^B ва E^A эллипсларнинг мос ўқлари устма-уст тушмайди ва $\mu \neq \eta$ бўлади. Бу ҳолда (11) система ёки 2 та турли ҳақиқий илдизга, ёки 4 та турли ҳақиқий илдизга эга бўлади, ёки умуман илдизга эга бўлмайди. Бу вазиятда (11) система чексиз кўп илдизга эга бўлиши мумкин эмас.

(11) система тўртта ҳақиқий ечимга эга бўлди дегани \tilde{E}^B ва E^A эллипслар тўртта нуқтада кесишишини билдиради. Бунда эллипсларнинг вазияти 3-расмдаги каби бўлади ва $E^A \neq E^B$ айирма бўш тўпладан иборат бўлишини кўриш мумкин.




3-расм

(11) система иккита турли ҳақиқий ечимга эга бўлди дегани \tilde{E}^B ва E^A эллипслар икки нуқтада уринишини билдиради. Бунда (1) ва (2) шартлар ўринли бўлгани учун эллипсларнинг вазияти 4-расмдаги каби бўлади ва $E^A \neq E^B$ айирма бўш бўлмайди.



4-расм

(11) система ечимга эга бўлмади дегани \tilde{E}^B ва E^A эллипсларнинг умумий нуқтаси мавжуд эмаслигини билдиради. Бунда (1) ва (2) шартлар ўринли бўлгани учун эллипсларнинг вазияти 5-расмдаги каби бўлади ва $E^A * E^B$ айирма бўш бўлмайди. Теорема тўлиқ исботланди.



5-расм

(1), (2) шартлар ва юқоридаги теорема текислида фокуслари ва катта ўқи орқали берилган эллипсларнинг Минковский айирмаси бўш ёки бўш эмаслигини аниқлай олади, лекин айирма натижасида ҳосил бўлган тўпلامни топиш имконини бермайди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. L.S.Pontryagin, On Linear Differential Games I. *Dokl. Akad. Nauk SSSR*, 174(6)(1967) 1278-1280.
2. L.S.Pontryagin, On Linear Differential Games II. *Dokl. Akad. Nauk SSSR*, 175(4)(1967) 764-766.
3. M.Mamatov, J.Nuritdinov, Some Properties of the Sum and Geometric Differences of Minkowski. *Journal of Applied Mathematics and Physics*, 8 (2020) 2241-2255.
4. G. E.Ivanov, Weakly Convex Sets and Their Properties. *Math. Notes*, 79(1)(2006) 55-78.
5. S.Tomiczkova, Area of the Minkowski sum of two convex sets. *Proceedings of Conference on geometry and computer graphics*, Janov nad Nisou 2005.
6. Y.Martinez-Maure, Geometric Study of Minkowski Differences of Plane Convex Bodies. *Canad. J. Math.* 58 (3) (2006) 600-624.
7. J.T.Nuritdinov. On the minkowski difference of lines and planes // *Modern problems of applied mathematics and information technologies*. Al-Khwarizmi 15-17 November, 2021, Fergana, Uzbekistan. pp 252.

TEACHING PHYSICS BASED ON MODERN TECHNOLOGIES**Adashaliyeva FeruzaBonu**

Farg'ona politexnika instituti talabasi

feruzabonuadashaliyeva@gmail.com

Annotation: This article describes the teaching of physics and the problems that arise in it. It is clear that we will achieve new results as a result of studying and analyzing the problems. It was suggested that the development of pedagogical technologies should be effective in education and give the expected results.

Keywords: physical laws, laboratory work, diagnostics, technological approach, modeling, virtual laboratory.

Nowadays, physics is a general education subject. It serves as the basis for a number of special disciplines, so it is important for students to know not only the laws of physics and phenomena, but also the ability to apply them in solving practical and experimental problems. However, in particular, technological hands-on activities are not included in the curriculum, so it is very difficult to teach students to use physical knowledge to solve problems using traditional forms of education. Another problem in teaching physics is that the formal completion of laboratory work by students is reduced to the repetition of operations specified by the teacher or described in the instruction, which does not provide the level of preparation required by the educational standards. The use of modern pedagogical technologies will help to solve this and a number of other tasks.

However, due to differences in the goals, objectives and system of teaching secondary school students and university students, there is a need to theoretically substantiate and test in practice the effectiveness of the use of modern educational technologies already established in teaching physics. is born. at a technical university. To do this, you need:

- Substantiate the need and possibilities of using modern educational technologies in teaching physics at the Technical University.
- Coordination of didactic capabilities of modern educational technologies and normative requirements for the organization of the educational process.
- Creation of didactic support of modern educational technologies in teaching physics to students of technical universities.
- To test the effectiveness of the use of modern educational technologies in teaching physics to secondary school students.

Educational technology is a set of basic data and a description of the planned learning outcomes, tools for diagnosing the current state of students, a set of teaching models and criteria for selecting the optimal education model for specific conditions. inclusive system.

Pedagogical technology is a systematic way of creating, applying and defining the whole process of teaching and learning, taking into account the technical and human resources and their interaction aimed at optimizing the forms of education.

Analyzing all of the above definitions, pedagogical technology is based on a specific scientific concept, programming pedagogical interactions in a certain way, creating conditions for the development of participants in the pedagogical process and known, pre-planned can be seen as a sustainable education system that undertakes education.

Pedagogical technology should be characterized by key general qualities: consistency, complexity, integrity, scientific feature, conceptuality, developmental nature, systematic, logical, algorithmic, procedural, manageable, diagnostic, predictable, efficient, optimal, and reproducible.

The technological approach allows:

- accurate prediction of results and management of pedagogical processes;
- scientific analysis and systematization of existing practical experience and its use;
- comprehensive solutions to educational and socio-educational problems;
- providing favorable conditions for personal development;
- reducing the impact of adverse events on humans;
- Optimal use of available resources.

This means that the use of modern educational technologies in teaching students is an important and necessary condition for improving the quality of education. The analysis of model programs and educational standards in various specialties allows students to identify the basic organizational and didactic principles of choosing modern pedagogical technologies for use in teaching physics:

1. The compatibility of the forms of implementation of technology with the forms of organization of the educational process in physics at the university, the main forms of teaching physics to students are lectures, practical and laboratory classes.

2. The content of education corresponds to the specific features of physics as a science, which allows to reveal the cognitive, technical and humanitarian potential of physics.

3. The compatibility of the interaction between the subjects of the educational process with the higher education system, which indicates a high level of independent work of students.

4. Orientation to self-education and self-development, that is, the formation of knowledge, skills, abilities and relevant competencies in the process of the student's own activities and cognitive activities. ensures mastery of methods and techniques.

5. Ensuring an individual development trajectory that takes into account individual and age characteristics, students' level of preparation, specialization, as well as the specifics of studying physics as a general educational discipline.

6. Integrality of learning outcomes, which implies that mastering the content of the subject is not only science-oriented, but also personal development.

In teaching science, it is important to use new methods of delivery to the student, taking into account the relevance of the topics. A student who has studied semiconductor physics should also be able to see it as a model. It is also convenient to create laboratory work virtually and get results. The interest of the student also increases. The 3D rendering of the modeling process is not only eye-catching but also imaginative.

The student will gain a general understanding of the evolving field of electronics and the creation of smart devices through the effective teaching of technology and physics. Modular learning technology can also be used in distance and traditional classes.

REFERENCES:

1. Kirk, D. (2013). Educational value and models-based practice in physical education. *Educational Philosophy and Theory*, 45(9), 973-986.
2. Qo'Chqorov, H. O., & Yusupov, D. A. (2021). FUNDAMENTAL FANLARNI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 448-455.
3. Farmonov, U. M., & Xudoyberdiyev, A. I. (2021). TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHLARI TALABALARIGA FIZIKA FANINI O'QITISH METODIKASI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 3), 613-617.
4. Abdusattorova Mohinur Omonjon qizi. (2022). APPLICATION OF DISTANCE LEARNING AS A NECESSARY TOOL. *Academica Globe: Inderscience Research*, 3(02), 189-192. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NERU8>
5. Abdusattorova Mohinur Omonjon qizi. (2022). Cms And Automated Internet Systems. *Eurasian Research Bulletin*, 5, 147-150. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/706>
6. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.

**TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH****Kamolaxon Oripova Erkinjon qizi**

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar fakulteti, o'qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy raqamli texnologiyalarga, media platformalar, elektron matnlar ta'lim imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga hissa qo'shishi, o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilar va o'qituvchilarni ijtimoiy tarmoq markaziga joylashtirish imkonini berishi bilan ta'limda talab ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: kontent, electron darslik, interaktiv, raqamli texnologiya, resurs, texnik.

Abstract: Modern digital technologies, media platforms, electronic texts contribute to the realization of educational opportunities, allow to organize the educational process more effectively, and place students and teachers in the center of social networks in education. demand is increasing.

Keywords: content, electronic textbook, interactive, digital technology, resource, technical.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, ta'lim tashkilotining ichki tuzilmasi faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi, bu raqamli resurslarni rejalashtirish tizimlari, elektron hujjat aylanish tizimlari, rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tizimlari va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni nazarda tutadi. Ta'limdagi raqamli texnologiyalarning umumiy ko'rinishi o'qituvchilar va talabalarga yanada samaraliroq va qiziqarliroq o'rganish va o'qitishga yordam beradigan turli xil vositalar va ilovalar tavsifini o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar turli ta'lim muassasalarida va ta'limning turli bosqichlarida - boshlang'ich maktabdan to universitetgacha qo'llanilishi mumkin. Ta'limda qo'llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalardan ba'zilari:

-texnik muammolar: Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishga internet aloqasi yetarli emasligi yoki uskunaning nosozliklari kabi texnik muammolar to'sqinlik qilishi mumkin;

-tengsizlik: Hamma talabalar texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa o'rganishda nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu turli xil daromad darajasi va texnologiyadan foydalanish imkoniyati bo'lgan talabalar o'rtasidagi tafovutni kengaytirishi mumkin;

-shaxslararo cheklangan aloqa: Onlayn ta'lim talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi cheklangan shaxslararo aloqaga olib kelishi mumkin, bu ularning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

-kontent sifati: Raqamli ta'limda kontent sifatining pasayishi xavfi mavjud, bu esa ta'lim sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin;

-ma'lumotlarni himoya qilish: Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalar ma'lumotlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa maxfiy ma'lumotlarning chiqib ketishiga olib kelishi mumkin;

-texnologiyaga bog'liqlik: Texnologiyaga haddan tashqari ishonish ijodkorlikning pasayishiga va texnologiya yordamisiz haqiqiy dunyoda muammolarni hal qilish qobiliyatiga olib kelishi mumkin;

-jismoniy harakatsizlik: Ta'limda raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanish o'quvchilarda jismoniy harakatsizlikka olib keladi, bu esa sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin;

-kontentga kirish imkoniyatini cheklash: Raqamli kontent mavjudligi cheklangan bo'lishi mumkin va faqat ma'lum texnologiyalarni sotib olishga qodir bo'lganlar foydalanishi mumkin.

Ta'limda raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish o'quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, ammo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va xavflarni hisobga olish va tushunish kerak.

Zamonaviy texnologiyalar bolalarga ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga, o'qituvchilarga esa ta'lim va tarbiyaning yangi yondashuvlari, usullari, modellarini yaratish imkonini beradi. Masalan, o'qituvchi ma'ruzaning istalgan bosqichida o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun onlayn so'rov o'tkazishi mumkin. Talaba tegishli materiallar yoki manbalarga havolalardan foydalanishi mumkin bo'lganda, raqamli darsliklardan foydalanish bilan o'quv jarayoni yanada dinamik bo'ladi. Bolalar berilgan savollarga javob izlashlari, o'z pozitsiyalarini shakllantirishlari va keyin uni himoya qilishlari mumkin.

Loyiha faoliyatini tashkil etish uchun texnologik vositalardan foydalanish ta'lim natijalarida sezilarli o'zgarishlarga erishish mumkin. O'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etishning yangi modellarini, masalan, "aylantirilgan sinf" ni amalga oshirish imkoniyatiga ega. XXI asrning ushbu ta'lim texnologiyasida. o'qituvchi birinchi navbatda o'quvchilarga yangi materialni uyda mustaqil o'rganish imkoniyatini beradi, so'ngra ushbu materialni sinfda amaliy mustahkamlashni tashkil qiladi.

Onlayn so'rovlar va boshqa raqamli vositalar barcha talabalarni, shu jumladan uyatchan, ishonchsiz va odatda tashabbus ko'rsatmaydigan talabalarni o'quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi. Onlayn tizimlar muntazam ravishda fikr-mulohazalarni, jumladan, o'quv materiallari va topshiriqlari mavjudligi to'g'risida talabalarning fikr-mulohazalarini olish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish o'qituvchiga har bir bolaning qiyinchiliklarini osongina va tez aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish, o'quvchilar raqobatlasha oladigan sohalarni aniqlash va shuning uchun har bir o'quvchining ishini yoki guruhda ishlashni oson sozlash imkonini beradi. Masalan, texnologiya viktorina kabi faol o'rganish usulidan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Dars boshida o'qituvchi texnik qurilmalardan foydalangan holda viktorina o'tkazishi va o'quvchilarning boshlang'ich darajasini tezda baholashi mumkin, ishonchli ma'lumot olish va uni tahlil qilish uchun bir necha daqiqa vaqt sarflaydi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'z sa'y-harakatlarini qayerga yo'naltirishni va talabalarning mehnatini qanday tashkil qilishni ob'ektiv tushunib, o'quv jarayonini tashkil etishga tuzatishlar kiritishi mumkin. Dars oxirida xuddi shu viktorinani o'tkazish yana minimal vaqt bilan fikr-mulohaza olish imkonini beradi va talabalarga mashg'ulot natijalari va muvaffaqiyatini baholash imkonini beradi. Mobil platforma ilovalari va elektron darsliklarda o'quv faoliyatini tashkil etishni sezilarli darajada o'zgartiruvchi vositalar taqchil emas. Ba'zi texnologik qurilmalar o'rganish jarayonida turli xil rag'batlantirish va yordam turlaridan foydalanadi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qilish uchun ball va mukofotlarni taqsimlash uchun raqobat stsenariylaridan foydalanadi. Bunday texnik qurilmalardan foydalanishning muhim sharti o'quv maqsadlariga erishishdir. Ba'zi mobil platformalar va elektron darsliklar rolli o'yinlarni o'z ichiga oladi, ularda talabalarga, masalan, tarixiy shaxslar yoki ilmiy tushunchalar foydasiga faktlar va ularning dalillarini taqdim etish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, o'yin texnologiyalari o'quv jarayoniga sog'lom raqobatni joriy etishga yordam beradi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari samarali o'quv faoliyatini tashkil etishda va har bir o'quvchining yutuqlarini real baholashda katta yordam beradi.

Ta'limdagi raqamli texnologiyalar allaqachon ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ular an'anaviy ta'lim chegaralarini kengaytirish imkonini beradi va o'rganishni istagan har bir kishiga o'rganish imkoniyatini beradi. Onlayn o'quv platformalari, virtual va to'ldirilgan reallik, robototexnika va boshqa vositalardan foydalanish nafaqat o'rganish sifatini oshiradi, balki uni yanada qulay va interaktiv qiladi. Shu bilan birga, o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq xavflar ham mavjud, jumladan ma'lumotlar maxfiyligi, texnologiyaga bog'liqlik va o'qituvchi va talaba o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yo'qligi va boshqalar. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ta'lim amaliyotini o'zgartirish va kelajak avlodlarni zamonaviy dunyoning murakkab muammolariga tayyorlash uchun kuchli vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kosoruchenko T.V. Organizational, methodological and informational support of the teaching process of applied economic disciplines in educational institutions of higher and secondary vocational education [Organizatsionno–metodicheskoye i informatsionnoye soprovozhdeniye protsessu prepodavaniya prikladnykh ekonomicheskikh distsiplin v obrazovatel'nykh

organizatsiyakh vysshego i srednego professional'nogo obrazovaniya] // Scientific works of the Moscow University for the Humanities. – 2017. – No. 6. P. 3-4.

2. Ozhegov S.I., Shvedova N.YU. Explanatory dictionary of the Russian language [Tolkovyy slovar' russkogo yazyka]. – Moscow: Technologies, – 2016. – 944 p.

3. Palyanychko A.O., Rozhkova M.G. Foreign experience in teaching economic disciplines [Zarubezhnyy opyt prepodavaniya ekonomicheskikh distsiplin] // Southern almanac of scientific research. – 2018. – No. 5. P. 27–30.

4. Shchukina G.I. Activation of students' cognitive activity in the educational process [Aktivatsiya poznavatel'noy deyatel'nosti uchashchikhsya v uchebnom protsesse]. Moscow: Education, – 2017. – 144 p.

5. Andryukhina L.M. Telepresence technologies – a new anthropological platform for the development of education [Tekhnologii teleprisutstviya – novaya antropologicheskaya platforma razvitiya obrazovaniya] – Access mode: http://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/12527/1/edscience_2014_8_117_005.pdf (access date 30.06.2020).

6. Zamkov A.V. On the virtual expansion of media reality [O virtual'nom rasshirenii mediareal'nosti] – Access mode: <http://www.mediascope.ru/2351> (date of access 06/30/2020).

ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI VA JAMIYAT BOSHQARUVI**Mulaydinov Farhod Murotovich**

Qo'qon Universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası mudiri

Keldiboyeva Zumradxon Mirolim qizi

Qo'qon Universiteti talabasi

Annotatsiya: Mustakillik yillarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va yoshlar madaniyatining transformatsiyasi, globalizatsiya va yoshlar madaniyati, shaxar va qishloq yoshlarining madaniyati xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Bizning tadqiqotimiz etnologiya fanining nazariy yondoshuvlariga asoslanadi. Yoshlar madaniyati davrida biz yoshlarning me'yorlari, qadriyatları, turmush tarzini tushunamiz. Yoshlik madaniyatining elementlari orasida e'tiqodlar, xatti-harakatlar, uslublar va qiziqishlar mavjud. Yoshlar tomonidan ishlatiladigan kiyim-kechak, ommabop musiqa, sport, terminologiya o'zlarining mukammal madaniyatidir. Yoshlar madaniyatida ko'plab mukammal va o'zgaruvchan yoshlar subkulturalari mavjud. Tadqiqot asosida yoshlarning madaniyatini tushunish, ularning rivojlanishi va zamonaviylikning turli salbiy ta'sirlari va tendentsiyalarini oldini olish bo'yicha qimmatli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya va yoshlar madaniyati, yoshlarning me'yorlari, turmush-tarz, subkultura, ta'lim-tarbiya, madaniyat, Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, dunyo qarash, milliylik.

Abstract: During the years of independence, attention is paid to the sociopolitical processes and the transformation of youth culture, globalization and youth culture, the characteristics of urban and rural youth culture. Our research is based on theoretical approaches to the science of ethnology. In the age of youth culture, we understand the norms, values, lifestyles of young people. Elements of youth culture include beliefs, behaviors, styles, and interests. Clothing used by young people, popular music, sports, terminology are their perfect culture. There are many perfect and changing youth subcultures in youth culture. The research will develop valuable recommendations for understanding the culture of young people, their development and prevention of various negative influences and trends of modernity.

Keywords: Globalization and youth culture, youth norms, lifestyle, subculture, education, culture, religious extremism, terrorism, drug addiction, worldview, nationalism.

O'zbekiston bugungi kunda kuchli iqtisodiy salohiyatga ega, ma'naviy va axloqiy asoslarni yaratgan mustaqil demokratik davlat.

Mamlakatimiz yosh avlod tarbiyasini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak manaviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 15 iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash -davr talabi» mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi.

«Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan», deya ta'kidladi Prezidentimiz.

«Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda», - dedi prezident.

«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi», - dedi prezident va e'tiqod, oilaviy qadriyatlarga putur etkazayotgan xavflarni sanab o'tdi.

«Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «omnaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur etkazmoqda», - dedi u. (<https://sputniknews-uz.>)

Jamiyat hayotidagi asosiy masala - ularning ma'naviy madaniyatini rivojlantirish va ma'naviy qadriyatlarini o'zgartirishdir.

Madaniyatni ijtimoiy-gumanitar bilimlarda inson hayotiy hodisasi sifatida o'rganish eng muhim jihatlaridan biri madaniy reproduksiyadir, bu cheklangan miqdordagi qadriyatlar, shu jumladan qadriyatlar o'tmishidan kelajakka o'tish,

rivojlanish jarayoni muhim o'zgarishdir. Bizning nuqtai nazardan birinchi navbatda, madaniyatni qadriyatlar va axloq me'yorlarni takomillashtirish jarayoni sifatida o'rganilishi kerak.

XX asr insoniyat jamiyatining rivojlanishida muayyan bir chiziq chizib chiqdi va bu asrning insoniyatining taqdiri qanchalik bog'liqligini anglatadigan yangi madaniy paradigma paydo bo'ldi.

Uning mazmuni madaniyatning sayyoraviy rolini odamlar jamiyatini rivojlantirishga, asosiy omili sifatida tarixiy zaruratga bog'liq. Shuning uchun madaniy shaxs modelini o'rganish muammosi dolzarblashtirilgan. Hayot madaniyati ijtimoiy institutlar tomonidan keyingi avlodlarga etkazilib, insoniyatning tarixiy rivojlanishidagi davriy jarayonlar, bir tomondan, madaniy qadriyatlarni va urf-odatlarini saqlab qolish moyilligini, bir tomondan, o'zgaruvchan mavzu-ob'ektga mos ravishda yoshlarning manaviy an'anasini yangilashga intilishi ko'rsatadi.

Zamonaviy madaniyatga bo'ysunish jarayonlari asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq.

Zamonaviy axborot tizimlari, inson hayotining mohiyatiga kirib boradi, yangi hayot maydonlarini egallaydi, iste'molchini tizimlashtiradi va taqdim etilgan ma'lumotni insonga talqin qiladi, bu erda taqdim etilgan virtual hayotning tarkibi va tabiatiga moslashishni talab qiladi, uning kundalik tajribasini butunlay beqarorlashtiradi.

Zamonaviy axborot sivilizatsiyasining rivojlanishida cheklovlar ko'pincha madaniy muxolifatning turli shakllari va hatto turli madaniyat sub 'ektlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga ega bo'lib, ular ko'pincha mafkuraviy, diniy, milliy yoki boshqa xilma-xil munosabatlarni ta'kidlaydilar.

O'z navbatida, murakkab tizim bo'lgan madaniyat muayyan bir tuzilishga ega. Madaniy o'zgarishlarning muammolari kosmosda ma'naviyat, jismoniy yoki ruhiylik, madaniyatning ruhiyati, madaniyati va ruhining nisbati bilan bog'liq. Ushbu munosabatlar nuqtai-nazaridan, ommada mutlaqo muayyan madaniyatning ustuvorligi bilan boshlangan obyektiv bilimlar natijasida yuzaga kelgan hukmron mafkuraga bog'liq bo'lgan inson ongining paydo bo'lishi yuzaga keladi (Aryta, 2011. S.81).

Madaniyat nuqtai-nazaridan inson ongining aqliy transformatsiyasiga yordam beradigan va ijtimoiy-madaniy sohada yoshlarni moslashtirish jarayoniga hissa qo'shadigan omillardan biri - bu biopsixosozial o'zaro hamkorlikda ishlashdir.

Ayni paytda mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotida o'zgarishlar yuz bermoqda. Evropa va boshqa rivojlangan davlatlardan axborot orqali ommoviy madaniyatning kirib kelishi, insonning axloqiy barqarorligi, milliy qadriyatlarni saqlab qolish qobiliyati kamaytirishida muxim ro'l o'ynamoqda. Shuning uchun yoshlarning madaniy, ma'naviy va jismoniy salomatligini

shakllantirish muammolari alohida o'rin tutadi; mustaqil fikrlaydigan, faol ishlaydigan, intellektual salohiyatga ega bo'lgan va axloqiy tamoyillarga ega bo'lgan «yangi» turdagi fuqarolarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratish lozim.

Yoshlar - bu maxsus ijtimoiy jamoa va qiymat tizimining tarkibiy tuzilishi va shakllanishi jarayonida mavjud bo'lgan juda katta innovatsion kuchdir. Bu yerda yoshlarni sotsialashtirishning asosiy vositalaridan biri insoniyatning to'plangan bilimlari, qadriyatlarini, me'yorlar va shaxslarning ma'naviy dunyosini ifodalovchi modellar (shaxslar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar va butun jamiyat)ni o'z ichiga olgan madaniyatdir. (Azarova, 2005. C.27-32.).

Yoshlar jamiyatning umumiy madaniy va kasbiy talablarini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirishni talab qiladi. Yoshlarning ijtimoiy-madaniy mavqeyining o'ziga xos xususiyatlari, bo'sh vaqtda namoyon bo'ladi, bu boshqa yosh guruhlarning bo'sh vaqtlariga nisbatan faol va rekreatsion shakllarning xilma-xilligi va ustunligi bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan ma'lumki, dam olish - bu shaxsning jismoniy va aqliy kuchini tiklash funksiyasini amalga oshiradigan shaxsiy tadbirlar to'plami. Bunda jismoniy faol, passiv dam olish, muloqot, o'yin-kulgi, bo'sh dam olish, yurish, madaniyatga qarshi tadbirlar (spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qimor o'yinlari va hokazo), maqsadsiz, istak va ehtiyojsiz tasodifiy faoliyatlar yoshlarning jamiyatdagi manaviy dunyosining buzulishiga olib keladi. Shuning uchun jamiyatni ma'naviy va jismoniy taraqqiyotiga ta'siri sifatida uning tartibga solish muammosi asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, dam olish nisbatan mustaqil (shaxsiy) sohadir va yoshlarning hayotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularning dunyoqarashlariga bog'liq. O'yin-kulgi sohasida, yoshlar boshqa joydan ko'proq erkin inson sifatida harakat qilishadi. Darslarni tanlash va bo'sh vaqt yo'qligi buning sababi bo'lishi mumkinligi takidlanadi. Bir yosh yigit mustaqil qaror qabul qilganda, uning ahamiyati ko'tariladi. Dam olishning ko'p sohasi professional va oilaviy uy vazifalaridan ozod bo'lish bilan tavsiflanadi, bundan tashqari, uning doirasida yoshlarning shaxsiga nisbatan institutsional bosim kuchayadi. Bugungi kunda yoshlarning dam olish sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi, masalan; dam olishning yangi shakllari paydo bo'lib, ularning tabiati va shakli o'zgarib bormoqda.

O'yin-kulgi turlarini tanlash, xususan, shaxsiy rivojlanish darajasini, uning yo'nalishini, hayot pozitsiyasining shakllanish darajasini aks ettiradi.

Shuningdek, yoshlarning katta qismi ommaviy madaniyatni iste'mol qilish jarayonida, individualizm, zo'ravonlik, ikkiyuzlamachilik, jinsiy aloqa va o'yin-kulgilarni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etib, jahon madaniyatining ijobiy yutuqlarini egallash uchun ishonchli qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirilmasligini e'tirof etishimiz kerak.

Shunday qilib, bugungi ijtimoiy-madaniy vaziyatda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali foydalanishga - umuman olganda, ijtimoiy va atrof muhitni rivojlantirishga, butun hayotimizni ma'naviy yangilashga qiziqtirish asosiy vazifaga aylanmog'i kerak.

Hozirgi kunda davlatlar tomonidan olib borilayotgan boshqaruv siyosatini ko'plab G'arb va Sharq faylasuflari, siyosatchilari ilmiy jihatdan o'rganishgan va tahlil qilishgan.

Masalani eng muhim jihatlaridan biri, avvalo olib borilayotgan siyosatni insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini e'tibor qaratilishi hech kimga sir emas.

«Davlatni boshqarish to'g'risida ikki risola» asarida Lokk har qanday zamonaviy sotsial hodisa, xususan, davlat boshqaruvi kabi katta ijtimoiy ahamiyatga molik hodisani tushunishga intilish bizni bu masalaning tabiati va mohiyatiga murojaat qilishga undaydi, degan fikrni bildirib o'tadi. Jamiyatda yuz beradigan ko'pgina voqea-hodisalar boshqaruv masalasi bilan bog'liq. Lotincha "administratio" degan atama rahbarlik qilishni (kimgadir, nimagadir) bildiradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazku maqolada Jon Lokkning siyosiy-falsafiy qarashlarida davlat boshqaruvi va uning bugungi kundagi xususiyatlari haqida fikrlar tahlil qilindi. Jon Lookning "Tabiat qonuni bo'yicha tajribalar" nomli kitobi metodologik manba bo'lib belgilandi. Shu bilan birga Sh.M. Mirziyoyevning asarlaridan keng foydalanildi.

Lokk fikricha, boshqaruv - bu hech istisnosiz barcha tashkilot a'zolarining faoliyat yo'nalishini ta'minlaydigan, butun tashkilot va uning ayrim qismlarini belgilangan maqsad doirasida ushlab turadigan ushbu tashkilotning spetsifik, ya'ni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan idorasining vazifasi.

Masalan, davlat musassasasidagi bo'lim xodimlar ish vaqti, ular mehnatining miqdori va sifatini, boshqa bo'limlar bilan munosabatlar va boshqa holatlarni nazorat qiladigan me'yor va qoidalarga ega.

Bu bo'lim rahbariyati, boshqaruv vazifasini bajarar ekan, mukofotlash yoki jazolash usullarini qo'llagan holda, amalda bu me'yor va qoidalarga qanchalik rioya etilayotganini nazorat qiladi. Lokk fikricha, boshqaruvning umumiy xususiyatlari quyidagilar: 1. Harakat va bashoratlarning umumiy yo'nalishlarini rejalashtirish. 2. Insoniy va moddiy resurslarni tashkil qilish. 3. Xodimlar harakatini qulay holatda ushlab turish uchun farmoyish va ko'rsatmalar berish. 4. Umumiy maqsadlarga erishish uchun turli harakatlarni muvofiqlashtirish hamda tashkilot a'zolari xatti-harakatlarini mavjud qoida va me'yorlarga muvofiq holda nazorat qilish.

Aytish kerakki, bular boshqaruv bo'yicha mutaxassis amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlarning barchasi emas. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bunday mutaxassisning reklama ishlari, qo'shimcha mablag'lar undirish va ko'pgina boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Haqiqiy boshqaruvchi yuksak malakali xodim bo'lishi o'z-o'zidan ravshan. Tashkilotda boshqaruv vazifalarini bajarish bilan shug'ullanadiganlar byurokratik ma'muriyat deb ataladigan alohida guruhga kiradi.

Lokk, biz boshqaruv tegishli ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan faoliyatlarni o'zida mujassam etadi, degan xulosaga kelimiz deydi.

Insonning turli hayot sohalariga ta'sir ko'rsatishi nuqtai nazaridan quyidagi boshqaruv turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Hayvonot va o'simlik dunyosiga zarur shaklda ta'sir ko'rsatish yo'lini tanlash bilan bog'liq bo'lgan biologik boshqaruv.
2. Texnologik jarayonlar, mexanizmlar va shunga o'xshash holatlarni boshqarish bilan bog'liq texnologik boshqaruv.
3. Insonning insonga ta'sir qilish vositalarini shakllantiradigan, insoniy jamiyat boshqaruvini nazarda tutadigan ijtimoiy boshqaruv.

O'z navbatida Lokkning e'tiroficha, ijtimoiy boshqaruvning o'zi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Bu boshqaruv turi odamlar birgalikda yashaydigan joyda bo'ladi.
2. Insonlarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishni bosh maqsad qilib qo'yadi.
3. Asosiy elementi boshqaruv sub'ekti (boshqaradigan element) va boshqaruv ob'ekti (boshqariladigan element) bo'lgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.
4. Ijtimoiy munosabatlarning regulyatori, ya'ni posangisi sifatida maydonga chiqadi.
5. Boshqaruv munosabatlari ishtirokchilari irodasining ma'lum ma'noda bo'ysunish holatida bo'lishiga asoslanadi (boshqaruv sub'ekti "o'z hukmronligi"ni amalga oshiradi, boshqaruv ob'ekti esa ongli ravishda unga bo'ysunadi).

"Davlat boshqaruvi" tushunchasining tor ma'nodagi mazmunini sharhlar ekanmiz, ba'zi ma'muriy soha xodimlari bu tushunchaga turli ma'nolar yuklashini qayd etmasdan bo'lmaydi. Ayrim huquqshunoslar davlat boshqaruvi - bu birinchi galda barcha davlat idoralarining ma'muriy-ijrochilik faoliyatidan iborat deb hisoblaydi. Bizning nazarimizda, davlat boshqaruvini bunday talqin qilish uning ma'no-mazmunini to'liq aks ettirmaydi, chunki bunday qarash davlat idoralarining quyidagi tashkilotchilik faoliyatini inkor etadi.

Zaichenko fikricha, Lokk davlat boshqaruvining tavsifi haqida ham alohida to'htalib o'tadi³. Davlat boshqaruvi - ijrochilik xususiyatiga ega bo'lgan yagona davlat hokimiyatini amalga oshirish faoliyatining yagona ko'rinishi. Bunday boshqaruv birinchi galda qonunlar, xukumat qarorlarini hayotga joriy etishga qaratilgan. Bundan tashqari, bu qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash uchun davlat idoralari (davlat boshqaruvi sub'ektlari) davlat hokimiyati vakolatlariga ega va bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar - hokimiyat nomidan buyruqlar berishga haqli. Davlat boshqaruvi xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Исторические наследие ученых и мыслителей средневекового Востока, его роль и значение для современной цивилизации / Материалы международной конференции.- Ташкент: «Узбекистан», 2014.
2. Лагута Л.М. Трансформация социальных ценностей студенческой молодёжи // Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Материалы Всеукраинской научной конференции.- Днепропетровск: «Инновация», 2011.
3. Азарова. Р.Н. Педагогическая модель организации досуга обучающейся молодежи / Р.Н. Азарова // Педагогика. - 2005. - № 1. - С. 27-32.
4. Седова Н.Н. Досуговая активность молодёжи // Социологические исследования. 2009. № 12. - С. 56-59.
5. <https://sputniknews-uz.com/analytics/20170703/5736267/Mirziyoyev-yoshlarga-Hukumat-eshiklarini-ochdi.html>.
6. Boshqaruv mezonlari. Boliev A. Qurbonov M. Tafakkur jurnali. 2002 yil 4 - son. 4 - bet
7. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
8. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. - 56 b.
9. Ochilov SH. Ijtimoiy o'z -o'zini boshqarish tajriba va muammolar. T.O'zbekiston. 1990. 83 bet.
10. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
11. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468474 P.
12. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

**TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOLALARNING SOG'LIG'IGA ZARAR
YETKAZUVCHI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH****SH. F. Ulug'xo'jayeva**

Farg'ona shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi ta'sarrufidagi

35-o'rta ta'lim maktabi direktori

Annotatsiya: Hozirgi kunda bola huquqlarini ta'minlash global muammolardan biri bo'lib, uni hal etish bilan bog'liq masalalar jahon hamjamiyatining doimiy diqqat-e'tiborida.

Аннотация: в настоящее время защита прав детей является одной из глобальных проблем, и вопросы, связанные с ее решением, находятся в постоянном внимании мирового сообщества.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, jahon, sog'lom, jismoniy, g'ayriqonuniy.

Hozirgi kunda bola huquqlarini ta'minlash global muammolardan biri bo'lib, uni hal etish bilan bog'liq masalalar jahon hamjamiyatining doimiy diqqat-e'tiborida. Bu bejiz emas, chunki yosh avlod jamiyat taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlovchi yetakchi kuch hisoblanadi. Har bir millatning ertangi kuni, uning yorug' istiqboli o'zining har tomonlama barkamol, iste'dodli yoshlariga bog'liq. Qaysi yurt taraqqiyotga erishmoqchi bo'lsa, shubhasiz bolalar tarbiyasiga, ularning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishiga asosiy e'tiborni karatadi. Shuning uchun ham mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq, bolalar va yoshlarning ma'naviy, jismoniy kamolotiga katta e'tibor qaratildi. Agar e'tibor qilsak, mustaqil O'zbekistonimiz tomonidan qabul qilingan birinchi qonunlardan biri ham "O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari" bo'lib, u 1991 yilning 20 noyabrida qilingan edi. Ushbu qonunning yangi taxriri "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun 2016 yil 14 sentabrida qabul qilindi. Yoki O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan 1993 yil 4 martda qabul qilgan farmoniga muvofiq ta'sis etilgan mustaqil O'zbekistonning ilk ordeni «Sog'lom avlod uchun» deb nomlandi. Bu yuksak nishon mamlakat oldidagi ulug' maqsadlarni ko'zlab ta'sis etilgan edi. Sog'lom avlodgina, barkamol millatgina buyuk davlatni bunyod etish mumkinligiga timsol bo'ldi. Hozir dunyo buyicha 110 mln. bola maktabga jalb etilmagan. Har yili 100 minglab bolalar qarovsizlikdan nobud bo'lmoqda. Bu raqamlar har birimizni mushohadaga undaydi. Shuning uchun ham bola huquqlarini ta'minlash global muammolardan biri bo'lib, uni hal etish dunyo hamjamiyatining doimiy diqqat-e'tiborida.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashdagi bosh va asosiy muammolardan biri ularni hayotiga va sog'lig'iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga, o'z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ'ib qilishga undaydigan axborotlardan ximoya qilish masalasidir. Shu maqsadda 2017 yil 8 sentabr № O'RBQ-444 – raqam bilan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan ximoya qilish to'g'risida"gi

O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Qonunning maqsadi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Bolalarni ularning sog'lig'igazara yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari deganda quydagilarni tushinish mumkin:

- bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ushbu sohadagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- bolalar ongiga g'ayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir ko'rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g'ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish;

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, jismoniy va yuridik shaxslarning bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash mezonlari, mexanizmlari va uslublarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dasturiy-apparat va texnika vositalarini joriy etish shular jumlasidandir.

Bugungi kunda ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlarining va ta'lim muassasalarining bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida quydagi ishlarni amalga oshirishi lozimdir:

- bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

- bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga qaratilgan dasturlar va uslublarni ishlab chiqadi hamda ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy etadi;

- ta'lim, o'quv-tarbiya muassasalarida bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish maqsadida ularning ta'lim olish, bilim orttirish va muloqot faoliyati jarayonida bolalarga psixologik yordam ko'rsatadi;

-bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida yakka tartibdagi profilaktika tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etadi;

-bolalarning axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir faoliyatda ishtirok etadi;

- ta'lim muassasalarida bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni o'z ichiga olmagan axborot resurslaridan foydalanishni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot jumlasiga bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti, ya'ni muayyan yosh toifalaridagi bolalar o'rtasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsulotlarini aytish mumkin. Bolalarni ularning hayotiga va sog'lig'iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga, o'z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ'ib qilishga undaydigan, shuningdek bolalarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilish, qimor o'yinlarida, ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etish, fohishalik, darbadarlik, tilanchilik yoki g'ayri-ijtimoiy xatti-harakatning boshqa shakllari bilan shug'ullanish istagini paydo qiladigan axborotlarni tushunish mumkin.

Shu bilan birga odamlarga yoki hayvonlarga nisbatan zo'ravonlik va shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan yoki oqlaydigan yoxud zo'ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undaydigan hamda oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ'ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a'zolariga nisbatan hurmatsiz munosabatni shakllantiradigan shuningdek g'ayriqonuniy xulq-atvorni oqlaydigan va huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan ma'lumotlar ham bolaning qalbini jarohatlaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda bolalar o'rtasida buzg'unchilik g'oyalarini targ'ib etishga chaqiradigan, uyatli so'zlarni o'z ichiga olgan, pornografiya xususiyatiga ega bo'lgan axborotni o'z ichiga olgan, shafqatsizlik, jismoniy va ruhiy zo'ravonlik, jinoyat yoki jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlar tasvirlangan, bolalarda qo'rquv, vahima yoki sarosima uyg'otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o'limni, kasallikni, o'z joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyan yoki falokatni va ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan, erkak va ayol o'rtasidagi jinsiy munosabatlarni tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etiladigan axborot mahsulotlari to'lib yotibdi. Afsuski bunday ma'lumotlarni zararsizlantirish mexanizimi yoki unga to'siq qo'yish imkoniyati bugungi kunda mavjud emas. Darhaqiqat, bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat yetakchi o'ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki "fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya" bilan kurashib olg'a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha yengib chiqadi. Mamlakatimiz kelajagini ta'minlaydigan, ma'naviy dunyosi butun, axloqan pok, O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida samarali mehnati, dunyoviy fanlarni chuqur o'zlashtirgan yoshlarni tarbiyalash ta'lim tizimidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo‘nalishidan biri “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat” qilib belgilanganligi voyaga yetmaganlar orasida ma‘naviy tahdidlar mazmunini fosh qilish va vatanparvarlikni chinakam e‘tiqodga aylantirish bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 19 martda videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilib, bu yig‘ilishda yoshlarimizga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg‘u berildi. Aytish kerakki, turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini anglangan xolda, davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish maqsadida 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bugungi kunda har-bir tashabbus bo‘yicha mamlakatimizda chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib yurtimiz yoshlari ijtimoiy-iqtisodiy xayotiga tadbiriq etilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlarning pirovard maqsadi yoshlar bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, ularda buzg‘inchi g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini mustaxkam shakllantirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi haqida shunday yozadi: “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”. Darhaqiqat, bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, endi mafkuraviy kurash, ma‘naviy salohiyat yetakchi o‘ringa chiqdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” 2018 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu boradagi muammolar va ularni hal qilish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma‘ruza “Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 noyabr

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini umumta‘lim maktablarining 7-10 sinflarida o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli qarori.-Toshkent, 2017 yil 15 mart. “Xalq so‘zi” gazetasi.

BOG'LIQSIZ TASODIFIY MIQDORLAR YIG'INDISINING XARAKTRISTIK FUNKSIYASI**Jovliyev Aziz Ismanqul o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti

E-mail: aziz.jovliyev130791@mail.ru

Annotatsiya Bu ishda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanida muhim ahamiyat kasb etgan tasodifiy miqdorlar yig'indisining xarakteristik funksiyalar topish ko'rilgan.

Kalit so'zlar. Xarakteristik funksiya, Zinchlik funksiya, Tasodifiy miqdor, Matematik kutilma, Dispersiya, Normal taqsimot.

Абстрактный. В данной работе рассматривалось нахождение характеристических функций суммы случайных величин, что важно в науке теории вероятностей и математической статистике.

Ключевые слова. Характеристическая функция, Функция устойчивости, Случайная величина, Математическое ожидание, Дисперсия, Нормальное распределение.

Abstract. In this work, it was considered to find the characteristic functions of the sum of random variables, which is important in the science of probability theory and mathematical statistics.

Keywords. Characteristic function, Stability function, Random quantity, Mathematical expectation, Dispersion, Normal distribution.

Bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indisining xarakteristik funksiyasi topish masalasini ko'rib o'taylik.

Teorema. Agar X_1, X_2, \dots, X_n - bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar, bir xil taqsimlangan $MX_i = a$ chekli matematik kutilma va $DX_i = \sigma^2, i = \overline{1, n}$ $0 < \sigma^2 < \infty$ dispersiyaga ega bo'lsin, u

holda $Y_n = \sum_{i=1}^n X_i$ yig'indining xarakteristik funksiyasi $f_{Y_n}(t) = e^{njta - \frac{nt^2\sigma^2}{2}}$ ga teng.

Isbot. Uzluksiz tasodifiy miqdorlar uchun xarakteristik funksiyasini topamiz. Xarakteristik funksiyalar xossalriga ko'ra, bog'liqsiz tasodifiy miqdorlar yig'indisining xarakteristik funksiyasi tasodifiy miqdorlarning xarakteristik funksiyalari ko'paytmasiga teng.[1]

X_1, X_2, \dots, X_n tasodifiy miqdorlar bir xil taqsimlangani uchun bir xil zinchlik $p(x)$ funksiya va bir xil xarakteristik $f_X(t)$ funksiya ega.

Teoremani isbotlash uchun normal taqsimotning xarakteristik funksiyasini topamiz, uning zinchlik funksiyasi

$$p_X(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}$$

U holda tasodifiy miqdorning xarakteristik funksiyasi

$$f_X(t) = e^{ita - \frac{t^2\sigma^2}{2}} \quad (1)$$

Y_n tasodifiy miqdorning xarakteristik funksiyasi n ta X tasodifiy miqdorning xarakteristik funksiyasining ko'paytmasiga teng, ya'ni

$$f_{Y_n}(t) = [f_X(t)]^n$$

bundan

$$f_{Y_n}(t) = \left[e^{ita - \frac{t^2\sigma^2}{2}} \right]^n = e^{inta - \frac{t^2\sigma^2 n}{2}} \quad \text{ekanligi kelib chiqadi.}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov A.A., Zuparov T.M "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika" Tafakkur Bustoni. nashriyoti. T.: -2015 y.
2. Rasulov A.S. va b. "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika" O'zb.fay.milliy jam. nashriyoti. T.: -2006 y.
3. A.C.Расулов, Г.Раимова «Теория вероятностей и математическая статистика». Учеб.пособие, Т.: Изд.УМЭД,2002г.
4. В.Е.Гмурман «Теория вероятностей и математическая статистика», М.: «Высшая школа», 1977 г.

**ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
METODIKASI****G'aniyeva Shaxrizod Nurmaxamadovna**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlar oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat. Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, zamonaviylik, ta'lim texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, ta'lim muassasalari, virtual reallik.

Virtual reallik — bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrofmuhitning odatiy usuldagi tasavvurini — turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish — boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin.

Kompyuterning tasavvur qilinadigan xotirasi — virtual xotira sifatida qabul qilinib, u fizik jihatdan hech bir alohida olingan xotira tashuvchisiga muvofiq kelmaydi, ya'ni, virtual xotira kompyuter elementlarining o'zaro funksional ta'sirlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Shunday qilib, virtual xotirani yuzaga keltiruvchi dasturiy vositalar yordamida inson juda ulkan hajmdagi axborotlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaldagi zamonaviy kompyuterlarning barchasi maxsus java virtual mashinasi bilan jihozlangan.

Ta'limda kinolavhalar hamda turli illyustratsiyalarga asoslangan virtual reallik elementlari ilgari qo'llanilib kelingan. Kompyuter texnikasi harakat va tovush bilan bog'liq axborotlarni yagona majmuaga biriktira olganligi, bilim oluvchilarga kuzatilayotgan jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish (muloqot qilish) imkoniyatlarini yaratishi bilan virtual reallikka asoslangan ta'lim resurslarini yaratishda sifat burilishini yasadi.

Bugungi kunda «virtual borliq» tushunchasining kompyuterli modellashtirishga nisbatan qo'llanilishi eng ommalashgan ko'rinishga ega. Bu sharoitda inson virtual amaliyotni yuzaga chiqarishda sun'iy uch o'lchamli yoki sensor muhiti bilan o'zaro ta'sirlashadi. Uchun u muloqot uskunalari sifatida virtual shlem, maxsus qo'lqop yoki yaxlit kiyiladigan kostyumdan foydalanadi. Mazkur jihozlar yordamida inson mashina tomonidan generatsiyalanuvchi muhitga tushib, unda turli yo'nalishlarda harakatlanish, obyektlarni boshqarish kabi muayyan harakatlarni bajaradi hamda virtual voqealar ta'sirida har xil hissiyotlarni boshidan o'tkazadi. Virtual borliq inson faoliyatining tibbiyot, biotexnologiya, loyihalash ishlari, marketing, san'atshunoslik, ergonomika, ko'ngilochar industriya singari ko'plab sohalariga bevosita aloqadordir. Virtual borliq yaratish texnologiyasidan real va virtual jarayonlarni modellashtirishga katta ehtiyoj mavjud bo'lgan kompyuter o'yinlari, kosmik trenajyorlar, ko'rgazma-savdo namoyishlarida samarali foydalanilmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan misollar «virtual ta'lim» tushunchasiga oydinlik kiritish

hamda uning virtuallik sifatlarini belgilash imkonini beradi. Virtual jarayonlarning bosh sababchisi — real mavjud obyektlarning o'zaro hamjihatlikdagi harakati hisoblanadi. O'qituvchi bilan o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyati virtual holatni yuzaga keltiradi. Real subyekt (o'qituvchi-o'quvchi)larning virtual holatdagi ichki o'zgarishlari ta'lim jarayoni va sifati bilan tasiflanadi. Virtual jarayonlarning asosiy belgilariga: o'zaro hamjihatlikdagi subyektlar uchun virtual jarayonlar mavhumlik darajasining kuchliligi; har bir ishtirokchi uchun hamjihatlikning o'ziga xosligi; faqat hamjihatlik jarayonidagina mavjudlikning amal qilinishi kabilarni kiritish mumkin. Virtual jarayon muhim virtual obyektlarning o'ziga xos hamjihatligi ta'sirida muayyan virtual makondagina ro'y beradi. Keng ma'nodagi virtual ta'lim deganda, uning asosiy subyektlari o'qituvchi o'quvchi orasidagi bevosita ta'lim olish va berish paytidagi o'zaro hamjihatligiga qurilgan jarayon va uning natijalari tushuniladi. Virtual ta'lim makonini ta'limning asosiy obyektlari bilan uning subyektlari sanaladigan o'quvchi-o'qituvchining aloqalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ta'limdagi virtuallik muhiti sinf xonalari, ulardagi jihozlar, o'quv qo'llanmalari yoki o'qitishning texnik vositalari bilan emas, balki aynan ta'lim jarayonida ishtirok etadigan obyekt va subyektlarning hamjihatligi orqaligina vujudga keltiriladi.

Ta'kidlash joizki, dasturlarda ba'zi o'rinlarda o'quv materiallarini o'quvchilarning real o'zlashtirish darajasi, ta'lim subyektlarining o'zaro munosabatlari yetarli darajada inobatga olinmasdan, taqdim etilish hollari kuzatiladi. Shunday qilib, virtual ta'lim nafaqat masofaviy telekommunikatsiyagagina xos, balki ta'limning barcha, jumladan, kunduzgi shakllarida o'qituvchi, o'quvchi, o'rganilayotgan obyektlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'lish xususiyatiga ega. Masofaviy texnologiyalar virtual ta'lim asosida kunduzgi ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Virtual ta'limning asosiy maqsadi, insonning real borliqda tutgan o'rnining tub mohiyatini anglab yetishdagi, uning virtual va boshqa imkoniyatlari uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir.

O'z navbatida, modellashtiruvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish muammosi funksional nazariyalarni qo'llash va yanada takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

1) Virtual reallikni loyihalash falsafasi. Modellashtirish asosida beriladigan axborotlarni qabul qilish va uning reallik bilan mosligiga bilim oluvchini ishonтира olish muammolari

2) Matematik modellashtirish. Ta'limiy maqsadlarda modellashtirishda matematik modellar xususiyatlarini tadqiq qilish muammolari.

3) Axborotlarni aks ettirish nazariyasi. Real sharoitlarda ishlayotganlik taassurotini hosil qiluvchi grafik mashinalarni boshqarish vositalaridan foydalanib, real tasvirlarni qurishga qaratilgan vizuallashtirish metodlarini qo'llash va takomillashtirish muammolari.

4) Kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi. Axborotlarning asosiy qismini televizor va kompyuter monitori orqali olishga ko'nikib qolgan zamonaviy yoshlar fikrlashidagi o'ziga xoslikni e'tiborga olish muammolari.

5) Virtual reallik ekologiyasi. Virtual reallik bilan o'zaro ta'sirlashuvning individual traektoriyasini tanlash muammolari.

6) Didaktikaning asosiy tamoyillari. Modellashtiruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqishda ta'lim amaliyoti tajribalari asosida shakllangan, o'zida o'quv jarayoni qonuniyatlarini aks ettiruvchi didaktik tamoyillar asos sifatida qabul qilinishi lozim.

Real va modellashtiriluvchi shakllarda beriladigan bilimlarning o'zaro maqbul nisbatini belgilashning didaktik va metodik muammolari ham alohida tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Kompyuter bilan muloqot chog'ida yuzaga keladigan hissiyotlar (masalan, virtual shlemlar yordamida) insonning mavjud real borliq bilan muloqoti jarayonidagi tuyg'ulariga juda yaqin bo'lib, ba'zan ushbu hissiyotlar taqqoslanganda birinchisining usutunligi yaqqol sezilish hollari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter o'yinlari texnologiyasidagi ongga chuqur kirib borishdagi maxsus ta'sir effektlaridan ta'lim jarayonida ham samarali foydalanish mumkin. Ushbu ma'noda, inson ongi turli vazifa, obraz hamda tasavvurlarni dastlab hayoliy amallar asosida talqin qilishi e'tiborga olinsa, uning o'zi qaysidir ma'noda virtuallik tabiatiga ega ekanligi anglanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бекназарова S., & Ганиева S. (2022). Stem sohasidagi ayollarning ta'limdagi ishtiroki: xorij tajribasi va mamlakatimizdagi holat. *Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана*, 1(01), 178–178. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13367>

2. Бекназарова С.С., Ганиева Ш.Н. ТЕХНОЛОГИИ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ // *ReFocus*. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tehnologii-virtualnoy-realnosti-v-obrazovanii-1> (дата обращения: 10.05.2023).

**TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
QO'LLASHNING MUAMMO VA YICHIMLARI****Dilfuza Muydinova**

O'zMU ijtimoiy fanlar fakulteti, ijtimoiy gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi axborot va texnologiyalar rivojlangan davrda ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qo'llashning hozirgi kundagi muammo va yechimlari hamda mamlakatimizdagi ta'limga qaratilgan yuksak e'tibor davrida yoshlar ong va shuurida axborot iste'moli madaniyatini yanada oshirish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya raqamli texnologiya, muammo, yechim, innovatsiya, muloqot, madaniyat.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning borishi bevosita ta'lim tizimiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ta'limning barcha bo'g'inlarida yanada yuqori samaradorlikka erishish maqsadida sohada keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish, xalqaro tajribalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir sohaning taraqqiyoti aynan, shu soha vakillari yoki mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi hamda shu yo'nalishdagi rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda ko'plab sohalardagi rivojlanish jadal suratlarda taraqqiy etmoqda. Hususan ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jamiyat, davlat ravnaqi uchun qo'yilayotgan eng muxim qadamlardan biri sanaladi. Bu esa ta'limni qaytadan isloh qilish va uning ichidagi muammolarni o'rganish, keng ko'lamda tadqiq etishni taqazo etmoqda. Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, xalqimizning rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli munosabatlar o'rnatishi jahon standartlariga mos ilmni egallagan, aqlan va jismonan yetuk shaxslarni tarbiyalash zaruratini vujudga keltirmoqda. Bugungi kun taraqqiyoti fan va texnika yutuqlari yosh avlodni jahon talablari darajasidagi intellekt egasi bo'lishi va yuqori saviyada mustaqil fikrlovchi hamda ijodkor yoshlarni kamol toptirishni taqazo etmoqda. Bu borada hozirgi kunda dunyodagi ta'lim rivojlangan davlatlar bilan ko'plab hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlashicha, ta'lim sohasida qilish kerak bo'lgan ishlar ko'p: "Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi", - deydi Shavkat

Miromonovich Mirziyoyev. Bundan tashqari davlatimiz rahbari yaqindagina O'zbekistonga tashrif buyurgan Singapur Prezidenti Halima Yoqub bilan ham ko'plab sohalarda va aynan ta'lim sohasida hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Singapur dunyoda eng taraqqiy etgan davlatlar qatorida e'tirof etilmoqda. Ushbu davlatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar o'zining quvonarli natijalarini bera boshlagan. Ayniqsa ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar va erishilayotgan yutuqlar dunyo miqyosida e'tirof etilmoqda. Singapurda innovatsiya va texnologiyalar sohasidagi muayyan yutuqlar havas qilsa arzigulikdir.

Ma'lumki, jamiyatda ta'limning izchilligini ta'minlash, sohaga innovatsion texnologiyalar hamda milliy va xalqaro pedagogic tajribalarni qo'llash orqali yoshlarimizda teran fasafiy tafakkur, ilmiy mushohadalarga chorlovchi g'oyalar asosida mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllanishiga xizmat qiladigan shart-sharoitlarni yaratib berilganligi bilan bog'liqdir. Buning uchun, ta'lim tizimida o'zaro aloqadorlik, integratsiyani ta'minlash va tizimining barcha sohalarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadigan jarayonlarga yanada kengroq e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan izchil islohotlar olib borilayotgan ekan, bunday islohotlar zamirida rivojlanayotgan ta'limning oldiga ham muhim vazifalarni yuklash albatta taabiiy. Bu borada pedagog olim M.M.Xolmuxammedov o'zining "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish" mavzusidagi maqolasida: "Tizim o'z oldiga hududlar va sohalar kesimida iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo'sha oladigan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash, yoshlarni malakali mehnat orqali o'z hayot farovonligini ta'minlashga o'rgatish, o'z mehnat faoliyatiga innovatsion va keriativ yondashish, yaratuvchanlik, intellektual, ma'naviy potensialni rivojlantirish kabi vazifalarni qo'yadi", -deb yozadi[1].

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan: "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

➤ dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

➤ ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalarini vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o`qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ilmiy-tadqiqot va ta`lim xizmatlarini ko`rsatish bo`yicha xususiy sektorning salmog`ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta`lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta`lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llagan xolda ta`limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta`limni yanada rivojlantirish, ta`lim oluvchilar o`rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko`lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag`batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- ta`lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta`lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo`yicha tizimli ishlarni amalga oshirish”,[2] kabi O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini yanada rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari belgilab berildi.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyoti davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo`llash orqali ta`limni boshqarishni avtomatlashtirish, elektron resurslar va masofaviy ta`limni yanada rivojlantirish, ta`lim oluvchilar o`rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirishga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e`tibor qaratilayotganligi, ta`lim tizimida ham raqamli texnologiyalarning o`rni va ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini ko`rsatib bermoqda.

Bugungi globallashtirish jarayoni kechayotgan davrda, kundalik hayotimizni axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlar va Internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Shuning uchun ham bugungi kunda raqamli texnologiyalar asta sekin kundalik hayotimizning barcha sohaslariga kirib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan, ana shu muhim jihatni hisobga olgan xolda mamlakatimizda 10 dan ortiq texnika va raqamli texnologiyalar yo`nalishidagi mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o`quv yurtlari faoliyatini yo`lga qo`yilganligi ham raqamli texnologiyalarning nafaqat iqtisodiyot, siyosat kabi sohalarda balki, ta`lim tizimida ham katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

2020-yil Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur vas hart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo`lidan borish imkoniyatini beradi”,[3]-deya ta`kidlaganlari mamlakatimizda faqat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tub burulish yasash, balki raqamli texnologiyalarni ijtimoiy hayotning barcha sohaslariga, jumladan, ta`lim tizimiga ham joriy etishni nazarda tutgan bo`lsalar ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M.Xolmuxammedov. "Professional ta'lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish". Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси, Халқ сўзи 2020 йил 25 январь.

MATEMATIK MODELLARNING TIBBIYOT SOHASIDAGI BA'ZI QO'LLANILISHI**Eshtemirov Eshtemir Salim O'g'li****Abdurashidov Nuriddin G'iyosiddin O'g'li**

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti

eshtemireshtemirov577@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda o'rta maktab va kasb-hunar ta'limi (texnikum) o'quvchilarini matematika faniga qiziqtirish uchun amaliy xarakterga ega bo'lgan tibbiyotdagi ba'zi sodda matematik modellar qaralgan bo'lib, ularga oid masalalar yechimlari bayon etilgan. Har bir davlat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun ishlab chiqarishlarga yangi texnologiyalarni jalb etishlikni toqazo etadi. Davlatning iqtisodiy barqarorligi va barkamolligi uchun o'rta bo'g'in ishlab chiqarishni–kichik va o'rta biznesni rivojlantirilishi muhim qadam hisoblanadi. Hozirga paytda o'rta ta'lim bo'g'ini texnikumlar o'quvchi talabalarga kelajakda mohir kasb yoki hunar egasi bo'lib-etuk mutaxassis bo'lishligiga u yerda o'qitilayotgan tabiiy fanlar, jumladan matematika fanining roli va ahamiyati beqiyosdir. Texnikumlarlarda matematikaning nazariy bilimlarini amaliy bilimlari bilan tatqiq etish mulohaza mushohada yuritish o'ta muhimdir. Darhaqiqat zamonaviy ilmiy–texnik taraqqiyot yuksak ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish matematika nuqtai nazaridan baholanmas ekan, u haqiqatga aylanmaydi. Texnikumlar kurslarida matematikaning amaliyot bilan chambarchas bog'liqligini uning sifati ta'limini talabalarga kundalik mashg'ulotlarida tabiiy texnikaviy masalalarini yechish, tahlil etish bilan talabaning kelajakda kasbiy mahoratini yuksaltirishni ta'minlaydi. Fanlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning chuqurlashtirilishi matematika uchun keng ma'noda yanga-yangi ilmiy izlanish manbalarining hosil bo'lishligiga olib keladi va yaratilgan muammolar avvalo nazariy jihatdan baholanib, so'ngra amaliy jihatdan tasdiqlanishi taqazo etiladi.

Kalit so'zlar: matematika, amaliy masala, kasbga yo'naltirilgan masalalar, masalalarni yechish usullari.

Аннотация: В данной работе рассматриваются некоторые простые математические модели в медицине практического характера с целью заинтересовать учащихся старших классов и профессионального образования (техникума) математикой, а также описываются решения связанных с ними задач. Каждая страна требует привлечения новых технологий в производство для своего экономического и социального развития. Для экономической стабильности и процветания государства важным шагом является развитие производства среднего звена - малого и среднего бизнеса. В настоящее время несравнима роль и значение преподаваемых здесь естественных наук, в том числе математики, для того, чтобы учащиеся средних общеобразовательных учебных заведений стали в будущем квалифицированными

специалистами. Очень важно сверить теоретические знания по математике с практическими знаниями в техникумах. На самом деле современные научно-технические разработки не станут реальностью, если создание высоких производственных технологий не будет оцениваться с точки зрения математики. Тесная связь математики с практикой в курсах технических институтов обеспечивает совершенствование профессиональных навыков студента в дальнейшем за счет решения и анализа естественно-технических задач на его повседневных занятиях. Углубление взаимоотношений между науками приводит к формированию новых источников научных исследований для математики в широком смысле, и необходимо сначала теоретически оценить создаваемые проблемы, а затем подтвердить их практически.

Ключевые слова: математика, практическая задача, профориентационные задачи, методы решения задач.

Abstract: In this work, some simple mathematical models in medicine of a practical nature are considered in order to interest high school and vocational education (technicum) students in mathematics, and the solutions of related problems are described. Every country requires the involvement of new technologies in production for its economic and social development. For the economic stability and prosperity of the state, the development of middle-level production - small and medium-sized business is an important step. Currently, the role and importance of natural sciences, including mathematics, taught there for the students of secondary education in technical schools to become skilled professionals in the future, is incomparable. It is very important to examine the theoretical knowledge of mathematics with practical knowledge in technical schools. In fact, modern scientific and technical development will not become a reality if the creation of high production technologies is not evaluated from the point of view of mathematics. The close connection of mathematics with practice in the courses of technical institutes ensures the improvement of the student's professional skills in the future by solving and analyzing natural technical problems in his daily classes. The deepening of mutual relations between sciences leads to the formation of new sources of scientific research for mathematics in a broad sense, and it is necessary to first evaluate the created problems theoretically and then to confirm them practically.

Keywords: mathematics, practical task, career guidance tasks, problem solving methods.

Tadqiqot metodlari. Insoniyat butun hayoti davomida tabiat uyg'unligi bilan jamiyatning ma'naviy va texnikaviy taraqqiyotiga ilmiy-amaliy yondashuvlarni amalga oshirib kelgan va keladi. Har bir davlat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti uchun ishlab chiqarishlarga yangi texnologiyalarni jalb etishlikni toqazo etadi. Davlatning iqtisodiy barqarorligi va barkamolligi uchun kichik va o'rta bo'g'in ishlab chiqarishni - kichik va o'rta biznesni rivojlantirilishi muhim qadam hisoblanadi. Hozirga paytda o'rta ta'lim bo'g'ini texnikumlar o'quvchi talabalarga kelajakda mohir kasb yoki hunar egasi bo'lib-etuk mataxassis bo'lishligiga u yerda o'qitilayotgan tabiiy fanlar, jumladan

matematika fanining roli va ahamiyati beqiyosdir. Tibbiyot texnikumlarlarida matematikaning nazariy bilimlarini amaliy bilimlari bilan tatqiq etish mulohaza mushohada yuritish o'ta muhimdir. Darhaqiqat zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot yuksak ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish matematika nuqtai nazaridan baholanmas ekan, u haqiqatga aylanmaydi. Matematikaning amaliy qo'llanilishi, uning ko'rsatmalarini EHMLar orqali amalga oshirish hech kimda shubha uyg'otmaydi. Texnikumlar kurslarida matematikaning amaliyot bilan chambarchas bog'liqligini uning sifati ta'limini talabalarga kundalik mashg'ulotlarida tabiiy texnikaviy masalalarini yechish, tahlil etish bilan talabani kelajakda kasbiy mahoratini yuksaltirishni ta'minlaydi. Fanlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning chuqurlashtirilishi matematika uchun keng ma'noda yanga-yangi ilmiy izlanish manbalarining hosil bo'lishligiga olib keladi va yaratilgan muammolar avvalo nazariy jihatdan baholanib, so'ngra amaliy jihatdan tasdiqlanishi taqazo etiladi.

Hozirgi vaqtda "Amaliy masala"ga yondashuvning aniq va birgalikdagi umumiy urinishlar mavjud emas. Zamonaviy amaliy matematikada masalalarning matematik modelini yaratish, uni algoritmini yaratish, dasturlashni talab etadi. Tajribadan ma'lumki, o'rta maktab va texnikum o'quvchilari matematika amaliy mashg'ulotlarda o'z faolligini ko'rsatadi va juda katta qiziqishlar bilan misol-masalalarni yechishadi. O'quvchilar o'z qiziqishlari bilan matematik nazariyalarni amaliyot orqali bog'lashga intiladilar. Amaliy masalalar uchun quyidagi talablarni qo'yish kerak:

- amaliy masalalarda matematik va nomatematik muammolar aniq ko'rsatilishi va o'zaro bog'liqliklari ta'minlanishi;
- maqsadga erishish uchun masalalar kurs dasturidan chiqmasligi kerakli komponentlarni oydinlashtirish;
- kiritilayotgan masalalar sodda, tushunarli va real talablar orqali ko'rsatilishi;
- masalalarini yechish usullarini amaliy usul va qoida asosida olib borilishi;
- masalalarning amaliy qismi sof matematik ko'rsatmalar bo'lib qolmasligi;

Tajribadan ma'lumki, amaliy mashg'ulotlar boy matematik-tabiat bog'likligi bilan olib borilishi chuqur taminlanishiga olib keladi. Masalan, kurs talablari uchun "Hosila va uning tatbiqlari" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarda matematika va qurilish fanlari bog'liqligiga erishish mumkin yoki "Yassi figuralar yuzalarini hisoblash" mashg'ulotida matematika va qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaliklarida matematikaning rolini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot natijalari.

Har bir amaliy mashg'ulotlarda matematik bilimlarni tabiat bilan bog'lash ishlab chiqarishning turli yo'nalishlaridagi muammolar bilan boyitish maqsadlidir. O'qitishning amaliy mashg'ulotlar bosqichning ma'noga ega bo'lgan holda talabani chuqur ma'naviy-ilmiy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyasining jalb etilishi o'qitishning amaliy yo'nalashini chuqurlashtiradi.

Inson organizmi bilan bog'liq bo'lgan normal va patologik jarayonlarni o'rganadigan, insonlar salomatligini mustahkamlash, turli kasalliklarning oldini olish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasidir.

Tibbiyot bilan bog'liq kasblar bilan shug'ullanuvchilar uchun matematikaning fan sifatidagi natijalari juda muhimdir, chunki matematik hisob–kitoblarsiz to'g'ri tashhis qo'yish, kuzatishlar o'tkazish, davolash ishlarini olib borish mumkin emas.

1-masala. Vrachning ko'rsatmasiga ko'ra, bemor kuniga 10 mg li tabletkadan 3 ta qabul qilishi kerak. Lekin undagi dorilar 20 mg li tabletkalardan iborat. Vrachning ko'rsatmasini buzmasdan bemor kuniga necha tabletka qabul qilishi kerak? Yechish. Kuniga 10 mg li tabletkadan 3 ta qabul qilinsa, kuniga $10 \cdot 3 = 30$ mg bo'ladi. Tabletkalar dozirovkasi 2 marta orttirilgan ($20 : 10 = 2$). $30 - 20 = 10$ mg yetmaydi. $10 : 20 = 0.5$ mg bo'lib, $0.5 + 1 \text{ tab.} = 1.5$ tabletka hosil bo'ladi.

Javob. 20 mg li tabletkadan 1,5 ta tabletka qabul qilish kerak.

2 – masala. Davolovchi vannani birinchi kuni 15 daqiqadan boshlab, keyingi kunlari har kuni 10 daqiqadan uzaytirib boriladi. Agar vanna qabul qilish ko'rsatilgan tartibda olib borilsa, vanna qabul qilish vaqti 1 soat 45 daqiqa bo'lishi uchun necha kun kerak bo'ladi?

Yechish. $x_1 = 15$, $d = 10$, $x_n = 105$ daqiqa

$$x_n = x_1 + d(n - 1).$$

$$x_n = 15 + d(n - 1) \quad x_n = 15 + 10n - 10.$$

$$10n = 100. \quad n = 10$$

Javob. 10 kun.

3–masala. Bolaning tug'ilgandagi bo'yi 53 sm edi. 5 oylik bo'lganda, 3 yosh bo'lganda uning bo'yi qanday bo'lishi kerak?

Yechish. Bolaning har oyda o'sishi quyidagicha bo'ladi: Birinchi chorakda (1–3 oylik) oyiga 3 sm dan; Ikkinchi chorakda (4–6 oylik) oyiga 2,5 sm dan; Uchinchi chorakda (7–9 oylik) oyiga 1,5 sm dan; To'rtinchi chorakda (10–12 oylik) oyiga 1,0 sm dan; Bir yoshdan keyin bo'yining o'sish kattaligini $75 + 6n$ formula bilan hisoblash mumkin (bu yerda 75 – bolaning bir yildagi o'rtacha bo'yi, 6 – o'rtacha yillik o'sishi, n – bolaning yoshi).

Javob. 5 oylik bo'lganda $X = 53 + 3 \cdot 3 + 2 \cdot 2,5 = 67$ sm.

3 yoshga to'lganda $X = 75 + 6 \cdot 3 = 93$ sm.

4-masala. Kasalxonaga oshqozon buzilishi tashxisi bilan 16 yoshli qizni olib kelishdi. Agar inson tanasining 1 kg i uchun 0,25 mg aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi talab qilinishi va bemor qizning vazni 50 kg ekani ma'lum bo'lsa, unga qancha aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi berish kerakligini hisoblang.

Yechish. Bemorni davolash uchun $50 \cdot 0,25 = 12,5$ mg tabletkasi kerak bo'ladi. Aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi 0,5 mg bo'lgani uchun hammasi bo'lib 12,5 :

$0,5 = 25$ tabletkasi kerak bo'ladi.

Javob. 25 ta tabletkasi.

5-masala. Avariya uchragan bolaga og'riq qoldiruvchi tomchi dori quyish kerak. Kasalxonada kattalarga mo'ljallangan 20% li analgin eritmasi bor. Idishda 200 gr 20% li analgin eritmasi bo'lsa, undan analginning 12% li eritmasini hosil qilish uchun qancha toza suv (fizrastvor) qo'shish kerak?

Yechish. Eritmaning umumiy massasi eritmadagi analgin massasi

1 - eritma $200 \cdot 0,2 = 40$

2- eritma $200 + x (200 + x) \cdot 0,12$

Analgin massasi ikkala eritmada ham o'zgarmaganligi uchun:

$(200 + x) \cdot 0,12 = 40$, bu yerdan $x = 133$.

Javob. 133 gr fizrastvor qo'shish kerak.

6-masala. Bemor 2 ta A tipdagi tabletkani va 2 ta B tipdagi tabletkani ikki kun mobaynida qabul qilishi kerak edi. Har ikki tipdagi tabletkadan bittadan birgalikda ichishi zarur. Bemor bexosdan barcha tabletkalarni aralashtirib yubordi. Endi u nima qilsin?

Yechish. Buning uchun har bir tabletkani teng ikkiga bo'lib, sindirilgan yarimta tabletkalarning birini chap tomonga, ikkinchisini o'ng tomonga qo'yish kerak. Bugun chap tomonda turgan barcha yarimta tabletkalarni, ertaga qolganlarini qabul qilish mumkin.

7-masala. Kasalxonaga oshqozon buzilishi tashxisi bilan 16 yoshli qizni olib kelishdi. Agar inson tanasining 1 kg i uchun 0,25 mg aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi talab qilinishi va bemor qizning vazni 50 kg bo'lsa, unga qancha aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi berish kerakligini hisoblang.

Yechish. Bemorni davolash uchun $50 \cdot 0,25 = 12,5$ mg tabletka kerak bo'ladi. Aktivlashtirilgan ko'mir tabletkasi 0,5 mg bo'lgani uchun hammasi bo'lib $12,5 : 0,5 = 25$ tabletka kerak bo'ladi.

Javob. 25 ta tabletka

8-masala. Avariya uchragan bolaga og'riq qoldiruvchi tomchi dori quyish kerak. Kasalxonada kattalarga mo'ljallangan 20% li analgin eritmasi bor. Idishda 200 gr 20% li analgin eritmasi bo'lsa, undan analginning 12% li eritmasini hosil qilish uchun qancha toza suv (fizrastvor) qo'shish kerak?

Analginning massasi ikkala eritmada ham o'zgarmaganligi uchun $(200+X) \cdot 0,12 = 40$,
 $24 + 0,12X = 40$, $0,12X = 16$,

$X = 133$ javob. 133 gr fizrastvor qo'shish kerak.

Eritmaning umumiy massasi Analgin massasi

1 - eritma $200 \cdot 0,2 = 40$

2 - eritma $200+x$ $(200 + x) \cdot 0,12$

XULOSA

O'rta maktab va texnikumlarda matematikadan o'rganiladigan o'quv materialining har bir mavzusini shu mavzuga tegishli amaliy mazmundagi masalalarning tiplari va turlari bilan bog'lash imkoniyati mavjud va uni amalga oshirish shart va zarur. Matematika o'qitishni kasbga yo'naltirishning eng samarali shakllari, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- matematika darslarida amaliy-tatbiqiy mazmundagi kasbga yo'naltirilgan masalalar va topshiriqlardan muntazam foydalanish;
- matematik tushunchalar va qonuniyatlarning kelib chiqishi va mohiyatini amaliy misollarda tushuntirish;
- o'rganilayotgan matematik tushunchalarni mustahkamlash uchun o'quvchilarga ma'lum bo'lgan amaliy mazmundagi masalalar va materiallardan foydalanish;
- matematika darslarida va kasbiy fanlarni aloqadorlikda o'qitish bu fanlarning bog'liqligini ko'rsatuvchi slaydlar (jadval, sxema, grafik, turli modellar, maketlar, asboblar, ma'lumotnomalar va ularning elektron namunalari)dan foydalanish;
- joylarda o'quvchilarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amaliy ishlarni o'tkazish;
- matematikaning ishlab chiqarishda qo'llanilishi haqida ma'ruzalar va suhbatlar tashkil etish;
- matematikadan to'garaklarda amaliy mazmundagi masalalarni yechishni yo'lga qo'yish.

Matnli amaliy-tatbiqiy mazmundagi masalalarni tanlash va tuzishda masalalardagi son qiymatlari joylarda olib borilgan o'lchash va kuzatishlarga asoslanishi lozim. Ya'ni, bunday qiymatlar real vaziyat bilan bog'liq bo'lishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodiev B., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. Toshkent, 2007.
2. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011.
3. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001.
4. Ziyomammedov B., Tojiev M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli.-T.: "Lider Press", 2009.-104 bet.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYLARDAN
FOYDALANIB SAMARALI MASHG'ULOT O'TISHNING AVFZALIKLARI****Yo'ldashev Axrorjon**

Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari muhokama qilinadi. Planshetlar, o'yinga asoslangan o'rganish va virtual haqiqat kabi vositalardan foydalangan holda, bolalar erta kompyuter savodxonligini rivojlantirishlari va fikrlash, xotira va muammolarni hal qilish kabi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Texnologiya, shuningdek, shaxsiylashtirilgan va moslashtirilgan o'rganish imkonini beradi, bu tarbiyachilarga individual ehtiyojlarni yanada samarali kuzatish va o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqolada an'anaviy usullar bilan solishtirganda texnologiyaga asoslangan ta'limning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, masofaviy kirish va tarbiyachilar o'rtasida hamkorlik qilish imkoniyatlari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, texnologiya, planshet, kompyuter, zamonaviy, onlayn, audio, video, interfaol.

Annotation: The article discusses the advantages of using modern technologies in preschool education. Using tools such as tablets, game-based learning and virtual reality, children can develop early computer literacy and develop cognitive skills such as thinking, memory and problem solving. Technology also enables personalized and tailored learning, allowing teachers to more effectively track and meet individual needs. In addition, the article highlights the cost-effectiveness of technology-based learning compared to traditional methods, as well as the potential for remote access and teacher collaboration.

Keywords: Education, technology, tablet, computer, modern, online, audio, video, interactive.

Ta'limdagi zamonaviy texnologiyalarning muhim afzalliklaridan biri shundaki, u tarbiyachilarga yanada shaxsiylashtirilgan va samarali o'rganish tajribasini yaratishga imkon beradi. Audio va video darslar, interaktiv dasturiy ta'minot va o'yinlardan foydalanish orqali bolalar ma'lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradigan yanada qiziqarli o'rganish tajribasi bilan ta'minlanadi. O'qitishda texnologiyaning yana bir afzalligi shundaki, u tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Ta'lim texnologiyalari orqali tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi aloqa va hamkorlik yanada dinamik ekotizimni yaratishi va ota-onalarga farzandlarining rivojlanishi haqida ma'lumot berishi mumkin.

Interfaol doskalar, ta'lim dasturlari va ilovalar kabi texnologiya vositalaridan foydalangan holda tarbiyachilar o'rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilishlari mumkin. Texnologiya, shuningdek, bolalarda ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar texnologiya bilan aloqa qilganda, ular o'z maqsadlariga erishishning turli usullarini o'rganishda ko'proq ijodiy bo'lishga da'vat etiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar real vaqt rejimida bolalarning o'qish jarayonini baholash imkonini beradi. Onlayn baholash va kuzatish vositalari yordamida tarbiyachilarga o'quvchilarning taraqqiyotini kuzatish va shunga mos ravishda ularning o'qishini shakllantirish osonroq bo'ladi. Tarbiyachilar turli mintaqalardagi boshqa tarbiyachilar bilan hamkorlik qilishlari va ta'lim sifatini oshirish uchun qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish olishlari ma'nosida texnologiyadan foydalanishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv dasturlariga zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash maktabgacha ta'lim sifatini oshiradi. Texnologiyadan foydalanish tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish bilan birga yanada qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratishi mumkin. Texnologik vositalar yordamida tarbiyachilar bolalar uchun o'rganish tajribasini shaxsiylashtirishlari, ularga muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishlari va akademik natijalarni yaxshilashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Yo'ldashev, A. (2022). TA'LIMDA SUNIY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(11), 726-729.
3. Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). THE ROLE OF STUDENT VOICES IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS)*, 1(6), 29-32.
4. Yo'ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA'LIM OLIH MUHITIDA QO'LLANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 198-204.
5. Yo'ldashev, A., & Nazarova, G. (2022). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar. *Science and Education*, 3(6), 618-623.
6. Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). THE ROLE OF STUDENT VOICES IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS)*, 1(6), 29-32.
7. Dildora, R., & Muxlisa, P. (2022). MAKTABDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISH.
8. Lolaxon, K., & Zubaydaxon, J. (2022). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YOZUVGA O'RGATISH USULLARI.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА "ЧИСЛОВОЕ И ПРОГРАММНОЕ УПРАВЛЕНИЕ".

О.Э. Кушматов

ТГТУ им. Ислама Каримова, Кокандский филиал

Современное производство невозможно представить без станков с числовым программным управлением (ЧПУ). Это делает актуальным преподавание данной дисциплины в вузах, подготавливающих специалистов инженерного профиля. Можно сформулировать две парадигмы преподавания.

Первая - это научить использовать данное оборудование с ЧПУ, вторая парадигма - научить самим разрабатывать подобное оборудование. К сожалению, Р.Узбекистан в силу ряда причин не входит в число производителей оборудования с ЧПУ.(1) Поэтому мы не можем в нашем филиале продемонстрировать устройство и работу данного оборудования. При этом исходя из прикладного характера курса это является необходимым условием для подготовки специалистов. Поэтому возникла необходимость создания мультимедиа материалов для демонстрации устройства и работы оборудования с ЧПУ. Следует отметить, что согласно материалам курса для устранения брака и поломки оборудования с ЧПУ необходимо проводить компьютерную симуляцию работы станков. А это соответственно также мультимедиа файлы. Была создана библиотека мультимедиа файлов, которая помогает в изучении и понимании данного курса. В нее входят файлы, демонстрирующие работу станка с ЧПУ в динамике, файлы, показывающие его устройство, а также программы, демонстрирующие работу станков для проверки управляющих программ. (УП) Использование данных материалов облегчило понимание дисциплины «Числовое и программное управление», а также может использоваться для обучения наряду с традиционными учебными материалами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Пайвин А.С., Чикова О.А. Основы программирования станков с ЧПУ
9. Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2015. – 102с.
2. Ловыгин А. А., Теверовский Л. В. Современный станок с ЧПУ и САД/САМ-система. – М.: ДМК Пресс, 2012. – 279 с.
3. Жолобов, Ж.А. Мрочек, А.В. Аверченков, М.В. Терехов, В.А. Шкаберин. – Станки с ЧПУ: устройство, программирование, инструментальное обеспечение и оснастка [Электронный ресурс]: учеб. пособие / А.А. М. : ФЛИНТА, 2014.– 355 с

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**Siddiqov Ilhomjon Meliqo`ziyevich**

Qo`qon davlat pedagogika instituti Informatika kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy qilishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy qilinishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, masofaviy o'qitish, pedagogik texnologiyalar, multimedia vositalar.

Annotation: the article identifies priorities for the development of the educational process based on the application of digital technologies in the higher education system of our Republic, analysis of their capabilities. Proposals are also made for the implementation of digital technologies in higher education by studying, systematizing and generalizing the existing practice in drawing up scientifically based conclusions, which will not only occupy an important place in the field of education and in what form it will be introduced.

Keywords: educational process, digital technologies, information and communication technologies, higher education system, modern education, distance learning, pedagogical technologies, multimedia tools.

Rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning ustuvorlik kasb etishi o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini samarali rivojlantirishning yangi istiqbollarini ochmoqda.

Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha etakchilik qilib kelayotgan Finlandiyada amaliy fanlar onlayn universiteti (Finnish Online University of Applied Sciences (FOUAS) Campus Arena; 2015 yil) platformasi, Singapurda Aqlli millat sensor platformasi (Smart Nation Sensor Platform; SNSP; 2017 yil), Yaponiyada Cloud Campus (Bulutli kampus; 2017 yil), Web Class (Veb sinf; 2018 yil) ta'lim platformalari orqali sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga erishildi. Mavjud yutuqlar Singapur davlatiga Raqamli texnologiyalar bo'yicha raqobatbardoshlik bo'yicha Jahon reytingida 2017-2018 yillarda birinchi hamda ikkinchi o'rinni egallash imkoniyatini yaratdi.

Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ijtimoiy zaruriyat ekaniga urg‘u bergan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etib o‘tadi: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi”[1].

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: *Digital technology*) - signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko‘rsatishga asoslangan texnologiyalar¹⁶.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli texnologiya kodlashtirilgan (raqamli signallar yordamida uzatiladigan) axborotlarning diskret holda, ya‘ni, uzlukli – qisqa, ammo muayyan vaqt oralig‘ida olish imkonini beruvchi texnologiya sanaladi.

O‘qitish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish “ta‘limni raqamlashtirish” deb nomlanadi. Bunda barcha o‘quv hujjatlari – o‘quv rejalari, fan dasturlari, tegishli fanlarning ishchi-o‘quv dasturlari, guruh jurnallari, o‘quv materiallari onlayn shaklga o‘tkaziladi. Talabalar istalgan sharoitda – axborot-resurs markazida, uy sharoitida Internetga bog‘lanish orqali masofadan tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari, sinov va imtihonlarda ishtirok etishi mumkin.

2020-yil 17 martida Prezidentimizning “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4642-son¹⁷ qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta‘limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi[2]. Shu yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efigra uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta‘lim muassasalari talabalar va o‘quvchilar uchun virtual ta‘lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish” axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta‘lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta‘lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta‘lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil qilinishi boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma‘muriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta‘lim xizmatlarini taqdim etuvchi HEMIS axborot tizimi yo‘lga qo‘yildi. Axborot tizimi oliy ta‘lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi hamda oliy ta‘lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma‘lumotlar sonini

¹⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_tehnologiya_asoslari

¹⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-4767514>

keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Xo'sh, o'qitish sifatini saqlab qolgan holda ta'lmda raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?[3].

*Birinchi*dan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shartsharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

*Ikkinchi*dan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish

hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'limmuassasalarida qo'llash.

*Uchinchi*dan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

*To'rtinchi*dan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

*Beshinchi*dan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video- konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

*Oltinchi*dan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba yoshlargabugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Biz ta'lim sifatini oshirish varivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik[5]. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni

yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar — bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashni umumlashtirib shuni takidlab o'tish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Bugungi avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas. Qora doskani oqiga va bo'rnini markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rol ni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, sababi talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas, balkiyang innovatsiyalarni darsda qo'llay bilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4642-son qarori.

3. D. Babaraximova. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6 - tom 3 - son / 2022 - yil / 15 - mart.
<https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>

INGLIZ TILI DARSLARIDA ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ORQALI QIZIQARLI DARS MUHITINI TASHKIL QILISH

Dilyorjon Solidjonov

Qo'qon universiteti, Xorijiy til va adabiyoti:ingliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Viktorinalarni o'tkazish uchun onlayn platformalardan foydalanish qiziqarli sinf muhitini yaratishda samarali strategiya bo'lishi mumkin. Ushbu inshoda biz onlayn viktorina platformalari ingliz tili darslarini qanday yaxshilashi va ularning umumiy o'rganish tajribasiga ta'sirini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: ingliz tili darslari, onlayn platformalar, viktorinalar, Quizizz, Kahoot, ta'lim.

Hech kimga sir emaski, qiziqarli sinf muhiti ta'lim natijalarini yaxshilaydi. Talabalar o'zlarini jalb qilish, qiyinchilik va g'ayratli his qilishlari mumkin bo'lgan sinf xonasi nafaqat bo'lish yoqimli, balki optimal o'rganish tajribasiga erishadi. Ayniqsa, ingliz tili darslari talabalarni mashg'ulotlarga jalb qilishda biroz qiyin bo'lishi mumkin. Ingliz tili darslarida onlayn viktorina platformalaridan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Birinchidan, bunday platformalar o'quvchilarning o'quv maqsadlarini yaxshilashda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Talabalar darhol fikr-mulohazalarini olganlarida, ular xatolaridan saboq olishadi va mumkin. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasini oshiradi va o'qishni davom ettirishga undaydi. Ikkinchidan, onlayn viktorina platformalari juda moslashtirilgan bo'lib, bu ularni talabalarni qiziqtirish uchun ideal qiladi. O'qituvchilar o'z viktorinalarini talabalarning xohishlariga ko'ra sozlashlari mumkin, savollarni qiziqishlari yoki malaka darajasiga qarab o'zgartirishlari mumkin. Shunday qilib, o'qituvchilar o'z o'quvchilari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatadilar va o'rganish uchun qulay muhit yaratadilar. Uchinchidan, onlayn viktorina platformalari gamifikatsiya qilish imkoniyatlarini taklif etadi. Gamifikatsiya - bu o'rganishni qiziqarli va interaktiv qilish jarayoni. Ingliz tili darslarida o'yinni o'rnatish orqali o'qituvchilar yanada qiziqarli o'rganish tajribasini yaratishlari mumkin. Masalan, talabalar savollarga to'g'ri javob berganliklari uchun ball yoki nishon olishlari mumkin. Talabalar, shuningdek, bir-birlari bilan raqobatlasha oladilar, bu ularni qatnashishga va sinfga qiziqishni davom ettirishga undashi mumkin.

Sinf muhitiga ta'siri. Keling, ingliz tili darslarida onlayn viktorina platformalarining ta'sirini muhokama qilaylik. Onlayn viktorinalardan foydalanadigan sinf yanada inklyuziv va interaktiv o'quv muhitini ta'minlaydi. Talabalar o'z javoblarini berganlarida, o'qituvchi ularning tushunish va faollik darajasini baholashi mumkin. Bu o'qituvchiga har bir talabaning ehtiyojlarini yanada samarali qondirish uchun dars rejalarini o'zgartirishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn viktorinalar sinfda hamjamiyat hissini uyg'otadi. Talabalar onlayn viktorinalarda qatnashganda,

ular aloqa hissini ta'minlaydigan umumiy tajribani yaratadilar. Bu aloqa ijobiy va qiziqarli sinf muhitini yaratishga yordam beradi.

Qiziqarli maktab muhitini yaratish o'quvchilarning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'quv jarayonini interaktiv, qiziqarli va o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirish uchun o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan turli usullar va texnologiyalar mavjud. Kahoot va Quizizz ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradigan va talabalarning kurs ishlaridan maksimal darajada foydalanishini ta'minlaydigan eng mashhur o'quv platformalaridan biridir. Kahoot va Quizizz platformalari o'qituvchilarga interaktiv viktorinalar, so'rovnomalar va o'yinlar yaratish imkonini beruvchi internetga asoslangan vositalar bo'lib, talabalar internetga ulangan har qanday qurilmalardan qatnashishi mumkin. Platformalar o'qituvchilarga tezkor viktorinalar yaratish va individual o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv tajribasini sozlash imkonini beruvchi qulay interfeysga ega. Asboblar o'qishni qiziqarli qilish va o'quvchilarning taraqqiyoti haqida real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun mo'ljallangan. Sinfda Kahoot va Quizizz platformalaridan foydalanishning eng samarali usullaridan biri bu o'quvchilar endigina o'rgangan materiallarni qamrab oluvchi onlayn viktorinalar yaratishdir. Viktorinalar butun sinfga taqdim etilishi mumkin, bu interfaol va raqobatbardosh o'rganish tajribasiga imkon beradi. O'quvchilarning ballarini ko'rsatadigan peshqadamlar jadvali ko'rsatilishi mumkin, bu esa hayajon va raqobatbardoshlikni oshiradi. O'qituvchilar ushbu uslubdan ingliz tilidagi asosiy tushunchalarni mustahkamlash, shuningdek, o'quvchilar kurashayotgan va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlash uchun foydalanishlari mumkin. Kahoot va Quizizz yordamida qiziqarli sinf muhitini yaratishning yana bir yo'li so'rovlardan foydalanishdir. O'qituvchilar talabalardan ma'ruzalar, uy vazifalari va boshqa kurs materiallari samaradorligi bo'yicha fikr-mulohazalarini olish uchun so'rovnomalar tuzishlari mumkin. Ushbu uslub o'qituvchilarga o'z dars rejalarining samaradorligi haqida tushunchaga ega bo'lish va o'qitish uslubini individual talabalar ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Viktorinalar va so'rovlardan tashqari, o'qituvchilar Kahoot va Quizizz-dan qiziqarli va interaktiv o'yinlar yaratish uchun ham foydalanishlari mumkin. O'yinlar o'quvchilarga yangi lug'at so'zlarini o'rganishga, ingliz tilidagi muhim tushunchalar va dialoglarni ko'rib chiqishga, og'zaki va yozma muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. O'yinlarni dars rejalariga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faolligi va natijalarini oshirish uchun qulayroq bo'lgan o'quv muhitini yaratishi mumkin. Kahoot va Quizizz platformalaridan foydalangan holda qiziqarli sinf muhitini yaratish ingliz tili darslari uchun o'yinni o'zgartirishi mumkin. Asboblar o'qituvchilarga o'rganishni qiziqarli, interaktiv va raqobatbardosh qilish bilan birga individual talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun o'quv tajribasini sozlash imkonini beradi. Platformalar o'qituvchilarga asosiy tushunchalarni mustahkamlash, talabalarga qo'shimcha yordam kerak bo'lgan sohalarni aniqlash va talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishni osonlashtiradi. Ushbu vositalarni o'qitish strategiyasiga

kiritish orqali o'qituvchilar o'zlarining dars rejaları samaradorligini sezilarli darajada oshirishlari va o'quvchilar o'rtasida yaxshi akademik ko'rsatkichlarni oshirishlari mumkin.

Onlayn Viktorina platformalaridan foydalanish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlardir. Ingliz tili darslarida onlayn viktorina platformalaridan foydalanish sinf muhitini yaxshilashning ajoyib usuli bo'lsa-da, bu platformalar uchun eng yaxshi amaliyotlarni tushunish juda muhimdir. O'qituvchilarga onlayn viktorinalardan samarali foydalanishga yordam beradigan ba'zi ko'rsatmalar:

1. Viktorinalardan me'yorida foydalaning. Onlayn viktorinalardan ortiqcha foydalanish ularning samaradorligini yo'qotishi mumkin, bu esa sinfga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi.
2. Dars maqsadlarini aks ettiruvchi viktorinalardan foydalaning. Viktorinalar o'quvchilar sinfda o'rganayotgan narsalarga mos kelishiga ishonch hosil qiling.
Tabiiyki, bu ko'rsatkichlarni hamma tuproqlar uchun ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Adabiyotlarda berilishicha, har xil qishloq xo'jalik ekinlari turli xil tuproqdagi mikroelementlarga xilma-xil munosabat bildiradi. Bu holatlar g'oz, bug'doy, suli, kartoshka, sholi va boshqa o'simliklarning marganetsga bo'lgan talabi ma'lumotlarga ko'ra nisbatan yuqori ekanligi, mis elementiga bo'lgan ehtiyoji esa marganetsga nisbatan 2-3 barobar kamligidan dalolat beradi.

Sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini to'g'ri va samarali joylashtirishda, monitoring tadqiqotlarini olib borishda bu kabi tadqiqotlar amaliy yordam beradi. Har bir tuproq, o'simlik navi, uning rivojlanish fazasi aniq bir element yoki elementlar guruhiga nisbatan individual xarakterga ega bo'ladi. Shunga qaramasdan nisbiy ko'rsatkichlar bo'lsada, ayrim xuloslarga olib keladi.

Sug'oriladigan tuproqlardagi makro- va mikroelementlar miqdori o'simliklar va ularning hosildorligi, sifatiga, bu ko'rsatkichlar orqali hayvonot dunyosiga, inson salomatligiga ta'sir qiladi. Demak, tadqiqot olib borilishi eng zaruriy tadbir bo'lib, tezkor usulda, hatto dala sharoitida tuproq va o'simlik tarkibidagi elementlar miqdorlarini aniqlaydigan usul va zaruriy asbob-anjomga ega bo'lish shu kunning dolzarb muammolari qatorida turadi.

Tahlil ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, sug'oriladigan tuproqlarda biomikroelementlarning miqdori va meyorlarini o'rganishda elementlarning yalpi miqdorlari yoki konsentratsiya klarklari bilan emas, balki ularning tuproqdagi harakatchan miqdorlarini konsentratsiyalari bilan ishlash nisbatan aniq natijalaraga olib keladi.

Xulosa. Sug'oriladigan bo'z tuproqlarda va tuproq hosil qiluvchi jinlarda kimyoviy elementlar tarkibidagi har qanday tebranishlar ularda o'sadigan qishloq xo'jalik o'simliklarining kimyoviy tarkibida o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. O'simliklar uchun muhim bo'lgan kobalt, mis, rux, marganets, bor mikroelementlari - paxta, bug'doy va boshqalar o'simliklarda boshqa elementlar bilan almashtirib bo'lmaydi va o'ziga xos biogeokimyoviy rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduxakimova, X. A., & Isagaliyev, M. T. (2020). Izmeneniye soderjaniya myshyaka i tyajelyx metallov v serozemax Yuga Fergany. Nauchnoye obozreniye. Biologicheskiye nauki,(4), 16-21.
2. Абдухакимова Х. А. Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупроқларининг геокимёси //Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона. – 2021. – Т. 42.
3. Isag'aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – С. 84-86.
4. Murodjon I., Gulyam Y., Khusnida A. Geochemistry of biomicroelements in irrigated serozems in the south of Fergana//European science review. 2018. T., №. 11-12. С. 25-27.
5. Yuldashev G', Sotiboldiyeva G., Abduxakimova X. Biogeochemical features of rare elements in irrigated, colmated soils. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), 2020. 105-110 b.
6. Исагалиев, М. Т., Юлдашев, Г., Абдухакимова, Х. А., & Обидов, М. В. (2020). Биомикроэлементы в сероземах юга Ферганы. In Аграрная наука-сельскому хозяйству (pp. 364-366).
7. Isag'aliyev, M., Abduxakimova, X., & Mirzajonov, I. (2018). Sug 'oriladigan o 'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari. Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU, 84-86.

ZAMONAVIY DEHQONCHILIKDA TOMCHILATIB SUG'ORISH**Yusupova Mohidil Abdumutalibovna**

B.f.f.d, dotsent FarDu

Abdullaaxatov Asadbek Ilhomjon o'g'li

FarDu, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dehqonchilikda va bog'dorchilikda tomchilatib sug'orishning ahamiyati, tomchilatib sug'orishning afzalliklari, tomchilatib sug'orishning qisqacha tarixi, tomchilatib sug'orishda tavsiya etilgan sug'orish meyorlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bog', tuproq, suv resurslari, suv tanqisligi, tomchilatib sug'orish, yer ustidan sug'orish, sug'orish meyori, mavsumiy sug'orish meyori, hosildorlik, suv tejamkor texnologiya, sug'orish.

Kirish. Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish asosida sug'oriladigan maydonlardan olinadigan hosil miqdorini oshirish va sifatini yaxshilash orqali mamlakat aholisi turmush darajasini yuqori pog'onalariga ko'tarish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ekinlarini sug'orish uchun tomchilatib sug'orish tizimlarini qo'llash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Sug'orish usullari orasida tomchilatib sug'orish usuli o'zining yuqori samaradorligi, ya'ni suv resurslari yetishmasligi sharoitida kam suv sarflab barqaror yuqori hosil olishga imkon beradigan sug'orish usuli ekanligi bilan ajralib turadi. Ekinlarga ishlov berish va sug'orish ishlarida qo'l mehnatini kamaytirish hamda sug'orishni avtomatlashtirish imkoniyatlarining yuqoriligi bois tomchilatib sug'orish usuli butun dunyoda, shu jumladan Respublikamiz qishloq xo'jaligida ham kundan kunga kengroq maydonlarga tadbiiq qilinmoqda. Shuningdek, Respublikamizdagi suv resurslarining yetishmasligi va sug'oriladigan maydonlarga o'z vaqtida yetkazib olib borilmayotganligi, suv tejamkor sug'orish texnologiyalariga bo'lgan e'tiborni talab darajasida emasligi, doimiy ravishda yer ustidan sug'orish natijasida sug'orish dalasi ya'ni egat uzunligi bo'yicha teng namlanmasligi ekin hosildorligini kamayishiga, shuningdek, bir qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi hech kimga sir emas. Buning natijasida sizot suvlari sathining ko'tarilishi va sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish holati ham ayrim viloyatlarda kuzatilishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilgan muammolarni oldini olish hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", hamda 2019- yil 9-oktabrdagi "Suv

resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4486-sonli qaroriga binoan, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini joriy etish, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish masalalari asosiy vazifalardan qilib belgilangan[1,2,3,4]

Asosiy qism. Tomchilatib sug'orish tizimlarini yaratishning asosi 1886 yilda hozirgi Afg'oniston hududida suvni sopol quvurlar yordamida har bir daraxtning ildiz qismiga yetkazib berishni tadqiq qilishdan boshlangan. 1913 yilga kelib AQShning Kolorado universiteti tadqiqotchisi B. Xauz tomonidan o'simlikning faqatgina ildiz qatlamini namlash asosida sug'orishga ishlatilayotgan suv miqdorini kamaytirish tizimini ommaga namoyish qilgan. 1920 yillar davomida Germaniya olimlari sug'orishga suvni - 5 - teshikli quvurlar asosida berish vositasida boshqariluvchi sug'orish tizimini ishlab chiqdilar. Lekin ushbu sug'orish usullarining samaradorligi zamonaviy to'chmchilatib sug'orish tizimlari samaradorligidan ancha past edi. O'zbekiston sharoitida tomchilatib sug'orish tizimlari asosan 1975 yildan boshlab tajriba tariqasida bog' va uzumzorlarda tadbir qilina boshlagan.

Tomchilatib sug'orish ekinlarni sug'orish usullari orasida nisbatan yangi sanaladi va uning o'ziga xosligi suvni bosim ostida o'simlikkacha yetkazib berishi bilan belgilanadi. Tomchilatib sug'orish tizimi o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallangan suv taqsimlovchi doimiy tarmoqdan iborat.

Boshqa sug'orish usullaridan tomchilatib sug'orishning farqli jihati shundan iboratki, mazkur sug'orish usulida tuproqning namligi va uni yaratish uchun berilayotgan suv boshqariladi. Odatdagi egatlab sug'orish usulida suv egatga oqizilgandan so'ng dalaning bir qismida tuproqning namligi xaddan ortib ketisa, boshqa qismida suv yaxshi oqmaganligi tufayli tuproq yaxshi namlanmaydi. Tomchilatib sug'orishda esa suv har bir ekinning ma'lum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala bo'ylab bir tekisda beriladi. Shunday qilib dalaning ekin joylashgan joylari bir xilda namlanadi. Tuproqda ortiqcha namlikning yuzaga kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Egatlab sug'orilganda sug'orishdan keyin tuproqda namlikni haddan ziyod ortishi ekinni suvga bo'ktirsa, 16 sug'orishlar orasidagi vaqtning uzoqligi oqbatida tuproq qurib ketib o'simlikni suvsiz qoldiradi. Navbatdagi sug'orishda ekin yana suvga bo'kadi, undan keyin esa yana suvsiz qoladi, ya'ni stress holatlarga tushadi. Natijada o'simlik o'z energiyasini shu stress holatlarni yengishga sarflashga majbur bo'ladi va bir tekis rivojlana olmaydi. Tomchilatib sug'orishda esa ekin ildiz qatlamining namligi bir xilda ushlab turiladi va ekin bir tekis rivojlanadi. Tomchilatib sug'orishda ekinning ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o'simlik uchun optimal bo'lgan tuproqning suvfizik rejimi yaratiladi.

Ushbu tomchilatib sug'orish tizimlarni hamma joyda, hatto boshqa sug'orish usullarini qo'llash mumkin bo'lmagan yoki sug'orish yaxshi samara bermaydigan sharoitlarda ham qo'llash mumkin. Buning uchun tomchilatib sug'orishning muayyan hududni o'ziga xos sharoitlari va

yetishtiriladigan ekin turiga mos keladigan turi to'g'ri tanlansa bo'ldi. Tomchilatib sug'orish tizimlarni ayniqsa: (murakkab relyefli va nishabligi katta uchastkalarda; o'ta qurg'oqchil va shamoli kuchli bo'lgan hududlarda, tuproq qatlami yuqa va suv shimilishi yuqori bo'lgan joylarda, sug'orish suvini yetkazib berish qimmatga tushadigan (nasoslar yordamida suv beriladigan) hududlarda, sug'orishga tozalangan chiqit suvlar ishlatiladigan holatlarda qo'llash juda yuqori samara beradi. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishning intensiv texnologiyalarida, ya'ni hosilning kattaligi va sifati namlik va oziqlanish rejimini aniqligiga bog'liq bo'lgan sharoitlarda tomchilatib sug'orish tizimlarini qo'llash juda yaxshi samara beradi.

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi boshqa sug'orish usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'lib, ularning asosiylari sifatida ekin hosildorligini ortishi va hosil sifatini yaxshilanishi, suv resurslarini tejashi, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadigan moddiy va mehnat resurslarini kamayishi, ekinni oziqlantirish uchun sarflanadigan o'g'itlar miqdorini kamayishi, tuproq yuvilishini butkul bartaraf qilinishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Boshqa sug'orish usullaridan farqli o'laroq, tomchilatib sug'orishda ekinning ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o'simlik uchun optimal bo'lgan suv-fizik muhit yaratiladi. Ekinga suv va oziq moddalar uning ehtiyojiga mos ravishda kichik miqdorlarda tez-tez beriladi. O'simlik ildiz qatlamida optimal namlik yaratiladi. Bunda tuproqning haddan tashqari suvga bo'kib ketishi yoki qurib ketishi kabi holatlar to'liq bartaraf qilinadi. O'simlik o'ziga zarur bo'lgan vaqtda suv va oziq moddalarni oladi. Turli stress holatlarga tushmagan o'simlik o'z energiyasini faqat rivojlanish va hosil to'plashga sarflaydi. Natijada optimal sug'orish va oziqlanish hisobiga bog' va tokzorlarda hosildorlik 40-60 % gacha ortsa, paxta va sabzavotlar kabi bir yillik ekinlarda 80 % gacha ortadi. Paxta 20 hosilining pishib yetilishi esa 10-15 kunga erta va birvarakayiga bo'ladi. Sabzavot dalalarini tomchilatib sug'orilganda hosilning suv ostida qolib nobud bo'lishi hodisasi butkul bartaraf qilinadi.

Xulosa. Sug'orishning zamonaviy usuli bo'lgan tomchilatib sug'orish usulini haqiqiy samarasiga erishish uchun uni tadbiriq qiluvchi har bir fermer tizim to'g'risida aniq bilimga ega bo'lishi va tizimning afzalliklariga to'liq ishonishi lozimdir. Tizimni tadbiriq qiluvchilar yani tomchilab sug'orishga o'tgan fermer va dexqon xo'jaliklari tizimning afzalliklarini bir yillik ekinlarda birinchi yildayoq his qilishlari mumkin. Masalan, fermerlar paxta hosilini ertaroq va bir vaqtda pishib yetilishining o'ziyoq hosilning issiq kunlarda qiynalmasdan yig'ishtirib olinishiga imkoniyat yaratadi. Hosili erta yig'ishtirib olingan dalada keyingi tadbirlar ham yorug' kunlarda hech qiynchiliksiz amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishga, sug'oriladigan maydonlardan olinadigan hosil miqdorini oshirishga va sifatini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF4947-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2017 yil 27 noyabrdagi «2018-2019 yillar davrida irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi» to'g'risidagi PQ-3405 sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2019 yil 17 iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-5742-son Farmoni
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2019 yil 25 oktabrdagi "Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ 4499-sonli qarori.
5. Mamatov S.A. Tomchilatib sug'orish tizimi (tarixi, tavsifi, afzalliklari, elementlari, loyihalash, qurish va ishga tushirish). Toshkent. Mehridaryo MCHJ. 2012. 80 b
6. Mamatov S.A. "Mevali daraxtlarni tomchilatib sug'orish rejimi bo'yicha tavsiyalar" Toshkent-2015.
7. Litvishko, V., Litvishko, O., Myaskovskaya, T., Isaqov, V., Yusupova, M., Matveeva, L., ... & Nikulin, O. (2017). Innovations in technical and natural sciences: Monograph, Volume 4.
8. Isakov, V. Yu., Yusupova, M. A., & Xoshimov, A. N. (2016). Geoekologiya i ximicheskiye svoystva peschanykh pochv Ferganskooy doliny. Uchyonyy XXI veka, (1 (14)), 3-6.
9. Isakov, V. Y., & Yusupova, M. A. (2019). INFLUENCE OF THE ANTHROPOGENIC FACTOR ON THE SAND ARRAYS OF THE FERGHANA VALLEY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(9), 58-66.

**QUMLI TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA XOSSALARINING
O'ZGARISHLARI****Yusupova Mohidil Abdumutalibovna**

B.f.f.d, dotsent FarDu

Ibroximov Shahroz Alisher o'g'li

FarDu, 3-bosqich talabasi

Aholi sonining o'sishi bilan oziq-ovqatga bo'lgan talabning oshishi yetishtirilayotgan mahsulotlarning sifati va uning xavfsiz bo'lishi qishloq xo'jaligi sohasining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Rivojlanib borayotgan davrda ilm-fan, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi olinayotgan hosil sifatini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Inson omilining kuchli ta'sirida qumli dahalarning ekologik va geokimyoviy holati o'zgargan. O'zgarishlarning ifodalanish darajasi qumliklarning qachon o'zlashtirilganligiga va qo'llanilayotgan melioratsiya hamda agrotexnika usullariga bog'liq. Ayniqsa, sug'orish manbalari, sug'orish suvining loyqaligi alohida ahamiyatga ega. Tepalik, tepaqator va barxanlardan iborat qum uyumlari qishloq xo'jaligida foydalanish uchun tekislandi. Kesilgan qumlar pastqam, botiq yuzalarga yotqizildi. Qum uyumlari majmuasida bo'lgan sho'rxoklar, o'tloqi-sho'rxokli va taqirsimon tuproqlar bir necha o'n santimetrdan 150 santimetrgacha va undan ortiq qalinlikdagi surilma qum ostida ko'milib qoldi. Qumli dahalarning relefi yer tekislash ishlari natijasida tekis ko'rinish oldi. Umumiy tekis relef hozirgi paytda zax qochirish va sug'orish to'ri, tizimi bilan kuchli kesib yuborilgan.

Tabiiy qumli landshaftlar o'rnida ta'sirchan agrolandshaftlar shakllanadi. Vodiy qumlarining aksariyati mayda zarrali qum-changli hisoblanadi. Barxan va barxan-tepa qator qumlari 98-99% gacha qum fraksiyalaridan iborat. Qum fraksiyalari ichida o'lchamlari 0,25-0,1 mm bo'lgan zarrachalar mutloq ustuvorlik qiladi (78%-80% gacha), ikkinchi o'rinda yirik qum (1,0-0,25) va uchinchi o'rinda mayda (0,1-0,05) qum fraksiyalari turadi. Chang zarrachalari fraksiyalarining miqdori 1-1,5% dan oshmaydi. Fizik loy yig'indisi 2,5-3% dan ko'p emas. Mustahkamlangan kichik tepalik qumlarining ustki qatlamlari chuqur qatlamlariga va barxan qumlariga nisbatan chang va loyqa zarrachalariga boyigan.

1928 yildan boshlab amalga oshirilgan yirik irrigatsiya va melioratsiya ishlari Farg'ona viloyatining sug'orish va quritish tizimlari holatini tubdan yaxshilagan, suv ta'minotini keskin oshirgan. Yirik magistral kanallar (KFK, JFK, KAK va h.k) qurilib, ishga tushirilgan.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida qumlarning mexanik tarkibida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Qumlarga og'ir tuproqlar solish (tuproqlash), mahalliy organik o'g'itlardan foydalanish kabi agrotexnika tadbirlari, ayniqsa, loyqa suvlar bilan sug'orish fizik loy fraksiyalari miqdorini orttirgan.

Katta Farg'ona kanalining (KFK) har kubometr suvida qish oylarida 0,4-0,7 kg, vegetatsiya davrida esa 1-1,5 kg loyqa mavjud bo'lib, loyqa miqdori bevosita yog'in miqdori bilan bog'liqdir. Andijon suv omboridan boshlanuvchi Katta Andijon kanalining (KAK) suvlarida esa qattiq oqiziqalar deyarli mavjud emas. Shunga ko'ra, KAK ning tiniq suvlari bilan sug'oriladigan qumlarning mexanik tarkibi 30-40 yillik sug'orish davomida deyarli o'zgargani yo'q. KFK ning ta'sir mintaqasida esa qumlarning yuqori qatlamlari loyqa suvning ta'sirida sug'orishning shuncha davri ichida qumloqqa aylangan.

Asosiy sug'orish manbasi katta Farg'ona kanali suvlari bilan sug'orilgan maydonlarning, xususan qumli tuproqlarning qumloq qatlami, kesmaning quyi qumli qatlamlariga nisbatan 3-6 barobar ko'p fizik soz va yirik chang zarrachalariga ega. Mayda qum fraksiyasining miqdori ham sezilarli darajada ortgan. O'lchamlari 0,10 mm dan katta zarrachalarning miqdori esa, mos ravishda, kamaygan. Bu esa mexanik tarkibning o'zgarishiga olib kelgan.

O'zlashtirishdan oldin qumtepa va barxanlarning ustki qismlaridagi qumlar sho'rlanmagan (0,1-0,3%). Qum tepalar, qum tepa qatorlari, barxanlarning sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan etak qismlari va pastqamliklar sho'rlangan.

Ularda yengil eruvchan tuzlap miqdori 0,4- 1,0% oralig'ida o'zgarib turadi, tekislik qumlarida 1,5% gacha, qumtepa qatorlari oraliqlari botiqlaridagi tuproqlarda 2-3% dan 20-30%gacha. Sho'rlanish ximizmi sulfatli, kalsiyli bo'lgan.

Sug'oriladigan sharoitlarda tuproqlarning tuz kesmasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Kesmasi nisbatan bo'shroq qovushmali va bir xil yengil mexanik tarkibli bo'lgan sho'rxok va sho'rxokli tuproqlarda yengil eruvchan tuzlarning ymumiy zaxirasi keskin kamaydi.

40-50 yil oldin o'zlashtirilgan bunday tuproqlar hozir tuzsizlangan yoki kuchsiz sho'rlanish holatida (0,4%). Ammo kesmasida kuchsiz suv o'tkazuvchan, zich qovushmali gips va sho'x qatlamlari bo'lgan tuproqlarda tuzlar miqdori ancha yuqori (2,0% va undan ko'p). Sho'rxok va sho'rxokli tuproqlar ustida surilma qum qatlamlari shakllangan hollarda tuproqlarning tuz va suv tartibotlari murakkablashgan. Ko'milib qolgan kesmadagi tuzlar mikdori deyarli o'zgarmagan. Ammo ko'milgan tuzli qatlamdagi tuzlarning erishi va yuqoriga ko'tarilishi ikkilamchi sho'rlanishga sabab bo'lgan. Qumlar va qumli tuproqlar gumus va oziqa elementlariga nihoyatda kambag'al. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida tuproqlarning ular bilan boyishi kuzatiladi.

Qumtepa, tepa qator va barxan qumlarida gumus miqdori 0,1-0,2%dan oshmaydi. Sug'oriladigan qumlarda esa sug'oriladigan davr uzoq-yaqinligiga ko'ra 0,3-0,6 % ga teng, ayrim xollarda 1,0% ga yetadi. Qoraqalpoq dashtlari qumlarida fosforning yalpi miqdori 0,04%dan 0,19 % gacha, kaliyning umumiy kiymati 0,40% dan 0,80% gacha o'zgaradi. Harakatchan fosfor miqdori 5-25 mg/kg, almashinuvchi kaliy esa 50-80 mg/kg oralig'ida tebranadi.

Sug'oriladigan dehqonchilik qumlarining xossa va xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ular sug'orish suvlari olib kelgan chang va loyqa zarrachalariga boyigan, oziqa moddalari miqdori ko'paygan. Shunday bo'lsada, ekinlarning hosildorligi yerga solinadigan mineral va organik o'g'itlarga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исаков, В. Ю., & Юсупова, М. А. (2021). Генетико-географические особенности песчаных массивов Ферганской долины. Научное обозрение. Биологические науки, (3), 16-20.
2. Litvishko, V., Litvishko, O., Myaskovskaya, T., Isaqov, V., Yusupova, M., Matveeva, L., & Nikulin, O. (2017). Innovations in technical and natural sciences: Monograph.
3. Исаков, В. Ю., Юсупова, М. А., & Хошимов, А. Н. (2016). Геоэкология и химические свойства песчаных почв Ферганской долины. Учёный XXI века, (1 (14)), 3-6. Исаков, В. Ю., Мирзаев, У. Б., & Юсупова, М. А. (2017). Гипсоносные почвы ферганской долины и их изменения под влиянием антропогена. Ученый XXI века, 12.
4. V Yu Isakov, MA Yusupova, XX Asqarov, MA Marufjanov Lithological And Geomorphological Structure Of Sandy Soils Of Central Fergana. Eurasian Research Bulletin. 14. 11.19.2022

**MEVA VA SABZAVOTLI PASTILLALARNI QURITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH
SAMARADORLIGI**

Xolikov M.M. – tayanch doktorant, NDPI

Rahbar: Nasirova Sh.N. – texnika fanlari doktori (DSc), NDPI

Annotatsiya: Ushbu maqolada meva va sabzavotli pastillalarni quritish jarayonlarini takomillashtirishning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Sifatli meva va sabzavot mahsulotlari olish uchun ularni tez va yaxshi quritishni ta'min etadigan sharoit yaratish lozim.

Kalit so'zlar: meva, sabzavot, mahsulot, quritish, oftob, sharoit, sifat, texnologiya, xom-ashyo, tayyorlash, usul.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности улучшения процессов сушки фруктовых и овощных леденцов. Для получения качественной плодовоовощной продукции необходимо создать условия, обеспечивающие их быструю и хорошую сушку.

Ключевые слова: плод, овощ, продукт, сушка, солнце, условия, качество, технология, сырье, подготовка, способ.

Abstract: This article provides information on the importance of improving the drying processes of fruit and vegetable lozenges. In order to obtain high-quality fruit and vegetable products, it is necessary to create conditions that ensure their quick and good drying.

Keywords: fruit, vegetable, product, drying, sun, conditions, quality, technology, raw materials, preparation, method.

Dunyo miqyosida meva-sabzavot mahsulotlarini tabiiy vitaminlarini, mikro- va makro elementlarini saqlagan holda aholiga yetkazib berish kundan kunga oshmoqda va umumiy yetishtirilayotgan mahsulotlarning 47% quritilgan holda tayyorlanmoqda. Shu bilan birga barcha meva-sabzavotlarni pastilla ko'rinishida quritish texnologiyalarini takomillashtirish va tizimli tahlillarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jahonda tabiiy vitaminlar, mikro- va makroelementlarga boy bo'lgan meva-sabzavotlarni zamonaviy texnologiyalar va uskunalar yordamida pastilla ko'rinishida ishlab chiqarish, bunda tabiiy komponentlarni maksimal saqlab qolish, shuningdek mahsulotlarning iste'molboplik sifatlarini yaxshilash, ularning oziqaviy xavfsizligi va biologik qiymatini oshirish, sifatli quritilgan pastilla olish texnologiyalarini ishlab chiqish yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Meva va sabzavotlarning pastillalarini yangi usullardan foydalanib quritish apparatining energiya samaradorligini oshirish vazifalari ham dolzarb hisoblanadi.

Meva-sabzavotchilik quyi tarmog'i O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Meva-sabzavotchilik O'zbekiston uchun jahon agrar va oziq-ovqat bozorlariga integratsiyalashuvni va valyuta tushumini ta'minlab beruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 28 yanvardagi 03-13-1-sonli "Respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda 2014 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni qayta ishlashni salmog'ini, eksport hajmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yig'ilishi qarori asosida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, qayta ishlash, eksport hajmlarini ko'paytirish, ichki bozordagi narx-navolar barqarorligini ta'minlash maqsadida respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda meva-sabzavot, uzum, poliz va kartoshka mahsulotlarni ishlab chiqarish ko'paytirishni, yangi intensiv mevali bog'lar barpo loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Respublikamizning iqlim sharoitining harorati yuqori, havo namligi past bo'lishi mevalarni oftobda quritish uchun juda qulay bo'lib hisoblanadi. Oftobda quritilgan mahsulot, sun'iy quritilganiga nisbatan sifati bo'yicha juda yuqori baholanadi.

Respublikamizda tabiiy sharoitning qulayligi meva va sabzavotlarni shamollatib va oftobda quritish imkonini beradi. Meva-sabzavotni quritishdan maqsad ularning namini qochirib, mikroorganizmlar rivojlana olmaydigan hamda har xil biologik jarayonlar ro'y bermaydigan holga keltirishdir. Quritishning shunday bir meyor borki, namlik miqdori o'sha darajadan pasaysa mikroorganizmlar rivojlana olmaydi. Bu minimal daraja bakteriyalar uchun 30 % ni, achitqi bakteriyalari uchun 15-20 % ni tashkil qiladi. Shu sababli quritishdan keyin sabzavotlarning namligi 15-25 % bo'lsa, ularni chiritmay sifatli saqlash mumkin.

Sifatli meva va sabzavot mahsulotlari olish uchun ularni tez va yaxshi quritishni ta'min etadigan sharoit yaratish lozim. O'rta Osiyoda sabzavotlar asosan oftobga yoyib quritiladi. Bu sharoitda arzon va sifatli mahsulot olish uchun quritish punktlarini to'g'ri tanlash va tashkil etish, belgilangan texnologiyaga amal qilish, xom ashyoni tayyorlashda ilg'or usullarni qo'llash lozim.

Meva va sabzavotlarni quritishning ahamiyati juda ham yuqori hisoblanadi.

Birinchi dan meva va sabzavotlarni sifatli quritishni tashkil qilish bilan bog'dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga va yanada iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga erishiladi.

Chunki meva va sabzavotlarni quritishni tashkil qilish qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasining eng tannarxi arzon, sodda va hammabop yo'nalishlaridan biridir.

Ikkinchidan, quritilgan mevalar va sabzavotlar ularning yangi holidagiga nisbatan ichki bozorda ham, eksport qilishda ham ancha yuqori narxlarda realizatsiya qilinadi.

Uchinchidan, meva va sabzavotlarni sifatli quritishni tashkil qilish bilan bog'dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga va yanada iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga erishiladi. Chunki meva va sabzavotlarni quritishni tashkil qilish qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasining eng tannarxi arzon, sodda va hammabop yo'nalishlaridan biridir.

To'rtinchidan, mamlakatimizda yozgi davrda ko'pgina mevalar ko'plab to'kilib ketib, nes nobud bo'ladi (masalan, o'rik, olxo'ri va hokazo). Quritishni tashkil qilish esa ushbu mahsulotlarni tezkor quritish hisobiga to'kilib nobud bo'lib ketishini oldini olishga imkon beradi.

Demak meva va sabzavotlarni quritish fermer xo'jaliklari uchun istiqbolli yo'nalishdir.

Meva va sabzavotlar pastilasini noan'anaviy usulda quritishning maqbul parametrlarini asoslash, namlik darajasi yuqori bo'lgan meva va sabzavotlar asosida tarkibi turlicha bo'lgan quritilgan pastila olishning yuqori samarali, energiya tejamkor quritish jarayoni va qurilmaning prinsipial sxemasini takomillashtirish, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashga, qayta ishlash jarayonida xom ashyoni yo'qotilishini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shaumarov X.B. Islamov S.Y. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. – Toshkent, 2011.

2. Nasirova Sh.N., Artikov A.A., Isakov A.F., Mirzakulov X.Ch. Reasoning System in Analysis of Bubbling Zone of Flotation, On the Example Of Potash Ore Enrichment. Jour of adv research in dynamical & control systems, vol. 12, special issue-06, 2020, DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP6/SP20201063, 558-565 p.

3. Nasirova Sh.N., Kholikov M.M., Methods of Control of Student Knowledge in Computer Sciences. Journal of advanced research and stability (jars), Volume: 01 Issue: 06 | 2021 ISSN: 2181-2608, 730-734 p.

4. Джураев Х.Ф., Гафуров К.Х., Саидмуратов У.А. Системный анализ процесса термообработки ядер плодовых косточек. VIII Международная научно-техническая конференция Тезисы докладов «Техника и технология пищевых производств», 2011

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI

Xoliqov M.M. – tayanch doktorant, NDPI

Annotasiya: Maqolada qishloq xo'jalik mahsulotlarini rivojlanish omillari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Qishloq xo'jaligiga ta'sir qiluvchi barcha omillar yani ijtimoiy, iqtisodiy va bevosita ularning ikkalasi bilan bog'liq bo'lgan fan va texnologiya rivojini ta'minlovchi, yer resurslari, tarkibi va ekologik omillar kabi guruhlariga ajratilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, meva, sabzavot, mahsulot, texnika, jarayon, tizim.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, amaliyotga kam sarfli energiya tejamkor usullarni qo'llash, oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash, import o'rnini almashtiruvchi raqobatbardosh va eksportbob mahsulotlarni tayyorlash" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, o'rik mevasi tarkibidagi namlikni chiqarib yuborishda pog'onali quritish usulini qo'llash, samarali bosqichma – bosqich ishlov berish tizimiga asoslangan energiya tejamkor quritish qurilmalarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda qishloq xo'jalik mahsulotlarini kompleksli qayta ishlash orqali import o'rnini bosuvchi, quritilgan meva va sabzavotlar ishlab chiqarish sanoatida yuqori darajada o'sish kuzatilmoqda. Meva va sabzavotlarni quritishda energiya sarfi yuqori, murakkab konstruksiyali qurilma va apparatlardan foydalanib kelinmoqda. Shunga ko'ra, qishloq xo'jalik xom ashyolarini kompleksli qayta ishlashga, past haroratli issiqlik berish tizimi asosida ishlovchi, mahsulotning butun hajmi bo'yicha namlikning bir meyorda chiqishini ta'minlashga asoslangan zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda zamon talabiga mos meva va sabzavotlarni quritishga mo'ljallangan, sifatli quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning jarayon va qurilmalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, quritilayotgan mahsulotlarning tabiiy, fizik kimyoviy xossalarni saqlash imkonini beruvchi, o'rik mevasiga bosqichma bosqich past haroratli ishlov berishga mo'ljallangan zamonaviy quritish texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Bugungi kunda quritish jarayonining nazariy asoslari, meva va sabzavotlarni quritishga mo'ljallangan texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga jahon miqyosida meva va sabzavotlarni quritishning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan - konveksiya, o'ta yuqori chastotali, IQ nur maydonida, vakuum ostida quritish bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga

o'shirilmoqda. Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlari bozorida kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida agrar sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va faoliyatini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash uchun tajriba-sinov tariqasida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan [2].

Qishloq xo'jaligini samarali yuritishga, asosan, davlatning bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlashi bilan erishiladi. Odatda, bu qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos yo'nalishlari, jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishni takomillashtirish (ishlab chiqarishni klaster uslubida tashkil etish); qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rag'batlantirish va uni qo'llab quvvatlashni kengaytirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilariga soliq imtiyozlari berish amal qiladi. "O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha rivojlantirishning davlat strategiyasi"da shu kabi boshqa tadbirlar ham nazarda tutilgan. Qishloq xo'jaligiga ta'sir qiluvchi barcha omillar: ijtimoiy, iqtisodiy va bevosita ularning ikkalasi bilan bog'liq bo'lgan fan va texnologiya rivojini ta'minlovchi, yer resurslari va tarkibi hamda ekologik omillar kabi guruhlariga ajratilgan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi texnikasining rivojlanish istiqbollari turli quvvatlarga ega bo'lgan energetika vositalarini va ularga mos ishchi mashinalarni yaratishdan iborat. Bulardan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining turli tashkiliy shakllarida foydalanishi ta'minlanadi. Shu bilan birga qo'llaniladigan har bir texnika xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash, hosildorlikni oshirish, mehnat va materiallar xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni

2. Nasirova Sh.N., Holikov M.M., Jo'rayev X.A. The importance of improving the drying processes of fruit and vegetable pastilles // Научный журнал UNIVERSUM: «Технические науки» № 7 (100), М., Изд. «МЦНО», ISSN: 2311-5122, DOI: 10.32743/UniTech, 2022.100. – С. 7-4, Россия, 34-38 с.

ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПОДЗЕМНЫХ ВОД**Мадримов А.Ш.**

магистр Ургенчского государственного университета

Научный руководитель: Султанов М.К.

Докторант Ургенчского государственного университета,

PhD географический наук

г.Ургенч, Узбекистан

Аннотация: Географическое положение, рельеф, гидрогеологические и климатические условия Хорезмского оазиса имеют большое значение в народном хозяйстве. С целью повышения качества данных сбора подземных вод был проведен анализ качества (WQI) технологии Weighted Overlay, а процентное содержание каждого фактора было оценено методом интерполяции ID ModelBuilder и пространственного описания. Качество воды (WQI) определяется как индекс водообеспеченности подземных вод. Определено, что на участки водного бассейна со средней, некачественной и непригодной организацией и управлением территорией приходится 17,97, 2,64 и 0,04 %.

Ключевые слова: ModelBuilder, обратное взвешенное расстояние, индекс качества воды, взвешенное наложение, качество подземных вод.

Abstract: The Khorezm oasis's location, geography, hydrogeology, and climate all play a significant role in the importance of subsurface water for supplying drinking water. The factors affecting the groundwater data were entered into the ModelBuilder system, the regional description was interpolated using the IDW approach, and the weighted overlay technology was used to analyze the contribution of each element. Groundwater's appropriateness as drinking water is assessed by the Water Quality Index (WQI). The results showed that places with very good and good groundwater quality account for 33.94 and 45.36% of the total area, while areas with average groundwater quality and unsuitable watersheds had shares of 17.97, 2.64, and 0.04%, respectively.

Keywords: ModelBuilder, Inverse Distance Weighted, Water Quality Index, Weighted Overlay, Groundwater quality.

1 . Введение

Подземные воды очень важны с точки зрения потребления в качестве питьевой воды и сельскохозяйственного использования в засушливых и полузасушливых регионах земного шара, и потребность в пресных подземных водах возрастает [1]. В связи с глобальным

изменением климата и растущим спросом на продукты питания поверхностные ресурсы пресной воды становятся дефицитными. По этой причине использование подземных вод широко используется во всем мире и считается важным природным ресурсом. Установлено, что сегодня около 2 млрд человек используют подземные воды для питья [2]. Кроме того, 38% из 301 млн га орошаемых земель во всем мире можно орошать подземными водами, а Индия, Китай и США являются ведущими странами по использованию подземных вод [3]. Установлено, что 1,7 млрд населения земного шара проживает на территориях, зависящих от ресурсов подземных вод [4].

Потенциал имеющихся алгоритмов в технологии ГИС велик для исследования подземных вод и региональной оценки показателей качества с помощью технологий географических информационных систем (ГИС)[5]. Для оценки качества подземных вод учеными разработаны различные индексы [5]. Было проведено множество исследований с использованием WQI для определения метода IDW и показателей качества территориального распределения подземных вод [1], [6], [7]. Также были использованы стандарты Всемирной организации здравоохранения [8], [9] и национальные стандарты для оценки качества воды. Ученые использовали несколько типов моделей WQI для оценки качества воды [10]. В данном исследовании для оценки подземных вод использовался 13-элементный метод оценки водности [7], региональное описание интерполировалось методом IDW, а модель WQI реализовывалась с использованием технологии ГИС.

2. Материалы и стиль исследования .

2.1. Объект исследования

Мониторинг и оценка качества подземных вод по данным регионального отделения Хорезмской гидрогеологической станции, территория Хорезмской области, южные районы Республики Каракалпакстан, включает Элликалинский, Берунийский, Торткольский, Амударьинский районы. Территория расположена в северо-западной части Республики Узбекистан 300 км, вдали от Аральского моря, в нижнем течении Амударьи, территориально между 41°05' и 42°05' северной широты, 60°00' и 61°35' северной широты, восточной долготы (1 - рисунок). Сухопутная поверхность района равнинная и состоит из

аллювиальных отложений, приносимых рекой Амударья, расположенных на правом и левом берегах Амударьи и начинающихся от пролива Туямойн.




Рис. 1. Расположение объекта исследования

2.2 . Информации

Данные, использованные в исследованиях, основаны на данных, полученных из подземных контрольных скважин Хорезмской гидрогеологической станции, и создана база данных ГИС по составу подземных вод. База данных ГИС организует параметры оценки качества подземных вод: кальций (Ca), магний (Mg), сульфаты (SO₄), карбонаты (HCO₃), хлориды (Cl), щелочность (pH), общее количество растворенных твердых веществ (TDS). Классификация подземных вод по показателям и уровню приведена в таблице ниже (табл. 1). Классификация и градация показателей в таблице основывались на рекомендациях ВОЗ, УзДСТ и Геологического комитета.

Также исследованы спутниковая топографическая карта СРТМ, объекты гидрографии, литологическая карта почв и водно-физические свойства почв как факторы, влияющие на качество подземных вод. Эти картографические данные основаны на картографических данных масштаба 100 000.

Таблица 1. Данные показателей качества подземных вод

№	Степень	сухой остаток (мг/л)	Общая жесткость (мг/л)	pH	HCO ₃ (мг/л)	SO ₄ (мг/л)	Cl (мг/л)	Ca (мг/л)	Mg (мг/л)	Na_K (мг/л)
1	Очень пресный	< 1000	0-350	6.5-7	< 200	< 250	< 250	< 50	< 50	< 50
2	Пресный	1000-1500	350-500	7-7.5	200-400	250-400	250-350	50-100	50-100	50-100
3	Средний	1500-2000	500-800	7.5-8	400-600	400-550	350-450	100-150	100-150	100-150
4	Солёный	2000-3000	800-1100	8-8.5	600-800	550-700	450-550	150-200	150-200	150-200
5	Очень соленое	> 3000	> 1100	> 8.5	> 800	> 700	> 550	> 200	> 200	> 200

2.3. Стили

Метод интерполяции Inverse Distance Weighted (IDW) для точечных данных, расчет плотности линий (линейной плотности) для линейных объектов и операции растеризации (растеризации) полигональных данных через функцию ModelBuilder соответственно на основе программы ArcMAP разработан для выравнивания размеров классификации для расчета доли частичных и общих данных. Показатели качества подземных вод оценивались на региональном уровне с использованием метода индексации WQI.

ModelBuilder представляет последовательность процессов и алгоритмов как систему, в которой выходные данные одного процесса используются в качестве входных данных для другого процесса. По результатам региональной оценки качество подземных вод оценивалось по 10 показателям и проводилось в следующем порядке:




Рис. 2. Модель оценки качества подземных вод в ModelBuilder

Метод интерполяции с обратным взвешиванием по расстоянию (IDW) основан на идее, что точки, которые находятся близко друг к другу, имеют больше сходных данных, чем точки, которые находятся дальше. Чтобы спрогнозировать значение для любого неизмеренного местоположения, метод интерполяции IDW использует измеренные значения вокруг прогнозируемого местоположения и выражается следующей формулой.

$$Z_p = \frac{\sum_{i=1}^n \left(\frac{z_i}{d_i^p} \right)}{\sum_{i=1}^n \left(\frac{1}{d_i^p} \right)} \quad (1)$$

Здесь Z_p — расчетное значение в определяемой точке, Z_i — значение измеряемой точки, d_i — расстояние между определяемыми точками и измеряемой точкой. Метод IDW предполагает, что каждая измеренная точка имеет локальный эффект, который уменьшается с расстоянием. Это дает больший вес точкам, ближайшим к прогнозируемому местоположению, а процент влияния уменьшается с расстоянием, поэтому это называется обратным взвешиванием по расстоянию.

Индекс качества воды – это метод оценки качества воды, впервые этот показатель был использован Хортоном [11]. Также были разработаны индекс качества воды Национального санитарного фонда (NSFWQI), индекс Смита, индекс Британской Колумбии (1995 г.), индекс штата Орегон [10] и другие индексы. В этом эксперименте для оценки качества воды использовался взвешенный арифметический индекс качества воды, разработанный и позднее усовершенствованный Брауном [12]. Для оценки подземных вод использовали метод ИКВ по стандартам Всемирной организации здравоохранения [9] и стандартам Агентства по стандартизации и сертификации Узбекистана по метрологии (Uz DSt 951:2011). Оценка качества воды с использованием взвешенного арифметического показателя качества воды выражается следующим образом:

$$WQI = \frac{\sum_{i=1}^n W_i Q_i}{\sum_{i=1}^n W_i} \quad (2)$$

WQI – индекс оценки качества воды, W_i – доля оценки качества воды по каждому фактору, Q_i – показатель качества по каждому фактору:

$$W_i = K/S_n \quad (3)$$

W_i – относительная доля каждого фактора, K – пропорциональное значение, S_n – стандартное значение каждого параметра.

Для расчета значения K сумма стандартных значений всех факторов обратно пропорциональна 1:

$$K = \frac{1}{\sum_{i=1}^n S_n} \quad (4)$$

Значение Q_i рассчитывается по следующей формуле (Браун и др., 1972):

$$Q_i = 100(V_i - V_o)/(V_s - V_o) \quad (5)$$


V_i – результат статистического измерения фактора i , V_o – константа для чистой воды (0, кроме pH и растворенного кислорода), V_s – стандартное значение параметра i .

3. Результаты исследований

Карта качества подземных вод (Карта 2) и классификация показателей качества от 0 до 25 отличное, 25-50 хорошее, отличное, хорошее, среднее, плохое качество и непригодное 50-75 были классифицированы как плохое, 75-100 как низкое качество и 100, так как высокие значения были отнесены к категории недействительных. По результатам можно видеть, что участки, относящиеся к очень хорошему классу, распределены в основном в Турткольском районе, частично в Гурланском и Амударьинском районах, а также в части Хивинского, Шаботского и Питнакского районов (рис. 3).

Участки, относящиеся к очень хорошему классу, занимали около 34% общей площади. Также площадь, относящаяся к хорошему классу, имеет наибольшую долю, превышающую 45 процентов. В целом районы с низким содержанием Ca и SO₄ в подземных водах пригодны для питья.

Рис. 3. Результат оценки качества подземных вод с использованием модели WQI.



В таблице ниже показана площадь и соответствующий процент результатов карты, оцененных методом WQI в соответствии с классификацией показателей качества (таблица 2).

Таблица 2. Региональная классификация качества подземных вод

Т/г	Степень	WQI		Weighted Overlay	
		поле га	%	поле га	%
1	Очень хороший	3170.33	33.94	60.45	0.65
2	Хороший	4237.93	45.36	2261.12	24.20
3	Средний	1678.73	17.97	6590.35	70.54
4	Некачественный	251.53	2.69	430.41	4.61
5	Недействительный	3.81	0.04		
		9342.33		9342.33	

Участки со средним классом образовали коридор из центра исследуемой территории через Берунийский, Ургенчский и Янгарыкский районы и составили 18 процентов. Видно,

что в районах, относящихся к этому классу, особенно SO₄ встречается в составе подземных вод. Участки низкого качества и непригодного класса имеют очень малую долю и занимают менее 3% территории. Это можно объяснить тем, что таких водах большая нехватка Mg и они имеют очень высокий уровень щелочности.

Заклучение

Графическая модель ModelBuilder, разработанная для оценки подземных вод, позволяет периодически вводить данные и оценивать эту область. Из-за обилия кальцийсодержащих солей в подземных водах области общая жесткость подземных вод очень высока (500 мг/л), а общая жесткость подземных вод области составляет 92,53 %, что намного выше государственного стандарта на питьевую воду.

Использование технологий ГИС для рационального и правильного использования подземных вод также позволяет улучшить мониторинг подземных вод и выявить участки с ухудшенным качеством подземных вод с помощью зональных статистических методов. Оценивая качество водных ресурсов, можно определить обеспеченность подземными водами регионов, соответствующих государственным нормам питьевой воды, и планировать проекты использования подземных вод для питьевых целей в этих регионах.

ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Soniya Grace, "A Geospatial Analysis of Ground Water Quality Mapping using GIS in Sangareddy District," *Int. J. Eng. Res.*, vol. V9, no. 07, pp. 1150–1153, 2020, doi: 10.17577/ijertv9is070508.
2. T. Gleeson et al., "Groundwater sustainability strategies," *Nat. Geosci.*, vol. 3, no. 6, pp. 378–379, 2010, doi: 10.1038/ngeo881.
3. S. Siebert et al., "Groundwater use for irrigation - A global inventory," *Hydrol. Earth Syst. Sci.*, vol. 14, no. 10, pp. 1863–1880, 2010, doi: 10.5194/hess-14-1863-2010.
4. T. Gleeson, Y. Wada, M. F. P. Bierkens, and L. P. H. van Beek, "Water balance of global aquifers revealed by groundwater footprint," *Nature*, vol. 488, no. 7410, pp. 197–200, 2012, doi: 10.1038/nature11295.
5. D. Machiwal, V. Cloutier, C. Güler, and N. Kazakis, "A review of GIS-integrated statistical techniques for groundwater quality evaluation and protection," *Environ. Earth Sci.*, vol. 77, no. 19, pp. 1–30, 2018, doi: 10.1007/s12665-018-7872-x.
6. D. O. Balogun, A. A. Okewu, A. A. Maikano, A. Ibrahim, N. I. Sule, and M. M. Abdullahi, "Groundwater Quality Assessment of Kano Metropolis using Water Quality Index and Geospatial Techniques," *Int. J. Eng. Res. Technol.*, vol. 10, no. 7, pp. 181–2278, 2021.
7. S. P. Vaiphei, R. M. Kurakalva, and D. K. Sahadevan, "Water quality index and GIS-based technique for assessment of groundwater quality in Wanaparthy watershed, Telangana, India,"

Environ. Sci. Pollut. Res., vol. 27, no. 36, pp. 45041–45062, 2020, doi: 10.1007/s11356-020-10345-7.

8. R. W. Herschy, Water quality for drinking: WHO guidelines. 2011. doi: 10.1007/978-1-4020-4410-6_184.

9. WHO, Guidelines for. 2022.

10. M. G. Uddin, S. Nash, and A. I. Olbert, “A review of water quality index models and their use for assessing surface water quality,” Ecol. Indic., vol. 122, p. 107218, 2021, doi: 10.1016/j.ecolind.2020.107218.

11. R. K. Horton et al., “Water Quality Criteria-Stream vs,” J. (Water Pollut. Control Fed., vol. 37, no. 3, pp. 292–315, 1965.

12. R. M. BROWN, N. I. McCLELLAND, R. A. DEININGER, and M. F. O'CONNOR, a Water Quality Index – Crashing the Psychological Barrier. Pergamon Press Limited, 1972. doi: 10.1016/b978-0-08-017005-3.50067-0.

SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI.**Dotsent M.A.Mirzayeva****O'qituvchi M.I.Teshaboyeva**

Farg'ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA: Sholi eng qimmatli oziq-ovqat ekinlaridan biridir. Dunyo dehqonchiligida u ekilish maydoni va yalpi hosiliga ko'ra bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Sholining issiqliksevar tabiati tufayli mo'tadil mintaqa mamlakatlarida cheklangan tarqalgan.

Аннотация: Рис – одна из самых ценных продовольственных культур. В мировом сельском хозяйстве она занимает второе место после пшеницы по посевной площади и валовому сбору. Из-за теплолюбивости риса он имеет ограниченное распространение в странах умеренного пояса.

Kalit so'zlar: sholi, aerenxima, oryza sativa L, to'pguli , ro'vak.

Ключевые слова: рис, аэренхима, Oryza sativa L, клубень, клубень

Sholidan mo'l hosil yetishtirish birinchi navbatda dalada yuqori hosilni ta'minlaydigan ko'chat qalinligiga erishishga bog'liq. Yetarli ko'chat qalinligiga erishish uchun esa ekishni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishi kerak. Sholining yaxshi o'sishi va rivojlanishi, hosildorligini ortishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri urug'ni ekish muddatidir. Sholi qulay, maqbul muddatlarda ekilganda urug'larning to'la unib chiqishi ta'minlanadi. Sholi eng qimmatli oziq-ovqat ekinlaridan biridir. Dunyo dehqonchiligida u ekilish maydoni va yalpi hosiliga ko'ra bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Sholi ekin maydonlarining asosiy qismi janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga, birinchi navbatda Birma, Xindiston, Indoneziya, XXR, Tailand, Filippin davlatlariga to'g'ri keladi. Umuman Osiyo mamlakatlari hissasiga sholining butun dunyodagi ekin maydonlarining 90 % to'g'ri keladi. Bu mintaqada dunyo bo'yicha yalpi sholi hosilining 90 % yetishtiriladi. Keyingi 15 yil davomida bu mintaqada sholi hosildorligi 30 % ko'proq oshgan. Lotin Amerikasida ham sholining yalpi hosili ekin maydonlarining kengayishi hamda hosildorlikni oshirish hisobiga ko'paydi. Sholining dunyoda o'rtacha hosildorligi 39,7 s/ga (2004 y) tashkil qildi. Yalpi hosil dunyo bo'yicha 608,5 mln.t bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarda dunyodagi sholi maydonining 3 % joylashgan, ammo dehqonchilik madaniyati yuqori bo'lganligi tufayli ular sholi doniga bo'lgan ichki ehtiyojini to'la qondirib, ayrimlari sholi sotish bo'yicha yirik eksport qiluvchi mamlakatlarga aylangan. Italiya, Avstraliya, AQSh sholi hosildorligi o'rtacha 60 s/ga atrofida. Dunyoda hozirda eng yirik sholi eksport qiluvchi davlatlar AQSh va Tailand. Ularga dunyoda sholi eksportini 1/4 qismi to'g'ri keladi.

O'zbekistonda sholichilik ayniqsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng jadal rivojlandi. G'alla mustaqilligiga erishishda sholining ahamiyati katta. Mamlakatimizda sholi asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxandaryo, Toshkent, Andijon viloyatlarida ekiladi.

Madaniy sholi (*Oryza sativa* L) uchta kenja turga - hind (*indica*) donlari ingichka uzun, (don uzunligini eniga nisbati 3,0-3,5:1), xitoy-yapon (*sina-japonica*) donlari kalta, eni (1,4-2,9 :1) va yaponga bo'linadi. O'zbekistonda asosan xitoy-yapon kenja turi tarqalgan. Har bir kenja tur bir qator belgilari bo'yicha tur xillarga bo'linadi.

Ildiz tizimi - popuk va yuza joylashgan, asosiy ildiz massasi tuproqning 25 sm qatlamida joylashgan. Ildizlarida shuningdek poya va barglarida ham havo to'lgan to'qimalar (*aerenxima*) bor. Shuning uchun sholi o'simligida tegishli kislorod konsentratsiyasi saqlanadi. Bitta o'simlikda 300 ildizlar bo'ladi. Doimo suv qavatida ushlanadigan sholida ildiz tukchalari kam, aksincha suv qavatisiz yoki vaqti-vaqti bilan suvga bostirilgan sholida ildiz tukchalari juda ko'p bo'ladi. Ildizlarning soni, ularning rivojlanganlik darajasi, tuproqqa chuqurga kirib borishi navga, tashqi muhitga, qo'llanilgan o'stirish texnologiyasiga bog'liq.

Poyasi-kovak poxolpoya, balandligi 80-120 sm, kuchli tuplanadi va ko'p hollarda shoxlanadi. O'rtacha bitta o'simlikda 3-5 mahsuldor poyalar hosil bo'ladi.

Barglari - lineyli lensetsimon, qovurg'ali tomirlangan, atrofi arrasimon o'tkirlashgan, barglari uzunligi 35 sm gacha, eni 1,5-2 sm. Ba'zan suv ostida qolgan barg bug'inlaridan illizlar hosil bo'ladi va qo'shimcha oziqlanishda ishtirok etishadi.

To'pguli - ro'vak, 20-30 sm uzunlikda. Boshqachalari bir gulli, bitta ro'vakda ularning soni 80 dan 200 yetadi. Gulida 6 changchi va uzunchoq onalik tugunchasi bor. Sholi uz-o'zidan changlanuvchi o'simlik.

Doni po'stli, yanchish paytida boshqachasi bilan, gul va boshqacha kipiklari bilan ajraladi, 1000 don vazni 27-38 g. Murtagi donning 2-5 % tashkil qiladi, po'sti 17-22 %. Noqulay ob-havo sharoitida po'stligi 35 % yetishi mumkin.

Sholining issiqliksevar tabiati tufayli mo'tadil mintaqa mamlakatlarida cheklangan tarqalgan. Uning to'liq rivojlanishi uchun o'rtacha yozgi harorat 22-30 ° C va vegetatsiya davrida 150 kun davom etadi, u 3300 dan 4500 gacha (o'simlikning pishib etgunga qadar butun o'sish davrining kunlari soniga ko'paytiriladi) kerak. Bu davrdagi o'rtacha harorat $30; 3300 = 150 \times 22$.

UZROS-7-13. O'simlik bo'yi 120-130 sm. O'suv davri 135-140 kun. Ro'vak uzunligi 18-20 sm, shishasimonligi 96-98%, amiloza miqdori 24%, qobiqligi 18,0-20,0%. Guruch chiqishi 72-73%, shu jumladan butun guruch chiqishi 90-95%. Yotib qolishga va to'kilishga chidamli.

Hosildorligi: Navdan qulay sharoitlarda 8,5-9,5 t/gacha hosil olish mumkin.

Agrotexnikasi. Urug'idan sepib ekish. Ekish muddati 20-30-aprel. Urug' me'yorlari 6,0 mln. dona/ga. Bir gektarga sarflanadigan suv me'yorlari 23000 – 25000 m³.

Mamlakatimiz hududida Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan.

O'tmishdosh. Sholidan mo'l hosil olishda almashlab ekishning roli katta. O'zbekiston sholichilik ilmiy tekshirish instituti ma'lumotlariga qaraganda, 4 va 6 dalali almashlab ekishda gektaridan 40-50 s hosil olingan holda surunkasiga sholi ekilgan maydonlarda hosildorlik atigi 25-27 s ni tashkil etadi. O'zbekistonda quyidagi almashlab ekish tizimi qabul qilingan: to'rt dalali: sholi, band shudgor, sholi ulushi 75%. Olti dalali: 1,2,3,4-dala sholi: 5,6-dala o'tlar. Bunda jami almashlab ekish maydonining 66,6% ni sholi band qiladi. To'qqiz dalali: 1,2,3-dala sholi: 4-dala band shudgor 5,6,7-dala sholi va 8,9-dala o'tlar. O'n dalali: 1,2,3,4-dalasi sholi: 5-dala band shudgor: 6,7,8-dala sholi 9,10-dala o'tlar. Bunday umumiy maydonning 70% sholi bilan band qilingan. Yetti dalali (urug'chilik xo'jaliklarida) 1,2-dala o'tlar: 3,4-dala sholi: 5-dala band shudgor: 6,7-dala sholi. Bunda sholi 57,1% ni tashkil qiladi. Yerni ishlash. Suv bostirilgan sholipoyalarda tuproqqa havo kirolmaydi. Shuning uchun zararli bo'lgan birikmalar: vodorod, sulfid, metan, temir (II) oksidi birikmalari, marganes va mikrofloraning anaerob sharoitida hosil bo'lgan boshqa mahsulotlar to'planadi. Bularning hammasi tuproq unumdorligini pasaytirib va bu o'z navbatida, sholi hosilining kamayishiga sabab bo'ladi. Bunday noqulay sharoitni bartaraf etish uchun sholi ekishga qadar, ya'ni kuz, qish va bahor davomida yerni yaxshilab quritish hamda 156 shamollatib turish zarur. Yerni yumshatish, shamollatish va quritish ishlari tuproqni maxsus agrotexnik qoidasi asosida ishlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Sholipoya va band shudgordan bo'shagan maydonlarni (o't ekilgan yerlar bundan mustasno) ishlash kuzgi shudgorlashdan boshlanadi. Yerni kuzda haydash sholi hosildorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yerni kam mehnat va mablag' sarflab ishlashda qator mashinalar, jumladan: KFS-2,4, KFS-3,6, FN-1,6 rusumli kultivator, freza-seyalka, shuningdek PR-2, PR-2,7 rusumli rotatsion plug va boshqa mashinalar ham ishlatiladi. Mana shu mashinalar bir o'tishda bir yo'la bir necha ishni, masalan, yerni ekish oldindan ishlash, tekislash, ekish, o'g'it solish, gerbitsid sepish, yerni g'altaklash va boshqalarni bajaradigan bitta komplekt tuzish mumkin. Suv bostirilgan sholipoyalarda yerni ishlash quruq sholipoyalarni ishlashdagiga qaraganda bir nechta ish turini qisqartirishga imkon beradi. Sholi ekiladigan yerlarni ekish oldidan ishlashda marza cheklarni D-24 1 M va D-20 B rusumli greyderlarda yoki PA-3,P-2,P-4 rusumli uzun bazali tekislagichlarda joriy tekislash katta ahamiyatga ega.

O'tkazgan tajribamiz natijalariga asoslanib, Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumani sharoitida sepma usulida sholi urug'ini 30-apreldan 20-mayga qadar ekishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oripov R., Xalilov N. "O'simlikshunoslik" Toshkent – 2007.;
2. Tursunov.S., Teshaboyeva M "Sholi yetishtirish bo'yicha " tavsiyanoma 2013y.;
3. Teshaboyev N. et al. Urug 'ekish muddatlarining kuzgi bug 'doy navlari hosildorligiga ta'siri //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D7. – C. 118-121.
4. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Siddiqova, G., & Ro'Zmamatova, I. (2022). Urug 'ekish muddatlarining kuzgi bug 'doy navlari hosildorligiga ta'siri. Science and innovation, 1(D7), 118-121.
5. Raximov M., Saminov A. Aholi tomorqa xo 'jaliklarida va himoyalangan joylarda sabzavot yetishtirishning jadal texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 231-236.
6. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Sheraliyeva, Z., & Xoliqova, O. (2022). Kuzgi bug 'doyni asrnavi hosildorligiga urug 'ekish muddatlarini ta'siri. Science and innovation, 1(D7), 122-125.

**СУҒОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА БАҲОРГИ МУДДАТДА
ЭКИЛГАН СОЯНИНГ 1000 ДОНА ДОН МАССАСИГА ТАСИРИ****Холиқов Аброр Тожимуродович**

қишлоқ хўжалиги фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори.

Қурбонкулова Умида Хусанқизи

мустақил тадқиқотчи

Ингичка толали пахтачилик илмий-тадқиқот институти

Аннотация: Ушбу мақолада суғориладиган типик бўз тупроқ, баҳорги муддатларда экилган соя навлари “Ўзбекистон-6” ҳамда “Тошкент” навларига 110-1200С, ва “Селекта-302” навлари учун 90-1000С фойдали ҳарорат йиғиндиси талаб қилинади, изланишларда соя навларининг кўчат қалинлиги мавсум бошида ва амал даври охирида баҳорги экиш муддатлари, экиш тизимлари фонида аниқланган.


Калит сўзлар: эскидан суғориладиган типик бўз тупроқ, асосий экин соя навлари, экиш тизимлари, унувчанлик, ҳарорат, баҳорги муддат, кўчат қалинликлари ва 1000 дана дон оғирлиги.

Натижа ва мунозаралар. Илмий манбаларда соя экинининг ҳосил структурасини ифодаловчи кўрсаткичларидан ҳосилини йиғиштиришгача сақланган ўсимликлар сони, ўсимлик бўйи, соянинг янги навларининг ҳосилдорлиги ҳосил структураси кўрсаткичларига хусусан ўсимликнинг бўйи, бир туп ўсимликдаги дуккаклар сони, бир дона дуккакдаги донлар сони, бир туп ўсимликдаги донлар массаси ва 1000 дана дон массаси киритилди.

Олиб борган тадқиқотларимизда соянинг дон ҳосилдорлиги 25,0-34,8 ц/гани ташкил қилди. Тадқиқотларда сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 286 минг туп/га парваришланган Тошкент навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дана дон вазни 170,7 грни ташкил этди, сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 332 минг туп/га парваришланган Селекта-302 навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дана дон вазни 139,5 грни ташкил этди.

Олиб борган тадқиқотларимиз натижасида сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 286 минг туп/га парваришланган Тошкент навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дана дон вазни 169,3 грни ташкил этди, сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил

элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 275 минг туп/га парваришланган Селекта-302 навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дон дон вази 163,3 грни ташкил этди.



Соя навларини 1000 дон дон оғирлиги.

Материал ва услублар. Тажрибани жойлаштириш, фенологик кузатишлар, униб чиққан ниҳолларни ҳисоб-китоб қилиш ишлари ЎзПТИнинг “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (2007) қўлланмаси асосида ўтказилди.

Т.А.Рахимов, Р.И.Сиддиқов (2020) ларнинг кейинги илмий ишларида тажрибанинг 4-муддат 19-апрелда экилган соя навларидан биргина Селекта-201 навидан ташқари барча навлардан 10-апрелда экилгандагига нисбатан ҳар гектаридан 2-3 центнергача кам миқдорда дон ҳосили олинди, тажриба майдонида ўтказилган дала кузатувлари, ўсимликларнинг ўсиш ва ривожланиш жараёнларидаги ҳолати ҳамда ўсимликларнинг тупроқ шароитига, иқлимга нисбата таъсирчанлиги турли экиш муддатларида ўзгача бўлиши олиб борилган тадқиқотларда ўз исботини топди. Андижон вилоятининг тупроқ

иқлим шароитида соянинг эртапишар ва ўртапишар навларини 10-апрел атрофида экиш энг мақбул муддат бўлиб, дон ҳосилининг мўл бўлишини таъминлайди.

Х.Н.Атабаева (2020) нинг илмий ишларнинг асосий натижаси бу олинадиган ҳосил Орзу навининг ҳосили назорат вариантыда 19,1 ц/га ни ташкил қилди, минерал ўғитлар қўлланилган вариантда ҳосилдорлик 5,5 ц/га ошди, темир элементи кам меъёрда қўлланилганда 25,3 ц/га ҳосил олинди, бу назоратга нисбатан 6,7 ц/га қўшимча ҳосил олинди, ўрта меъёрда қўлланилганда назоратга нисбатан 1,2 ц/га ҳосил олинди, юқори меъёрда қўлланилганда ҳосил назорат вариантыга тенг бўлганлиги кузатилди, фон вариантыга нисбатан ҳосил камайганлиги қайд қилинган.

Хулоса. Олинган уч йиллик натижалардан шуни хулоса қилиш мумкинки, тадқиқотларимизда сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 286 минг туп/га парваришланган Тошкент навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дона дон вазни 169,7 грни ташкил этди, сояни энг яхши кўрсаткичлар ҳосил элементларининг кўпроқ тўпланиши ҳамда ҳосилдорлиги жиҳатдан соянинг 275 минг туп/га парваришланган Селекта-302 навини баҳорги муддатида экилганда кузатилиб, 1000 дона дон вазни 139,5 грни ташкил этгалиги кузатилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. Тошкент-2007 й.
2. Рахимов Т.А., Сиддиқов Р.И. Турли экиш муддатларини соя навларининг хўжалик биологик кўрсаткичларига таъсири. Қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат таъминоти илмий-ишлаб чиқариш маркази «Қишлоқ хўжалиги илм-фанида ёшларнинг роли» республика илмий-амалий конференцияси 14-15 август илмий мақолалар тўплами II-жилдлик Тошкент-2020 й. 267-269 б.
3. Атабаева Х.Н. Минерал ўғит фониди темир элементининг соя навларининг ҳосилдорлигига таъсири. “Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари Тошкент давлат аграр университети ташкил этилганлигининг 90 йиллигига бағишланган халқаро конференциянинг материаллар” тўплами. Тошкент-2020 й. 838-842-б.

QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Kenjayev Toshbolta Aminovich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

kenjayevtoshbolta@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligiga qanday joriy etilayotganini tanqidiy ko'rib chiqadi. Maqolada qishloq xo'jaligi uchun yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va raqamlashtirish strategiyalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, raqamli qishloq xo'jaligi, "aqlli" qishloq xo'jaligi, dronlar.

Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi Respublika hududidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birga, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir [3].

Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chib, tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug'lik, yem-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda, tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.


Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarni qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga miqdor holda beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar bo'yicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda [3].

Agrar islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifa, ichki bozorda iste'molning o'sishi va tashqi bozor konyunkturasi kelib chiqqan holda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Bu esa, agrooziq-ovqat sektori iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan kompleks va mutanosib rivojlanishini ta'minlash, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ishlab chiqiladigan strategiyasi asosida qishloqda turmush darajasini yuksaltirish va sifatini oshirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'miniash va fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qollab-quvvatlashning makroiqtisodiy barqarorlik bilan o'zaro bog'liqligiga erishilishini taqozo etadi [4].

OOMB (oziq-ovqat mahsulotlari bozorini) rivojlantirish borasidagi cheklovchi omillar tarkibiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1) keyingi yillarda kuzatilayotgan aholi pul daromadlarining barqaror o'sish sur'atlariga qaramasdan, aholi xarid qobiliyatining pastligicha qolib ketayotganligi;

2) qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Fermer xo'jaliklari turli bozor segmentlarida, unga mos infratuzilma tarmoq-



larining mavjud emasligi sababli, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish borasida muammolarga duch kelmoqda.

Mahsulotni sotish, saqlash va tashish borasidagi mavjud muammolar mahsulot yetkazib berish geografiyasini, shu jumladan, eksportga mahsulot chiqarishni ham cheklab qo'yadi. Shuningdek, bunga qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti salohiyatidan yetarlicha foydalanilmasligiga, refrejerator vagonlar parkining yetishmasligi kabi asosiy cheklovlar sabab bo'lmoqda.

3) mahsulot sotishning muqobil kanallarining rivojlanmaganligi va monopol korxonalar faoliyatining kuchayishi. Yirik tarmoqli kompaniyalarning bozorda ish olib borish tajribasi, yetkazib berish muddatlari va narxlari borasida fermer xo'jaliklariga katta talablar qo'yilmoqda. Ko'plab savdo tarmoqlari fermer xo'jaliklariga mahsulot yetkazib berishda to'lovlarni kechiktirish shartlari asosida mahsulotni xarid qiladi, bu esa fermer xo'jaliklari aylanma mablag'lari hajmini qisqarishiga olib keladi.

4) Bozorni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiymeyoriv bazasining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ayni vaqtda bozorni tartibga solish masalalari turli qonun va qonunosti hujjatlari, hamda amaldagi standartlar, normativlar va boshqa texnik hujjatlar bilan muvofiqlashtirib borilmoqda. Biroq, respublika qonunchiligida yaxlit, barqaror tizim mavjud emas, rivojlantirishning ustivorliklari va ulami amalga oshirishning aniq yo'nalishlari belgilab olinmagan;

5) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning past darajadali. Bu barcha bozorlardagi raqobat muhitini bo'g'ib qo'yuvchi muhim omildir. Qishloq xo'jaligida hanuz o'z yechimini topa olmayotgan narxlar nomutanosibligida ifodalanuvchi shuningdek, boshqa tarmoqlar bilan mahsulot ayriboshlashning noekvivalentligi muammosini hal etish uchun sohaga katta moliyaviy mablag'lar talab etiladi;

6) respublikamiz fermer xo'jaliklari uchun import mahsulotlar bilan raqobatlashish borasida alohida tovarlar guruhi bo'yicha bir xil shart-sharoitlar ta'min etishda to'sqinlik qiluvchi ichki bozorning yetarlicha himoyalalmaganligi. [4].

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligini samarali faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishining eng muhim omili raqamlashtirish hisoblanadi. Raqamli qishloq xo'jaligi real vaqtda va saytga xos qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun aniq va ma'lumotlarga asoslangan texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi [4].


Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning asosiy elementlari bu boradagi muammolarga yechim bo'ladi (Rasm) [5].

Raqamli baza

Agrosanoat majmuasida qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarining raqamli bazasi

Analitika va Big Data

Analitik dasturiy platformalar agrosanoat kompleksining vertikalari (hosilni bashorat qilish, mahsulotlarni iqlimiy xatarlar va boshqalar)



Ishlab chiqarishni raqamlashtirish

Aqli texnologiyalar va robotlashtirish (Sun'iy yo'ldosh va dronlar)

Sotishni raqamlashtirish

Qishloq xo'jaligi barcha mahsulotlarini elektron sotish uchun birjalar asosida kuzatilish

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning asosiy elementlari

Qishloq xo'jaligida biologik va oziq-ovqat xavfsizligi uchun mavjud va kelajakdagi tahdidlarga qarshi turish uchun jamiyat barqaror rivojlanish tamoyillari va chiqindisiz iqtisodiyot modeliga mos keladigan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yangi agrar iqtisodiyotga muhtojdir. Qishloq xo'jaligini modyernizatsiya qilish "aqli" qishloq xo'jaligiga

o'tishga asoslangan. "Aqli" qishloq xo'jaligi - ishlab chiqarishni integratsiyalashgan avtomatlashtirish va robotlashtirish, qarorlarni qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari, zamonaviy ekotizim modellashtirish va dizayn texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini intellektualizatsiya qilish, bir tomondan, tashqi resurslardan (agrokimyoviy, noorganik o'g'itlar, yoqilg'i va boshqalar) haddan tashqari foydalanishni qisqartirishga, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqarish omillaridan (organik o'g'it, bioyoqilg'i, qayta tiklanadigan energiya manbalari va boshqalar) maksimal darajada foydalanishga imkon beradi. Qishloq xo'jaligini "intellektualizatsiyasi" zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: Masalan, yer osti suvlari va tuproqning foydali xususiyatlarini saqlab qolish va tiklash; zararkunandalarga qarshi ekologik toza va samarali kurashni ta'minlash, organik qishloq xo'jaligini sertifikatlashtirish talablariga muvofiqligini masofadan nazorat qilish. Natijada qishloq xo'jaligining, shu jumladan ishlab chiqarishning imkoniyatlari kengayib, qishloq xo'jaligining resurslaridan foydalanish samaradorligi oshmoqda. Keyingi yillarda "Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish" dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan[1].

Xususan, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni hisobga olish va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni hisobga olish tizimini yaratish rejalashtirilgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo'jaligining samaradorligini oshiradi va yoshlarni agrobiznesga jalb qiladi. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish dasturining maqsadlaridan biri qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni hisobga olishning yagona axborot tizimini yaratishdir. Bu qishloq xo'jaligi ekinlari aslida qaysi maydonlarda yetishtirilganligini va qancha gektar maydonning ahamiyatsiz ekanligini kuzatish imkonini beradi. Fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun dasturiy ta'minot va kompyuter texnikasini sotib olish xarajatlarini qoplash nuqtai nazaridan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi bu boradagi vaziyatni yengillashtiradi [2].

T a k l i f l a r:

1. Tuman (yoki shahar) hududlarda aholining meva-sabzavotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida hamda dehqon bozorlarda narxlarni barqaror ushlab turish uchun quyidagi tadbirlarni bajarish lozim:
 - Dehqon bozorlari ma'muriyati zimmasiga barcha qishloq xo'jalik mahsulotlarining aholining daromadlariga mos narxlarda barqaror ushlab turish vazifasi yuklanishi kerak;
 - Dehqon bozorlari ma'muriyati tuman aholisi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq o'rganib chiqib fermer va dehqon xo'jaliklari bilan zarur mahsulotlar uchun fyuchers shartnomalari tuzib chiqish kerak;
 - Dehqon bozorlari tasarrufida meva-sabzavotlarni saqlash omborxonalari tashkil etish.
2. Har bir yer uchastkalarining unumdorlik darajalari (ball bonitetlari) bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur. Bunday tadqiqotlar qaysi yer uchastkalari bo'yicha qancha

o'g'itni qo'llash kerakligini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining xarajatlarini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi.

3. Eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni Agrosanoat birjalari orqali sotishni yo'lga qo'yish. O'zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlariga katta talab bo'lgan xorijiy davlatlarda O'zbekiston Agrosanoat birjasining savdo maydonlarini tashkil etish.
4. Aholi, fermer va dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqargan go'sht mahsulotlarini chorva mollari va chorva ozuqalariga barter qilish sharti bilan qisman eksportga chiqarishga ruxsat berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5853-sonli farmoni 2019-yil 23-oktabr.

2. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4575-son Qarori 2020-yil 28-yanvar

3. A. Abdug‘aniyev, A.A. Abdug‘aniyev “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, Toshkent, Adib nashriyoti, 2011 yil, 244-247.

4. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti / o‘quv qo‘llanma. Mamatov A.A., Xurramov A.F., Mamatov M.A.- T.: Sanostandart», 2016.

5. T.A. Kenjayev, “Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2022 yil 4-son.

6. Abdullayeva I.M., “Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning afzalliklari”, “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy-elektron jurnali. 2021 yil 2-son.



**6-SHO'BA. ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
SOHALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**



**ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM
SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR****Ro'ziyev Shohrubbek Ravshanjon o'g'li**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,

Qo'qon universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Annotatsiya: Ushbu maqola yuqorida tilga olingan turizm muammolarini hal qilish uchun zamonaviy AKTdan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yechimlarni o'rganadi. Birinchidan, maqolada turizmning mahalliy jamoalarga, atrof-muhitga va global iqtisodiyotga ta'siri tasvirlangan. So'ngra zamonaviy AKTdan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan aniq yechimlarni ko'rib chiqishdan oldin sanoat duch keladigan muammolarni bayon qiladi. Maqola ushbu yechimlarning sanoat va keng jamiyat uchun foydalarini umumlashtirib yakunlanadi.

Kalit so'zlar: yechimlari, muammolari, turizm, zamonaviy axborot, kommunikatsiya texnologiyalari.

Turizm dunyoda har yili milliardlab dollar daromad keltiradigan yirik sanoatga aylandi. Biroq, sanoatning ko'plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo'lgan ba'zi muammolar mavjud. Bu muammolarga aholining haddan tashqari ko'pligi, atrof-muhit degradatsiyasi, madaniy eroziya va xavfsizlik bilan bog'liq muammolar kiradi. Yaxshiyamki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ushbu muammolarni hal qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan bir qator echimlarni taqdim etdi.

Turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va qashshoqlikni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta tushumlari va bandlik imkoniyatlarini yaratish orqali jahon iqtisodiyotiga hissa qo'shadi. Bu, shuningdek, madaniy almashinuv va tushunishni, shuningdek, sayohat va savdo orqali global aloqani kuchaytirishga yordam beradi. Biroq, turizm sayyohlik maskanlari sifatida foydalaniladigan jamoalar va ekotizimlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, turizmning o'sishi aholining haddan tashqari ko'payishiga, tabiiy va madaniy resurslarning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Bu atrof-muhitning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi va tuproq eroziyasi kabi salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy eroziya mahalliy urf-odatlar va an'analar turistik maqsadlarda o'zgartirilganda yuzaga kelishi mumkin, bu esa haqiqiylik va madaniy o'ziga xoslikni yo'qotishiga olib keladi. Turizm, shuningdek, mahalliy jamoalarni kasalliklarning tarqalishi va ijtimoiy tartibsizliklar kabi salbiy ijtimoiy ta'sirlarga duchor qilishi mumkin.

Turizm sanoati oldida turgan muammolar: Turizmning jahon iqtisodiyotiga ijobiy ta'siriga qaramay, sanoat barqaror kelajakni ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bularga quyidagilar kiradi:

- Haddan tashqari gavjum: Ommabop sayyohlik yo'nalishlari tashrif buyuruvchilar sonining keskin o'sishini boshdan kechirmoqda, bu esa odamlarning haddan tashqari ko'payishiga olib keladi va atrof-muhit va mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Atrof-muhitning buzilishi: Turizm ko'plab yo'nalishlarda atrof-muhitning buzilishiga asosiy hissa qo'shmoqda. Bu axlat va ifloslanishdan tortib o'rmonlarni kesish va yovvoyi tabiatni brakonerlik qilishgacha bo'lishi mumkin.
- Madaniy eroziya: Yuqorida aytib o'tilganidek, turizm mahalliy madaniyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa haqiqiylik va madaniy o'ziga xoslikni yo'qotishiga olib keladi.
- Xavfsizlik bilan bog'liq muammolar: Sayyohlik joylari ko'pincha jinoiy harakatlar uchun nishon bo'lib, turistlarni o'g'irlik, zo'ravonlik va terrorizmga qarshi himoyasiz qiladi.

Zamonaviy AKTdan foydalangan holda turizm muammolarini hal qilish usullari: Yaxshiyamki, zamonaviy AKTdan sayyohlik sanoati oldida turgan muammolarni hal qilish uchun samarali foydalanish mumkin. Ushbu yechimlarga quyidagilar kiradi:

Aqlli turizm: Aqlli turizm sayyohlik tajribasini yaxshilash va atrof-muhit va mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun smartfonlar, sun'iy intellekt va Internet narsalar (IoT) kabi texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalardan shaxsiylashtirilgan sayohat marshrutlarini yaratish, tirbandlik va ob-havo sharoiti haqida real vaqt rejimida yangilanishlarni taqdim etish, shuningdek, gavjumlikni kamaytirish uchun muqobil yo'nalishlar va diqqatga sazovor joylar bo'yicha tavsiyalar berish uchun foydalanish mumkin. Aqlli turizm, shuningdek, sayyohlarga real vaqt rejimida joylashuvni kuzatish va favqulodda xizmatlarni taqdim etish orqali xavfsizlik muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, aqlli turizm sayohatchilarga mahalliy muzeylar va tarixiy joylarga virtual reallik sayohatlari kabi rivojlangan madaniy tajribalarni taqdim etish orqali madaniy eroziyani kamaytirishga yordam beradi.

Katta ma'lumotlar tahlili: Katta ma'lumotlar tahlili turizm sanoatidagi tendentsiyalar, naqshlar va imkoniyatlarni aniqlash uchun katta ma'lumotlar to'plamidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu sayyohlar oqimini bashorat qilish, tashrif buyuruvchilar sonini bashorat qilish va maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin. Sayyohlik tashkilotlari tashrif buyuruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali, shuningdek, aholi gavjum hududlarni aniqlashi va tashrif buyuruvchilarni kamroq gavjum joylarga yo'naltirish choralarini ko'rishini mumkin. Bu aholining haddan tashqari ko'pligining atrof-muhitga va mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Katta ma'lumotlar tahlili, shuningdek, potentsial xavfsizlik tahdidlarini bashorat qilish va bashorat qilish uchun ham ishlatilishi mumkin, bu esa

rasmiylarga sayyohlar va mahalliy jamoalarni himoya qilish uchun profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, sayyohlik imtiyozlarini tahlil qilish orqali katta ma'lumotlar tahlili madaniy tajribani yaxshilaydigan va madaniy eroziyani kamaytiradigan ko'proq shaxsiylashtirilgan tajribalarni yaratishga yordam beradi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat: Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari sayyohlar uchun qiziqarli tajribalarni taqdim etishi mumkin, bu esa ularga u yerda bo'lmasdan turib yo'nalishlar va diqqatga sazovor joylarni o'rganish imkonini beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat jismoniy sayohatga muqobil taqdim etish orqali odamlarning haddan tashqari ko'p sonini kamaytirishga yordam beradi, bu sayyohlarga resurslar va xizmatlarga bo'lgan talabni qo'shmasdan sayohat qilish imkoniyatini beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat, shuningdek, tarixiy joylar, muzeylar va madaniy tadbirlarga virtual sayohatlar orqali tashrif buyuruvchilarga haqiqiy madaniy tajribalarni taqdim etish orqali madaniy eroziyani kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, virtual va kengaytirilgan haqiqatdan turistlar uchun xavfsiz va qiziqarli muhit yaratish, xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni kamaytirish va xavfsizlikni kuchaytirish uchun foydalanish mumkin.

Raqamli marketing: Ijtimoiy media marketingi, onlayn reklama va kontent marketingi kabi raqamli marketing usullaridan muayyan auditoriyani maqsad qilib olish va barqaror turizm amaliyotini ilgari surish uchun foydalanish mumkin. Raqamli marketing usullaridan foydalangan holda, sayyohlik tashkilotlari kengroq auditoriyani qamrab olishi va barqaror turizm amaliyotlari haqida xabardorlikni oshirishi mumkin. Bu turizmning atrof-muhitga va mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi. Raqamli marketing, shuningdek, mahalliy urf-odatlar va urf-odatlarni o'zgartirish orqali madaniy eroziyaning oldini olishga yordam berib, alohida yo'nalishlarga xos bo'lgan madaniy tajribalarni targ'ib qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli marketing kamroq taniqli bo'lgan yo'nalishlarni targ'ib qiluvchi, haddan tashqari olomoni kamaytiradigan va barqaror turizm sanoatini ta'minlaydigan kompaniyalarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa: Turizm sanoati global iqtisodiy o'sish, madaniy almashinuv va butun dunyo bo'ylab aloqalarni kuchaytirishga muhim hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, sanoat bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan, odamlarning haddan tashqari ko'payishi, atrof-muhit degradatsiyasi, madaniy eroziya va xavfsizlik muammolari. Yaxshiyamki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu muammolarni hal qilish imkonini beradi. Aqlli turizm, katta ma'lumotlar tahlili, virtual va kengaytirilgan reallik va raqamli marketing usullaridan foydalangan holda turizm sanoati atrof-muhit va mahalliy hamjamiyatlarga salbiy ta'sirni kamaytirgan holda sayyohlar uchun yanada barqaror, shaxsiylashtirilgan va immersiv tajribalarni yaratishi mumkin. Ushbu echimlarni amalga oshirish orqali sanoat global iqtisodiy o'sishning muhim hissasi bo'lib qolishi mumkin, shu bilan birga sanoat va butun jamiyat uchun foydali bo'lgan barqaror turizm amaliyotini ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рузиев, Ш. Р. Ў. (2018). Оценка туристического потенциала историко-культурного туризма Республики Узбекистан. Региональные проблемы преобразования экономики, (4 (90)), 76-83.
2. Ruziev, S. (2017). Туризм хизмат бозорида ахборот технологияларидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 200-206.
3. Shokhruzbek, R. (2019). Features of Historical and Cultural Tourism and the Factors of Its Development. Asian Journal of Technology and Management Research (AJTMR) Volume, 8(02).
4. Рузиев, Ш. Р. Ў., Расулов, Ҳ. Я., & Юсупов, А. А. (2022). ОЦЕНКА ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Academic research in educational sciences, 3(2), 617-629.

SANOAT KORXONALARI UCHUN BULUTLI YECHIMLAR

Mulaydinov Farxod Murotovich

Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasini mudiri

Annotatsiya: So'nggi yillarda turli sohalardagi korxonalar o'z faoliyatini yaxshilash uchun bulutli texnologiyani tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Bulutli echimlar mahalliy serverlar yoki shaxsiy kompyuterlardan farqli o'laroq, ma'lumotlarni saqlash, boshqarish va qayta ishlash uchun internetda joylashgan masofaviy serverlardan foydalanishni anglatadi. Bulutli texnologiyalar yordamida korxonalar samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va hamkorlikni yaxshilash imkonini beruvchi qator ilovalar va xizmatlarga kirishlari mumkin. Ushbu maqolada biz turli sohalar o'z faoliyatini soddalashtirish, daromadlarini yaxshilash va doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftda raqobatbardosh bo'lish uchun bulutli echimlardan qanday foydalanayotganini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: Bulutli yechimlar, sanoat korxonalarini, raqamli transformatsiya, ma'lumotlarni boshqarish, xavfsizlik, moslashuvchanlik, masshtablilik, iqtisodiy samaradorlik, virtualizatsiya, avtomatlashtirish.

Bulutli yechimlar va xizmatlarning jahon bozori shu qadar jadal o'sib bormoqda, uning o'sish sur'atlarini amalda bashorat qilish juda qiyin, shuning uchun yetakchi tahliliy kompaniyalarning ma'lumotlari bir-biridan ba'zan juda farq qiladi. Biroq, ularning barchasi bir xil tendentsiyalarni qayd etadi. Bulutli hisoblash xarajatlarining tez o'sishi, shuningdek, bunday tizimlarda xizmatlar, ma'lumotlar markazlari va ma'lumotlar trafigining hamrohligi e'tirof etiladi.

Bulutli himoya vositalarining global bozori 38 foizga o'sdi. Dell'Oro Group kompaniyasi tomonidan 2023-yil 15-martda e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra global bulutli xavfsizlik sanoati (SSE) 2022 yilda o'tgan yilga nisbatan taxminan 1 milliard dollarga yoki 38 foizga o'sdi.

SSE (Security Service Edge) vositalari SASE (Secure Access Service Edge) tarmoq modelining bir qismi bo'lib, xavfsiz kirish xizmatidir. Bu SWG (Gateway Security), CASB (Secure Cloud Access Broker), FWaaS (Cloud Firewall) va ZTNA (Zero Trust Network Access Solution), shuningdek SD-WAN (Software Defined Global Networking) tarmoq texnologiyalarining kombinatsiyasi. tarmoqlar) va VPN (virtual xususiy tarmoq). Darhaqiqat, SASE yangi va ilgari ishlatilgan echimlar to'plamidir. Ushbu platforma foydalanuvchi, qurilma yoki chekka hisoblash tuguniga xavfsizlik xususiyatlarini taqdim etadi.

Dell'Oro Group tahlilchilarining ta'kidlashicha, COVID-19 pandemiyasi bulutli ilovalarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi, chunki masofaviy ish va masofaviy ta'lim tushunchalari rivojlanib bormoqda. Shunday qilib, kompaniya va tashkilotlar SSE vositalarini faolroq joriy qilishdi. 20 dan ortiq etkazib beruvchilar jahon bozorida bunday echimlarni taklif qilishadi. Eng yaxshi uch o'yinchiga Cisco, Broadcom / Symantec va Zscaler kiradi: 2022 yilda ular umumiy daromadning

taxminan 58 foizini olishgan. Miscellaneous Firewall segmenti ikki xonali foizli o'sishni ko'rsatdi, Cisco, Fortinet va Palo Alto Networks ro'yxatda birinchi o'rinni egalladi.

Agar SASE bozorini bir butun sifatida ko'rib chiqsak, Dell'Oro Group ma'lumotlariga ko'ra, uning hajmi 2022 yilda 6 milliard dollardan oshdi. 2021 yilga nisbatan o'sish taxminan 34 foizni tashkil etdi. Daromad bo'yicha eng yaxshi uchta sotuvchi Cisco, Zscaler va Broadcom/Symantec bo'lib, ular birgalikda sanoatning 40% dan ko'prog'ini nazorat qilgan. Shu bilan birga, Cisco 17% ni tashkil etdi, Zscaler esa 1% dan kamroq ortda qoldi.

"Ketma-ket uchinchi yil SASE daromadining o'sishi 30 foizdan oshdi, chunki COVID-19 pandemiyasi tufayli tarmoq va xavfsizlik arxitekturasini modernizatsiya qilish zarurati davom etmoqda. Yagona sotuvchi, uchdan-end SASE asboblari to'plami sotuvlarning yuqori o'sishini boshdan kechirdi, bu korxonalarining eng yaxshi, ko'p sotuvchilari yechimlardan ko'ra bir darcha xizmatini afzal ko'rishini aks ettiradi", dedi Maurisio Sanches, tarmoq direktori. Dell'Oro guruhida xavfsizlik tadqiqotlari, SASE va SD-WAN.

2022 yil oxirida bitta yetkazib beruvchining SASE to'plamlari jami jo'natmalarning 45 foizini egalladi: Cisco, Fortinet va Palo Alto Networks mahsulotlari eng ommabop bo'ldi. Daromadlar bo'yicha birlashgan SASE sotuvchilari uchligi Versa Networks, VMware va Cato Networks edi.

SD-WAN tarmoq segmentida 2022 yilda daromad o'tgan yilga nisbatan 30% ga o'sdi. Daromad bo'yicha ushbu sohadagi eng yaxshi uch o'yinchi qatoriga Cisco, Fortinet va VMware kirdi - ular birgalikda bozorning deyarli yarmini egallashdi. Texnologik nuqtai nazardan, SSE yechimlari 2022 yilda daromad bo'yicha global SASE bozorining deyarli 60 foizini tashkil etdi. Yana 40% SD-WAN platformalaridan kelgan.


Ta'kidlanishicha, biznesning raqamli transformatsiyasi, masofaviy ish o'rinlari sonining ko'payishi va bulutli xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq holda bulutda xavfsizlikni ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va shu sababli SASE mahsulotlariga talab tez o'sib bormoqda. Bunday echimlar an'anaviy tarmoq perimetri ichida ham, tashqarisida ham samarali himoyani ta'minlaydi.

Bulutli xizmatlar bozori va ular uchun infratuzilma 21 foizga o'sdi va 544 milliard dollarga yetdi.

2022-yilda ommaviy bulut operatorlari va ular uchun infratuzilma yechimlari provayderlarining umumiy daromadi 544 milliard dollarga yetdi, bu 2021-yilga nisbatan 21 foizga ko'p. Bunday raqamlar Synergy Research Group tadqiqotida keltirilgan, natijalari 2023 yil yanvar oyi oxirida e'lon qilingan.

Eng katta o'sish IaaS (xizmat sifatida infratuzilma) va PaaS (xizmat sifatida platforma) segmentlarida kuzatildi. 2022-yilda ushbu yechimlardan tushgan daromad 29 foizga oshib, 195 milliard dollardan oshdi. Ta'kidlanishicha, AQSh dollarining mustahkamlanishi bilan bog'liq ayrim jiddiy to'siqlar, og'ir makroiqtisodiy sharoit va Xitoy bozoridagi muammolarga qaramay, o'sish kuzatilgan. Boshqa yirik xizmat segmentlarida - boshqariladigan xususiy bulut xizmatlari, korporativ SaaS (xizmat sifatida dasturiy ta'minot) va CDN (geografik taqsimlangan tarmoq

infratuzilmasi) - xarajatlar 2021 yilga nisbatan o'rtacha 19% ga oshib, taxminan 229 milliard dollarni tashkil etdi.



1-rasm. Ommaviy bulut ekotizimi bozori va yetakchilari - 2022.

Ushbu va boshqa xizmatlarni qo'llab-quvvatlash uchun ommaviy bulut xizmati provayderlari 2022-yilda ma'lumotlar markazi infratuzilmasini qurish, ijaraga berish va jihozlash uchun 120 milliard dollar sarfladi, bu o'tgan yilga nisbatan 13 foizga ko'p. Butun ommaviy bulut ekotizimida eng mashhur kompaniyalar Microsoft, Amazon, Salesforce va Google edi. Adobe, Alibaba, Cisco, Dell, Digital Realty, Huawei, IBM, Inspur, Oracle, SAP va VMware boshqa yirik o'yinchilarga aylandi. Birgalikda bu kompaniyalar 2022-yilda barcha ommaviy bulut daromadlarining taxminan 60 foizini tashkil qilgan.

Bulutli bozorlar dunyoning barcha mintaqalarida tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir paytda, Qo'shma Shtatlar og'irlik markazi bo'lib qolmoqda. 2022-yilda AQSH ulushiga bulut xizmatlaridan tushgan barcha daromadlarning 45 foizi va gipermiqyosdagi ma'lumotlar markazi sig'imining 53 foizi to'g'ri keldi. Global miqyosda yetakchi o'yinchilarning katta qismi AQSH kompaniyalari bo'lib, 2022-yilda bulut xizmatlaridan tushgan barcha daromadlarning 8 foizini va gipermiqyosdagi ma'lumotlar markazi sig'imining 16 foizini Xitoy operatorlari egallaydi.

Synergy Research Group hisob-kitoblariga ko'ra, ommaviy bulut ekotizimidan keladigan daromad atigi to'rt yil ichida, 2026 yil oxiriga kelib ikki barobar ortadi. Xuddi shu davr mobaynida yirik bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayderlar ishlayotgan gipermiqyosdagi ma'lumotlar markazlari sonini 50% ga oshirishi va tarmoq o'tkazish qobiliyatini 65% dan ko'proq oshirishi kutilmoqda.

	2021	2022	2023
Cloud Business Process Services (BPaaS)	54,952	60,127	65,145
Cloud Application Infrastructure Services (PaaS)	89,910	110,677	136,408
Cloud Application Services (SaaS)	146,326	167,107	195,208
Cloud Management and Security Services	28,489	34,143	41,675
Cloud System Infrastructure Services (IaaS)	90,894	115,740	150,254
Desktop-as-a-Service (DaaS)	2,059	2,539	3,104
Total Market	412,632	490,333	591,794

BPaaS = business process as a service; IaaS = infrastructure as a service; PaaS = platform as a service; SaaS = software as a service

1.Jadval. Butun dunyo bo'ylab ommaviy bulut xizmati Yakuniy foydalanuvchi xarajatlari prognozi (million AQSH dollarida)

Bulutli tizimlar bozori dinamikasi prognozi. Gartner ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda umumiy bulut xizmatlariga global yakuniy foydalanuvchi xarajatlari 490,33 milliard dollarga yetgan. Taqqoslash uchun: 2021-yilda bu ko'rsatkich 412,63 milliard dollarni tashkil etgan. 2022-yilda SaaS xizmatlari eng katta daromad ulushini keltirgan: Gartner ma'lumotlariga ko'ra, ular 167,11 milliard dollarni tashkil etgan. IaaS yechimlari taxminan 115,74 milliard dollar natija bilan, PaaS xizmatlari esa 110,68 milliard dollarni tashkil etdi. 2022 yilda taxminan 60,13 milliard dollar BPaaS yechimlarini (xizmat sifatida biznes jarayonlari) olib keldi. Bulutli boshqaruv va xavfsizlik umumiy daromadning taxminan 34,14 milliard dollarini tashkil etdi. DaaS segmentida (xizmat sifatida ish stoli) daromad, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2,53 milliard dollarni tashkil etdi.

Hozirgi inflyatsiya bosimi va makroiqtisodiy sharoitlar bulutli xarajatlarga ta'sir qiladi. Ammo bulutli hisoblash xavfsizlik va innovatsiyalar tayanchi bo'lib qoladi va qiyin paytlarda moslashuvchanlik, egiluvchanlik va masshtablilik bilan o'sishni qo'llab-quvvatlaydi", dedi Gartner tahlil bo'yicha vitse-prezidenti Sid Nag.[3][4]

Ko'pgina kompaniyalar bulutga o'tishdi, lekin hali to'lovni kutishmadi. Ko'pgina kompaniyalar masofaviy ishlashga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun COVID-19 pandemiyasi boshlanganidan beri tizimlar va ilovalarni bulutga o'tkazish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirdilar. Kompaniyalar bulutli saqlash xizmatlarida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi, ular mijozlar va bozor haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan borgan sari murakkab dasturiy ta'minot va tahliliy vositalar yordamida qayta ishlanadi.

Sanoat korxonalari uchun eng yaxshi 10 ta bulutli yechimlar.

1. AWS keng qamrovli va moslashuvchan bulutli hisoblash platformasi bo'lib, u saqlash, hisoblash quvvati va turli xil bulutli ilovalar operatsiyalari kabi turli xil hisoblash ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash va boshqarish uchun 175 dan ortiq xizmatlar va ilg'or tahlil vositalarini taqdim etadi.

2. Microsoft Azure: Microsoft Azure ochiq va moslashuvchan bulutli hisoblash platformasi bo'lib, saqlash, tahlil, tarmoq, AI va MLga asoslangan yechimlar kabi turli xizmatlar va vositalarni taqdim etadi.

3. Google Cloud Platform (GCP): GCP bulutli hisoblash platformasi bo'lib, u hisoblash, saqlash, tahlil va mashinani o'rganish sohalarida xizmatlar ko'rsatadi.

4. IBM Cloud: IBM Cloud - bu infratuzilma, platforma va dasturiy ta'minot kabi bulutli hisoblash xizmatlarini taklif qiluvchi korporativ darajadagi bulut platformasi.

5. Oracle Cloud Infrastructure: Oracle Cloud Infrastructure yuqori darajada mavjud, kengaytiriladigan va yuqori unumli bulutli hisoblash platformasi bo'lib, hisoblash, tarmoq, saqlash va konteynerlar kabi bir qator bulut xizmatlarini taqdim etadi.

6. Alibaba Cloud: Alibaba Cloud - bu ma'lumotlarni tahlil qilish, saqlash va CDN, xavfsizlik va boshqaruv, tarmoq infratuzilmasi sohalarida turli bulut xizmatlarini taqdim etadigan xavfsiz va ishonchli bulutli hisoblash platformasi.

7. Salesforce: Salesforce bulutga asoslangan Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish (CRM) platformasi bo'lib, u marketing, tijorat, xizmat ko'rsatish va tahlillar uchun turli korporativ yechimlarni taqdim etadi.

8. SAP: SAP bulutga asoslangan korporativ dasturiy ta'minot provayderi bo'lib, u korporativ resurslarni rejalashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish, ta'minot zanjirini boshqarish va tahlil kabi bir qator bulutli echimlarni taklif etadi.

9. Adobe Creative Cloud: Adobe Creative Cloud bulutga asoslangan ilovalar va xizmatlar to'plami bo'lib, u Photoshop, Illustrator va InDesign va boshqalar kabi turli ijodiy vositalarni taqdim etadi.

10. Box: Box bulutga asoslangan fayl almashish va hamkorlik platformasi bo'lib, foydalanuvchilarga fayllarni xavfsiz saqlash, almashish va boshqarish imkonini beradi hamda jamoalarga istalgan joydan, istalgan qurilmadan hamkorlik qilishga yordam beradi.

Bulutli hisoblash dastlab korxonalariga IT imkoniyatlarini kerak bo'lganda tezda kengaytirish va cheksiz hisoblash imkoniyatlarini to'lash asosida taqdim etishning tejamkor usuli sifatida sotilgan. Tijoriy bulut foydalanuvchilari dasturiy ta'minot va tizimlarni o'z apparatlarida ishlatish o'rniga Amazon kabi provayderlarning hisoblash quvvatidan foydalanmoqda.

2022-yil sentabr holatiga ko'ra, kompaniyalar bulutda katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plashmoqda va ularni mijozlar va bozor haqida ma'lumot olish uchun mo'ljallangan borgan sari murakkab dasturiy ta'minot va tahliliy vositalarga o'tkazmoqda. Ular turli xil biznes tarmoqlari uchun turli tizimlar va ilovalar uchun bitta bulutga tayanish o'rniga bir nechta bulutli

provayderlarga murojaat qilmoqdalar. Bularning barchasi xarajatlarni oshirishi mumkin, deydi korporativ texnologiya rahbarlari va sanoat tahlilchilari.

Dell Technologies texnik direktori Jon Rouzning fikricha, bulutli byudjetning ortib ketishining asosiy sababi CIO'lar turli bulut provayderlari o'rtasida imkoniyatlarni qanday taqsimlash va ularni birgalikda ishlashga qanday erishish haqida strategik o'ylamasliklaridir. Kompaniyalar so'nggi yillarda ish yuklarini bulutga o'tkazish uchun juda ko'p harakatlarni amalga oshirdi, ko'p hollarda ko'plab bulutlarda juda ko'p takrorlash va ozgina izchillik bilan yakunlandi, deydi VMware CTO Keyt Kolbert. VMware da biz bulutli xaos iborasini ishlatamiz, dedi u.

Ishlab chiquvchilar uchun bulutli AI xizmatlarining dunyodagi eng yirik provayderlari nomini oldi. 2022-yil iyun oyida Gartner analitik kompaniyasi ishlab chiquvchilar uchun bulutli AI xizmatlari bozorida sehrli maydon (tadqiqot)ni nashr etdi. Ushbu mahsulotlar API, dasturiy ta'minot ishlab chiqish to'plamlari (SDK) yoki ilovalar orqali sun'iy intellekt modellaridan foydalanishga yordam beradi. Ko'rib chiqilayotgan AI xizmatlari avtomatlashtirilgan mashinani o'rganish (autoML), tabiiy tilni tushunish (NLU), tasvirni aniqlash, mashinani o'rganish (ML) va boshqalar kabi sohalarga ochiq kirish imkonini beradi.

Ishlab chiquvchilar uchun bulutli AI xizmatlarining dunyodagi eng yirik provayderlari nomini oldi.

Microsoft. Microsoft-dan Azure AI platformasi NLU, tasvirni aniqlash va autoML kabi sohalarda foydalanish uchun to'liq yechimdir. Uning xizmatlaridan API va SDK orqali professional ishlab chiquvchilar va Microsoft Power Platform orqali tasodifiy ishlab chiquvchilar foydalanishlari mumkin.

Kuchli tomonlari: Microsoft professional dasturchilar va oddiy ishlab chiquvchilarga o'z ilovalarida ML, NLU va tasvirni aniqlash xizmatlaridan osongina foydalanishda yordam beradi. Gartner ma'lumotlariga ko'ra, Microsoft o'z mahsulot qatorida sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari uchun bulutli xizmatlardan foydalanishi unga aniq ustunlik beradi, bu esa mahsulot sifati darajasini raqobatchilarga qaraganda tezroq yaxshilash va bozorga chiqish vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Kamchiliklari: Microsoft faqat Amerikada to'liq xizmatlar portfelini taklif qiladi. Gartnerning aytishicha, potentsial mijozlar Microsoft o'z mintaqalarida ushbu xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydimi yoki yo'qligini aniqlashgan.

Amazon veb-xizmatlari (AWS). AWS sun'iy intellekt xizmatlarini, jumladan Amazon SageMaker va boshqa mashhur til va tasvirni aniqlash xizmatlarini taqdim etadi, ular sun'iy intellektni ishlab chiqish va amalga oshirishning to'liq hayot aylanishini avtomatlashtirishga mo'ljallangan. Xizmat mijozlarga mustaqil AWS xodimlari yoki maslahatchi hamkorlar yordamida yechimlar yaratish imkonini beradi. Tahlilchilarning ta'kidlashicha, AWS past operatsion xarajatlari va keng assortimentdagi AI xizmatlari va infratuzilmasi tufayli ishlab chiqarish ish yuklari uchun eng yaxshi tanlovdir.

Kuchli tomonlari: AWS sun'iy intellektni ishga tushirish va ishlab chiqishni kengaytirishda ustundir. Amazon SageMaker ishlab chiquvchilarga bir marta bosish orqali o'qitilgan modellarni ishlab chiqarish muhitiga joylashtirish imkonini beradi. AWS bulutli AI ishlab chiquvchilari bozorida o'z ishtirokini barqaror ravishda kengaytirib, yuz minglab mijozlarni jalb qilmoqda.

Zaif tomonlari: AWS Gartner Magic Quadrant'da ko'p bulutli va gibrid bulutlar tushunchasiga ega bo'lmagan yagona "etakchi" hisoblanadi. AWS-dan ko'p bulutli va gibrid bulutli echimlarni qidirayotgan mijozlar cheklangan tanlovga ega va ehtimol boshqa provayderlar bilan hamkorlik qilishga majbur bo'ladi.

Google. Kompaniya Google Cloud Platform (GCP) da Vertex AI orqali NLU, tasvirni aniqlash va autoML xizmatlarini taklif etadi. Google xizmatlari chuqur neyron tarmoq modellariga e'tibor qaratadi. Kompaniya, shuningdek, aloqa markazi va hujjat AI, shuningdek, ishlab chiquvchilar sozlashi mumkin bo'lgan oldindan o'qitilgan ML modellarini taklif etadi. Google AI tadqiqotlari va mas'uliyatli AI bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

Kuchli tomonlar: Google aniq belgilangan axloqiy jarayonlarga ega va AI bilan bog'liq muammolarni har bir holatda tezda hal qila oladi. Kompaniyada ma'lum bir ML modelining asosiy tamoyillarini tushuntiruvchi model kartalari, shuningdek, ma'lumotlar to'plami va turli modellarning noto'g'riligini avtomatik ravishda baholaydigan ob'ektivlik ko'rsatkichlari mavjud.

Kamchiliklari: Google AI xizmatlarini shaxsiy bulutlarda yoki binolarda joylashtirishni to'liq qo'llab-quvvatlamaydi. Google'ning rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari deyarli faqat neyron tarmoqlarga qaratilgan bo'lib, ramziy sun'iy intellektga kam e'tibor qaratiladi.

Ishlab chiquvchilar uchun bulutli AI xizmatlarining dunyodagi eng yirik provayderlari nomini oldi.

IBM. IBM xizmatlari CAIDS AI ishlab chiquvchi bulut bozorining barcha segmentlarini qamrab oladi. Kompaniya AI takliflarini Watson brendi ostida birlashtirdi.

Kuchli tomonlari: IBM'ning NLU'lari ayniqsa kuchli. Ishlab chiquvchilar maqsad va ob'ektlarni qidirish va yaratishni soddalashtirish uchun IBM Watson Assistant, Watson Natural Language Understanding va Watson Discovery dasturlarini birlashtirishi mumkin.

Zaif tomonlari: Garchi IBM takliflari keng qamrovli bo'lsa-da, ba'zi sohalarda, masalan, tasvirni aniqlash va etiketlash, tasvirni yaratish, ular etarli emas. Bundan tashqari, ba'zi mijozlar IBMning yuqori narxga ega ekanligini, tranzaksiya xarajatlari yuqori ekanligini ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, bulutli hisoblash yechimlari sanoat korxonalariga juda ko'p foyda keltiradi. Moslashuvchanlik va masshtablikni oshirishdan ma'lumotlar xavfsizligi va foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashgacha bulut kompaniyalarga o'z faoliyatini soddalashtirish va samaradorlikni oshirish uchun tejamkor va samarali usulni taklif etadi. Ko'proq sanoat korxonalari raqamli transformatsiyaga o'tayotgani sayin, bulutli echimlar bozorda raqobatbardoshlik va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kompaniyalar bulutli yechimlarning afzalliklarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari va o'z

operatsiyalarini optimallashtirish va biznes maqsadlariga erishish uchun ishonchli bulutli provayderga sarmoya kiritishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Attaran, M., & Woods, J. (2019). Cloud computing technology: improving small business performance using the Internet. *Journal of Small Business & Entrepreneurship*, 31(6), 495-519.
2. Gupta, P., Seetharaman, A., & Raj, J. R. (2013). The usage and adoption of cloud computing by small and medium businesses. *International journal of information management*, 33(5), 861-874.
3. Williams, M. I. (2010). *A quick start guide to cloud computing: moving your business into the cloud*. Kogan Page Publishers.
4. Mulaydinov, F. (2021). Digital economy is A guarantee of government and society development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
5. Mulaydinov, F. M. (2022). SANOAT KORXONALARI VA BIZNES FAOLIYATIDA INTEGRATSION AXBOROT TIZIMLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 5, 30-35.
6. Mulaydinov, F., & Solidjonov, D. (2021). APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND ONLINE PLATFORMS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.
7. Butaboyev, M., Urinov, A., Mulaydinov, F., & Tojimatov, I. (2021). *Digital economy*. Textbook Tashkent, 76-91.
8. Mulaydinov, F., & Solidjonov, D. *Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari*. Tamaddun-2022.
9. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONA STRATEGIYASI**Urishev Baxtiyor Abdusamatovich**

Assistent, Andijon mashinasozlik instituti

Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada raqamlashtirishning korxonalar faoliyatidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar tadbirkorlik subyektlariga yangi imkoniyatlar, jumladan, korxonalarda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi. Maqolada korxonalar jarayonlarini raqamli o'zgartirishning ustuvor yo'nalishlari batafsil ko'rsatilgan, masalan: biznes jarayonlarini raqamlashtirish; ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv; mijozlar tajribasini boshqarish; mahsulot va xizmatlar qiymatini boshqarish; raqamli infratuzilma va texnologiyalar; raqamli hamkorlik; raqamli madaniyat va malakalar; innovatsiyalarni rivojlantirish.

Kalit so'zlar: korxonalar; raqamlashtirish; raqamli iqtisodiyot; raqamli texnologiyalar; innovatsiya.

Abstract: The article examines the role of digitalization in the activities of enterprises. Digital technologies provide new opportunities for business entities, including the development and implementation of innovations at enterprises. The paper presents in detail the priority areas of digital transformation of enterprise processes, such as: digitalization of business processes; data-driven management; customer experience management; product and service value management; digital infrastructure and technology; digital partnerships; digital culture and competencies; development of innovations.

Keywords: enterprise; digitalization; digital economy; digital technologies; innovation.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy global tendentsiyasi jamiyat hayotining barcha jabhalarida jadal tarqalayotgan raqamli iqtisodiyotdir. O'zbekistonda raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha erishilgan yutuqlar Yevropa ko'rsatkichlaridan bir oz past bo'lishiga qaramay, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish muhimligi hukumatning davlat darajasida e'tirof etiladi. Shunga muvofiq kompleks amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish va keng qamrovli tashkiliy ishlar, raqamlashtirish jarayonlarini konsalting va moliyaviy davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va boshqalar [1,2]. Raqamlashtirish doirasidagi loyihalar soni va moliyalashtirish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Hukumat-biznes-jamiyat qo'shma loyihalari ham bosqichma-bosqich rivojlanib

bormoqda, bu esa O'zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamlashtirish axborot texnologiyalarining tarqalishi, axborot bilan ishlash tezligining oshishi, kiberjinoyatlarning ko'payishi, mehnat bozoridagi o'zgarishlar va boshqa ko'plab jarayonlar bilan birga keladi. Bu raqamlashtirish shartlari nafaqat xavf tug'diradi va noaniqlikning o'sishiga yordam beradi, balki yangi keng biznes imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu jarayonlar ta'sirida bozorda yangi mahsulotlar va ishlab chiqarish texnologiyalari paydo bo'ladi, mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga yangi talablar shakllanadi. Tabiiyki, bu umuman korxonalar faoliyatiga, biznesni boshqarishga bo'lgan yondashuvlarga va hokazolarga ta'sir qiladi. Bu nafaqat xizmat ko'rsatish sohasiga, balki ishlab chiqarish sohasi korxonalariga ham tegishli.

Yuqorida aytilganlar raqamlashtirish sharoitida korxonaning moslashuvchan-ligini boshqarish masalalarini har tomonlama o'rganish dolzarbligini tasdiqlaydi.

Masalaning qo'yilishi

Tadqiqotning maqsadi korxonalar faoliyatining moslashuvchanligini boshqarishning mohiyati va xususiyatlarini o'rganish va raqamlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun moslashuvning rolini asoslashdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur: iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish tendentsiyalarining qisqacha tavsifini berish; raqamlashtirishning korxonalar boshqaruviga ta'sirini tavsiflash; yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida korxonalar faoliyatining moslashuvi rolini asoslash va raqamlashtirish sharoitida uni boshqarish mexanizimini tuzish.

Tadqiqot ob'ekti - korxonaning raqamlashtirish sharoitidagi faoliyati, tadqiqot mavzusi - raqamlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatining moslashuvini boshqarish usullari.

Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy bilish usullari, usullari, usullari va tadqiqot tamoyillari majmui tashkil etadi: umumlashtirish va taqqoslash usuli, jadval usuli, analitik usul, tizimli yondashuv.

Natijalar

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining milliy va global ko'lamini baholash juda qiyin. Prognozlarga ko'ra, 2023-yilda ilg'or raqamli texnologiyalarning jami global xarajatlardagi ulushi 20 foizga yetadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-14-son va 24.05.2023 yildagi PF-76-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-

tadbirlari to'g'risida" Farmonlari raqamlashtirishning rivojlanish tendentsiyalari odatda global tendentsiyalarga mos kelayotganligini ko'rsatadi[1,2].

Eng ustuvor raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: sun'iy intellekt, robototexnika, ishlab chiqarish texnologiyalari, raqamli xizmatlar, narsalar interneti, Internet-kommunikatsiya texnologiyalari, virtual haqiqat texnologiyalari, kvant hisoblashlar [6].

Raqamli texnologiyalarga talabning o'sishi nafaqat biznes, balki tovar va xizmatlar iste'molchilari tomonidan ham qayd etilmoqda. Bu, asosan, xizmatlar va mahsulotlarning intuitiv bo'lib qolganligi, ular maxsus ko'nikmalarni rivojlantirishni va ko'p vaqtni talab qilmasligi bilan bog'liq. Bu mahsulotlarni xarid qilish, xizmatlardan foydalanish va korxonalar bilan boshqa o'zaro munosabatlarda iste'molchilardan korxonalar faoliyatiga "talablar"ning o'sishiga yordam beradi. Binobarin, bugungi kunda raqamli texnologiyalarni faol joriy etish korxonalarining bozordagi mavqeyini saqlab qolish uchun "majburiy" zaruratga aylanib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning korxonalar faoliyatiga ta'sirini quyidagi ko'rinishlar bilan tavsiflash mumkin [3,4,5]:

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning tarqalishi munosabati bilan tashqi muhit noaniqlik darajasining oshishi;
- mahsulotlarni ilgari surish, bozorni tahlil qilish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, real va potentsial auditoriyaning sodiqligini shakllantirish uchun raqamli ishlanmalardan faol foydalanishni hisobga olgan holda marketing strategiyasini tuzatish talablari;
- iste'molchilar tomonidan xizmatlar ko'rsatish tezligiga, mahsulot sifati va funktsionalligini yangilash chastotasiga bo'lgan talablarning ortib borishi;
- korxonalar resurslarining miqdori va sifati ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati;
- inson mehnatini ilg'or texnologiyalar bilan ommaviy ravishda almashtirish natijasida inson omili rolining tubdan o'zgarishi;
- texnologiyalarning jadal yangilanishi munosabati bilan yangi kompetensiyalarni shakllantirishga ko'maklashish orqali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati;
- ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish va loyihalash faoliyatida ko'lamni tejash;
- korxonalar tannaxrlari tarkibining o'zgarishi: korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik qayta jihozlash (ishlab chiqarishdagi asbob-uskunalar va texnologiya, axborotni muhofaza qilish va h.k.) xarajatlarining oshishi va bu bilan bog'liq xarajatlarning sezilarli darajada kamayishi. ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va saqlash bilan.

Jamiyatning yangi texnologik tartibga o'tishi, jumladan, global raqamlashtirish bilan birga, korxonalar faoliyatini boshqarishning yangi yondashuvlari, usullari, usullarini talab qiladi. O'z-o'zidan

raqamli texnologiyalarni korxonalar faoliyatiga joriy etish muvaffaqiyat kafolati emas. Hozirgacha raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish va korxonalarni ushbu texnologiyalarni hisobga olgan holda boshqarishni kafolatlaydigan yagona yondashuv, aniq harakatlar ketma-ketligi mavjud emas. Bunga qisman korxonalar faoliyatini boshqarishda mavjud standartlar yordam berishi mumkin. Raqamlashtirish sharoitida korxonalar faoliyatini boshqarish kontekstida tavsiflangan boshqaruv jarayonlari doirasida bunday standartlarni guruhlash quyidagicha ifodalanishi mumkin [4]:

1. Axborotni boshqarish - korxonalar ichidagi va korxonalar va tashqi muhit o'rtasidagi aloqa tizimini takomillashtirish; yuqori sifatli ma'lumotlarni tezkor qidirish; axborot sifati, tezligi va himoyasiga qo'yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlash.

2. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish - ishlab chiqarish resurslarini tejashga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etish; ish jarayonlarini intellektuallashtirish.

3. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlash tizimini avtomatlashtirish.

4. Tashqi muhit bilan o'zaro aloqa (moslashuvchan boshqaruv) – korxonalar faoliyatiga innovatsion yechimlarni izlash, tahlil qilish, joriy etish.


5. Inson mehnati o'rnini bosuvchi ilg'or texnologiyalarni faol joriy etish fonida xodimlarni boshqarishga yondashuvni to'liq o'zgartirish bilan bog'liq xodimlarni boshqarish tizimi.

Yuqoridagi qoidalar butun korxonalar faoliyatida va uni boshqarishda raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida har tomonlama va murakkab o'zgarishlardan dalolat beradi. Korxonalar uchun bu o'zgarishlar tizimga moslashishni talab qiladigan yangi faoliyat shartlarini shakllantiradi. Korxonaning yangi sharoitlarga moslashish samaradorligi uning faoliyatining moslashuvchanlik kabi xususiyati bilan belgilanadi.

Moslashuvchanlik - korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning yangi atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyati va tayyorligini aks ettiradi. Tashqi muhitdagi, shu jumladan raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida o'zgarishlarning yuqori sur'atlarini hisobga olgan holda, moslashuvchanlik tizimni prognozlash, qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish nuqtai nazaridan boshqarishni talab qiladi. Raqamlashtirish ta'sirida korxonani boshqarish kontseptsiyasini o'zgartirish, birinchi navbatda, boshqaruv xususiyatlariga, ya'ni moslashuvchanlikka alohida e'tibor berish bilan birga bo'lishi kerak. Moslashuvning maqbul darajasiga erishish uchun asos korxonaning resurslar bilan ta'minlanganligi (moliyaviy, moddiy-texnika, axborot, kadrlar), kompaniya rahbarlari tomonidan innovatsiyalarni ijobiy "idrok etish" va

ularni ishlab chiqarishga joriy etishga tayyorlikdir. korxonada faoliyatini. Yuqoridagilarga erishish uchun tizimni boshqarish moslashuvi talab qilinadi

1-rasmda raqamlashtirish sharoitida korxonada faoliyatining moslashuvini boshqarishning umumlashtirilgan sxemasi keltirilgan. Sxemaning tarkibiy elementlari: maqsadlar, funktsiyalar, usullar, boshqaruvga yondashuvlar raqamlashtirish shartlariga muvofiq o'zgaradi. Taqdim etilgan sxemaga muvofiq, moslashuvchanlikni boshqarish bo'yicha barcha harakatlar moslashuvchanlik darajasini baholash natijalariga asoslangan boshqaruv qarorlari asosida amalga oshirilishini ko'rish mumkin.



1-rasm. Raqamlashtirish sharoitida korxonada faoliyatining moslashuvini boshqarish sxemasi (Tadqiqot materiallari asosida tuzilgan).

Xulosalar

Tadqiqot jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayonlari rivojlanishining global miqyosi va sanoatga mansubligidan qat'i nazar, korxonalarni strategik rivojlantirish kontekstida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhimligini isbotlaydi. Yangi sharoitda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullari o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar, asosan, faoliyatni avtomatlashtirish sur'atlarining oshishi, faoliyatni keng ko'lamli axborotlashtirish; zanjirni tahlil qilish muddatini sezilarli darajada qisqartirish - boshqaruv qarorlari - harakatlar, operatsiyalar.

O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiyalar jarayoni hozirda dastlabki bosqichda. Shunga qaramay, bozordagi mavqeyini saqlab qolish va uzoq muddatli rivojlanishga intilayotgan har bir korxonada raqamlashtirish yutuqlarini faol joriy etish va foydalanishga majbur. Korxonalardan bu jiddiy psixologik (raqamli transformatsiyalarni amalga oshirish zarurligini anglash) va

resurslarga tayyorlikni talab qiladi. Bu moslashuvchanlikni shakllantirish, prognozlash va qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan tizimli boshqaruv bilan ta'minlanadi. Aynan shu harakatlar korxonaning raqobatbardoshligining maqbul darajasini va uning bozordagi barqaror o'rnini ta'minlash uchun asosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son farmoni.
2. 2020 yil 28 aprel kuni O'zbekiston Prezidentining "raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-son qarori.
3. Abdusalomov A.B. Mamatov M.A Korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish "Экономика и социум" №4(107)-1 2023
4. Гадасина Л.В. Цифровизация — угроза или возможность развития для менеджмента? /Л.В. Гадасина, Г.И. Пивень// Вопросы инновационной экономики. — 2018. — Том 8. № 4. — С. 565–574.
5. Tuychieva, O. N. (2020). On the problem of training competitive personnel for the digital economy. *Theoretical & Applied Science*, (5), 701-707
6. Цифровая трансформация отраслей: стартовые условия и приоритеты: докл. к XXII Апр. междунар. науч. конф. по проблемам развития экономики и общества, Москва, 13–30 апр. 2021 г. / Г.И. Абдрахманова, К.Б. Быховский, и др.; рук. авт. кол. Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: Изд., 2021. — 239 с.

**ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ****Худайбердиева Наргиза Низомиддин қизи,**

2-курс докторанти. Наманган давлат университети

e-mail: shin-set-sunan@mail.ru

Аннотация: Мақолада хизмат кўрсатиш соҳасининг замонавий иқтисодиётдаги ўрни, хизматлар соҳасида инновация жараёнларини ташкил этиш асослари ва бунда рақамли технологияларнинг аҳамияти ёритилган. Шунингдек, Наманган вилояти хизмат кўрсатиш корхоналари ва хизмат истеъмолчилари иштирокида ўтказилган анкета сўровномалари натижалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: хизматлар бозори, инновацион ривожланиш, рақамли технологиялар, хизмат турлари рақобатбардошлиги

Abstract: The article states the role of service sector in modern economy, the basics of organizing innovation processes in service companies and the role of digitalization for service sector. There are given the results of questionnaire which was held among service companies and service consumers

Keywords: service market, innovation development, digital technologies, the competitiveness of service types

Жаҳон иқтисодиётида тобора улуши ошиб бораётган хизматлар бозори энг тез ўзгарадиган бозор бўлиб, бу соҳанинг инновацион ривожланиши унинг субъектларидан инновация жараёнларини тўғри ташкил этиш ва бошқаришни талаб этади. Хизматлар соҳасида инновация жараёнларини самарали амалга ошириш ва бошқариш, рақамли технологиялар ёрдамида мавжуд хизматлар сифатини ошиши ва янги хизматлар таклифини пайдо бўлишига сабаб бўлади ва бу ўз ўрнида миллий иқтисодиётнинг ва жаҳон иқтисодиётининг ўсишига хизмат қилади. Иқтисодиётни босқичма босқич рақамлаштириш орқали хизматлар соҳаси ривожланиши учун зарурий инфратузилма тизимларини ривожлантириш замонавий иқтисодиёт субъектлари учун асосий вазифалардан бирига айланди.

Мамлакатимизда содир бўлаётган бозор муносабатларининг ривожланиши шароитларида хизматлар соҳасида ҳам сезиларли даражада ўзгаришлар содир бўлмоқда. Охирги ўн йилликда хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши жадал ўсиш тенденциясига эга. Хусусан, 2022 йилда ЯИМ ҳажми 888,3 трлн. сўмни ташкил этган бўлса,

шундан хизматлар соҳасига 357,6 трлн. сўм тўғри келади, ёки унинг ЯИМдаги улуши 40,3%ни ташкил этади. Аввалги йил(2021)га нисбатан бозор хизматлари 73,2 млрд.сўмга кўп бўлиб, ўсиш суръати 115,9%ни ташкил қилди. Охирги 10 йилда эса хизматлар ҳажми 6,4 мартага ўсган. Аҳоли жон бошига кўрсатилган бозор хизматлари ҳажми 2022 йилда 10030,1 минг сўмга етиб, 2021 йилга нисбатан ўсиш суръати 113,5%ни ташкил этган, охирги 10 йилликда 5,4 мартага ошди[1].

Мамлакатимиз иқтисодиётининг дунё иқтисодий маконига интеграцияси даражасига қараб хизматлар импорти ва экспортининг ривожланиши, бир қатор хизматларнинг мавжуд бўлиши учун рақамли технологияларни ривожлантиришни талаб этади. Шу билан бирга ялпи хизматлар таркибида бозор хизматлари катта улушни (60 %дан ортиқ) эгаллайди.

Миллий ва халқаро статистика маълумотларига кўра, Ўзбекистонга киритилаётган чет эл инвестицияларининг 40 %дан ортиғи хизматлар соҳасини рақамлаштириш орқали ривожлантириш ва инновация жараёнларини такомиллаштириш учун жалб қилинмоқда ва бу, ўз навбатида, иқтисодиётнинг ушбу соҳаси ривожланишининг долзарблиги ва унинг ривожланиш истиқболларини белгилайди.

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги ҳиссаси 60-70 %ни ташкил этади. Хизматлар соҳасининг ривожланиш даражаси, одатда, мамлакат тараққиёт даражасини, унинг иқтисодий салоҳиятини акс эттиради. Иқтисодиётнинг реал секторидаги инновациялар натижасида меҳнат унумдорлигининг ортиши миллий иқтисодиётнинг бошқа ноишлаб чиқариш тармоқларига катта сонли меҳнат ва моддий ресурсларни ўтказиш имконини беради. Ўз-ўзидан хизмат кўрсатиш соҳасида ҳам ишлаб чиқариш соҳасидаги каби инновацияларга талаб ошади[Guk & Peker 2017, 1-27p].

Кўплаб хорижий тадқиқотлар билан танишиб чиққан ҳолда хизмат кўрсатиш соҳасидаги инновацион жараённи қуйидаги схема орқали тушуниш мумкин:



1-расм. Хизмат кўрсатиш соҳасида инновация жараён таркиби

Манба: Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион жараён харидор эҳтиёжларини ва инновация имкониятларини аниқлаш, инновацион ғояларни ишлаб чиқиш, инновацион ахборот ва кўникмалар билан ишлаш, инновациянинг реализация қилиш ва муваффақияти тўғрисида маълумот беришни ўз ичига олади. Демак, айнан шу жараёнларни самарали бошқаришни ташкил этиш ва рақамлаштириш кўплаб ривожланган ва ривожланаётган давлатлар хизмат кўрсатиш корхоналари рақобатбардошлиги учун муҳим ҳисобланади.

Хизмат кўрсатишнинг инновацион шакли қуйидагиларда намаён бўлади:

- янги турдаги хизматларни яратилиши;
- мавжуд хизматлар сифатини ошиши.

Ушбу инновацияларни амалга оширишни рақамлаштириш натижасида мавжуд истеъмолчиларнинг хизматлардан қониқиши ортади ва янги истеъмолчилар жалб қилинади.

Бу мавзудаги тадқиқотларни таҳлил қилган ҳолда шунини айтиш мумкинки, хизмат кўрсатиш соҳасида инновацияларни амалга оширишда фақат менежерлар ва мутахассисларни эмас, хизмат кўрсатиш корхонасининг барча қатлам ишчиларини (оддий

хизматчиларгача), ресурс етказиб берувчиларни, клиентлар ва потенциал харидорларни жалб қилиш бу турдаги корхоналарнинг инновацион бошқаруви самарасини янада оширади [Бурменко 2004, 37-38 стр.]

]. Хизмат кўрсатиш соҳаси фаолиятини рақамлаштириш бундай бошқарув фаолияти учун қулай имконият имконият яратади. Уларнинг ишлаб чиқариш корхоналари инновацион бошқарувидан асосий фарқи ҳам шунда.

Хизмат кўрсатиш соҳасини рақамлаштириш орқали инновацион ривожлантиришнинг назарий асосларини тадқиқ қилиш, инновацион ривожланиш тамойиллари, унга таъсир этувчи омиллар, инновация жараёни иштирокчиларини ўрганиш ҳамда улар асосида хизмат кўрсатишни инновацион ривожлантириш моделларини таклиф қилиш келажакда мамлакатимизда бу соҳа ривожини дунёнинг ривожланган мамлакатлари даражасига олиб чиқиш имконини беради.

Иқтисодиёт реал секторидаги ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши, янги авлод, мураккаб, юқори технологик маҳсулотларнинг яратилиши ва рақамлашуви хизматлар соҳасининг ўсиши, хизматлар тури ва хилма хиллигининг ортиши, ушбу соҳанинг рақамли технологиялар ёрдамида такомиллаштиришни, бир сўз билан айтганда инновацион ривожланишини таъминлайди. Ўз навбатида, инновацияларни амалга ошириш натижасида хизматлар соҳаси миқёсининг кенгайиши хизматларнинг ҳаммабоблиги, иш сифатининг яхшиланиши, товарларга бўлган талабнинг кўпайишига имкон яратади ва, шу тариқа, ишлаб чиқариш миқёси ва иқтисодиётни ривожлантириш умумий макроиқтисодий кўрсаткичларининг сезиларли даражада ўсишига таъсир кўрсатади. Юқоридаги фикрлар асосида таъкидлаш мумкинки, хизматлар соҳасининг рақамли технологиялар асосида инновацион ривожланиши иқтисодиётни ривожлантириш омили ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда хизматлар соҳаси ривожланган мамлакатлар иқтисодиётида ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Ўзбекистонда баъзан учинчи сектор деб аталувчи хизматлар соҳаси мамлакат иқтисодиётининг жадал ривожланаётган тармоқларидан бири ҳисобланади.

Хизматлар соҳасини инновацион ривожлантиришда рақамли технологиялардан фойдаланишга хизматларни яратувчи корхоналар ходимлари ва хизматлар истеъмолчиларининг муносабатини аниқлаш мақсадида Наманган вилоятида анкета сўровномаси ўтказилди.

Сўровномада иштирок этган респондент (200 нафар) ларнинг 91 %и (182 нафар) кўрсатилаётган хизмат турлари рақобатбардошлигини корхонада рақамли технологиялар асосида амалга оширилаётган инновацион фаолият белгилашини таъкидлаб ўтишган ва 81,5 %и (163 нафар) ўз фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланишга тайёрлигини билдирган.

Сўровномада иштирок этган хизмат кўрсатиш корхонаси раҳбар ва ходимларининг 85%и(жами 140 тадан 119 нафари) фаолиятни рақамлаштириш жараёнларини режалаштириш ва бошқаришни яхлит ҳолда ташкил этилиши лозимлигини кўрсатиб ўтишган.

Умумий респондентлар(200 нафар)нинг 42 %и (84 нафар) рақамли технологияларни фаолиятнинг ташкилий-бошқарув жараёнларига, 31 %и (62 нафар) бевосита хизмат кўрсатиш жараёнларига, қолган 27 %и (54 нафар) рақамли технологияларни ҳар икки жараёнга барабар жорий этилишини муҳим деб ҳисоблаганлар. Респондентларнинг 98 %и (147 нафар) хизматлар соҳасида яхлит рақамли платформага асосланган бошқарув тизимини шакллантириш лозим деб ҳисоблайдилар.

Кўриниб турибтики, вилоятда хизматлар истеъмолчиларининг ҳам соҳанинг инновацион ривожига рақамли технологиялардан фойдаланиш борасида ижобий қарашлари мавжуд. Хизмат истеъмолчиларининг фикрича, хизмат кўрсатиш корхоналарида рақамли технологиялардан фойдаланиш истеъмолчилар вақтларини тежашга, ортиқча “қоғозбозлик”ни олдини олишга ва янги хизматлардан баҳраманд бўлишга ёрдам беради.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида инновация фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантиришда рақамли технологиялардан фойдаланиш самарасини аниқлаш ва бу жараёнга ижобий ёки салбий таъсир кўрсатиб келаётган омилларни аниқлаш учун, мавжуд муаммоларни албатта тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ҳамда хизматлар соҳасини рақамлаштиришга алоқадор илмий-тадқиқот муассасаларининг етакчи мутахассислари фикри асосида эксперт баҳолаш талаб этилади.

Юқоридаги тадқиқотдан шуни хулоса қилиш мумкинки, Наманган вилоятида фаолият олиб бораётган хизмат кўрсатиш корхоналари ходимлари ва хизмат истеъмолчилари худуднинг хизмат кўрсатиш корхоналарида рақамли технологиялардан фойдаланиш соҳанинг инновацион ривожига ижобий таъсир этади ва истеъмолчи қониқишлари ортишига хизмат қилиб, хизматларга бўлган талаблар ортишига олиб келади.

Бу борада янада кенгроқ доирада сўровномалар ўтказиш, экспертлар хулоса ва таклифларини тадқиқ қилиш Республикамизда хизматлар соҳасининг кенг ривожланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.www.stat.uz
2. Guk, O., & Peker, S. (2017). Understanding the links among innovation performance, market performance and financial performance. *Review of Managerial Science*, 1–27.
3. Бурменко Т.Д. Экономика сферы услуг (Вводный курс) / Т.Д.Бурменко. –Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2004. –С.37-38.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TILGA TA'SIRI: RETRONIMLAR**Xolmonova Sadoqat Abdubannoyevna**

O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda texnologiyalardan ayro holda yashash mumkin emas. U hayotimizning barcha jabhalarini to'liq qamrab oldi, desak adashmaymiz. Texnologiyalardan, ayniqsa raqamli texnologiyalardan turli maqsadlarda har kuni foydalanmoqdamiz. Hayotimizda uning paydo bo'lishi turli sohalarda turmushimizning o'zgarishiga sabab bo'ldi: insonlar bilan muloqotda geografik hudud uzoqligi o'z ahamiyatini yo'qotdi, har kuni ishga borib, ofisda o'tirib ishlash majburiyati ozaymoqda, bank va to'lov ishlari, hujjatlar bilan bog'liq yumushlarni endi uyda hal qilmoqdamiz, onlayn kurslarda tahsil olib, uydan chiqmagan holda kasb va hunar o'rganmoqdamiz. Bularning barchasi hayotimizda turli qulayliklarni yaratishi bilan birga tilimizda ham yangi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Chunki til va texnologiyani alohida tasavvur qilish mumkin emas. Texnologiyalarni yaratishda turli dasturlash tillaridan foydalanilsa, yaratilgan mahsulot tilning rivojlanishiga va uning neologizmlar bilan boyishiga o'z hissasini qo'shadi. Hozirgi kunda jamiyatimizdagi yangi tushunchalarning barchasi eski tushunchalarning qayta nomlanishiga sabab bo'lmoqda va natijada lug'at boyligimiz retronimlar bilan boyishda davom etmoqda. Ushbu maqolada retronimlarning paydo bo'lishida texnologiyaning tutgan o'rni haqida fikr yuritimiz.

Kalit so'zlar: neologizm, onlayn, raqamli texnologiya, retronim, qayta nomlash.

Аннотация: Сегодня невозможно жить без технологий. Не будет ошибкой сказать, что они охватывают все аспекты нашей жизни. Мы используем технологии, особенно цифровые, для различных целей каждый день. Их появление привело к изменениям в различных сферах нашей жизни: географическая удаленность утратила свое значение в общении с людьми, необходимость каждый день ходить на работу и сидеть в офисе уменьшилась, банковская и расчетная работа теперь выполняется дома, мы изучаем онлайн-курсы и осваиваем новые профессии, не выходя из дома. Все это привело к появлению новых понятий в нашем языке и созданию различных удобств в нашей жизни. Язык и технологии невозможно представить отдельно. Когда при создании технологий используются разные языки программирования, создаваемый продукт способствует развитию языка и его обогащению неологизмами. В настоящее время все новые понятия в нашем обществе приводят к переименованию старых понятий, и в результате наш словарный запас продолжает обогащаться ретронимами. В этой статье мы рассмотрим роль технологий в появлении ретронимов.

Ключевые слова: неологизм, онлайн, цифровые технологии, ретроним, переименование.

Abstract: Today, it is impossible to live without technology. It would not be incorrect to say that it covers all aspects of our lives. We use technology, especially digital technology, for various purposes every day. Its appearance has led to changes in various areas of our lives: geographical remoteness has lost its importance in communicating with people; the need to go to work and sit in the office every day has decreased; banking and settlement work are now done at home; we study online courses and master new professions without leaving home. All of this has led to the emergence of new concepts in our language and the creation of various amenities in our lives. Language and technology cannot be imagined separately. When different programming languages are used to create technology, the product being created contributes to the development of the language and its enrichment with neologisms. Nowadays, all new concepts in our society lead to the renaming of old concepts, and as a result, our vocabulary continues to be enriched with retronyms. In this article, we will look at the role of technology in the emergence of retronyms.


Keywords: neologism, online, digital technology, retronym, renaming.

Kirish. Til va texnologiya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Birini ikkinchisidan ayirish mumkin emas. Barcha texnologik yutuqlarning paydo bo'lishi zamirida, albatta, til yotadi. Texnologiya nafaqat tilning mavjudligiga tayanadi, balki o'zi ham til tomonidan boshqariladi, ko'rsatmalar beriladi va o'zgartiriladi. Aytish mumkinki, til texnologik muvaffaqiyatni ta'minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Birinchi navbatda, texnologiyaning paydo bo'lishi dasturlash tili bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish mumkin. Texnologiya ishga tushirilgach esa uni tanitish, vazifalarini tushuntirish, insonlarga u haqida ma'lumot berish uchun yana til yordamga keladi. O'z navbatida texnologiyaning tilga ta'siri, uning rivojiga o'z hissasini qo'shishi ham hech kimga sir emas. Tez sur'atda rivojlanib borayotgan texnologik hayot natijasida tilimizda neologizmlarning paydo bo'lishi tezlashmoqda. Yangi turlarning va yangi so'zlarning paydo bo'lishi avvaldan mavjud turni qayta nomlash ehtiyojini ham yuzaga keltirmoqda. Buning oqibatida tilimizda retronimlar soni ortib bormoqda.

“Retronim – mavjud so'zning asl shaklini taraqqiyot yoki texnologik rivojlanish mahsuli bo'lgan keyingi shaklidan faqrlash uchun paydo bo'lgan yangi nomdir. Masalan, Birinchi jahon urushi Ikkinchi jahon urushi sodir bo'lgunga qadar “Buyuk urush” yoki shunchaki “Jahon urushi” deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi terminining paydo bo'lishi avvalgi urushning Birinchi jahon urushi deb nomlanishiga sabab bo'ldi. Yoki avvaliga aniq sanani bilish maqsadida yaratilgan predmet “kalendar” deb atalib, keyinchalik uning turlari rivojlanib borishi natijasida “stol kalendari”, “yirtma kalendar”, “osma kalendar” kabi nomlar paydo bo'ldi va ularni bir-biridan

farqlash ehtiyoji yuzaga keldi. Shu tariqa paydo bo‘lgan birliklar esa “retronimlar” nomi bilan birlashtirildi”. [3]

Tahlil va natijalar. Retronimlarning paydo bo‘lishida jamiyatdagi o‘zgarishlar muhim o‘rin tutadi. Aynan texnologiya sohasidagi yutuqlar natijasida tilimizda bir guruh retronimik qator paydo bo‘ldi. Bolaligimda (1990-yillar) uyimizda telefon bo‘lardi. Undagi qurilmani aylantirib raqam terish, yonimizda bo‘lmagan inson bilan gaplasha olish imkoniyati meni doim hayratga solardi. Yaponiyada o‘qiydigan akam bilan telefonda gaplashish uchun esa bir oyda bir marta tuman markaziga borardik. Talabalik paytimda (2000-yillar) qo‘l telefonlari kirib keldi hayotimizga. Uni doim yonimizda olib yurish mumkinligi, istagan vaqtimizda boshqalar bilan suhbatlasha olishimiz endi biz uchun yangilik bo‘lmay qoldi. Xuddi shu holat tilda bir tushunchaning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Biz avvaldan telefon deb ataydigan qurilmani qayta nomladik: *uy telefoni*. Mana shu yerda retronimlik xususiyat paydo bo‘ldi.



Dastlab bir tushunchani anglatgan *telefon* so‘zi texnologik taraqqiyot natijasida, ya’ni *qo‘l telefoni* natijasida farqlash zaruriyatiga duch keldi va bizga ma’lum avvalgi telefon *uy telefoni* atamasi bilan retronimga aylandi.

Vaqt o‘tgani sayin telefonning takomillashuvi to‘xtamay davom etdi. “Aqlli” (smart) telefonlarning yaratilishi *qo‘l telefonlarida* ham farqlash ehtiyojini yuzaga chiqardi. Endi biz uchun dastlabki qo‘l telefonlari *tugmachali telefon*. Bu ham navbatdagi retronim hisoblanadi.

Qo‘l telefonlarining uyali telefon deb nomlanishini ayrimlar bilmasligi mumkin. “Bugungi tilimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq yana bir holat: hech o‘ylab ko‘rganmisiz, nima uchun biz so‘zlashuv tilimizda **uyali telefon** birikmasini hech ishlatmaymiz? Axir, yigirma yildan buyon televideniye, radio bu so‘zni aytaverib, gazeta va reklamalarda bu so‘zni yozaverib charchashdi-ku! Sababi – xalqimiz “uya” so‘zining telefonga nima aloqasi borligini hanuz hazm qila olmay qabul qilmayapti. Bu “uyali telefon”, agar so‘z deyish mumkin bo‘lsa, rus tilidagi «сотовый телефон» so‘zining so‘zma-so‘z tarjimasida paydo bo‘ldi. O‘sha davrda so‘z ijodkorlari bu birikmaning o‘zbekchasini yasashda «сотовый» so‘zining lug‘at (“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”) dagi “arining (asalari) uyasi” ma’nosini olib, “uyali telefon” birikmasini yasashdi. Bilmadikki, tilning asosiy hakami – xalq, xalq qabul qilsagina so‘z tilda yashaydi, Umri uzoq bo‘ladi”. [5]

Raqamli texnologiyada paydo bo‘layotgan ko‘p tushunchalar yuqoridagi misollar kabi retronimiya hodisasiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Aynan “raqamli” so‘zi bilan bog‘liq tushunchalarning barchasi qarshisida ularning retronimi hisoblangan birliklar turibdi. Bu birliklar tushunchalarni birlashtirish bilan birga ular o‘rtasidagi ziddiyatni ham ko‘rsatib kelmoqda. Masalan,

oddiy texnologiya – raqamli texnologiya

oddiy videodisk – raqamli videodisk

oddiy fotoapparat – raqamli fotoapparat

oddiy radio – raqamli radio

naqd pul – raqamli pul

oddiy sertifikat – raqamli sertifikat

Ushbu misollarda “raqamli” so‘zi bilan hosil bo‘lgan yangi birliklar, avvalgi birliklarning qayta nomlanishiga sabab bo‘lib, retronimik qatorni yuzaga keltirmoqda.

“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati”da “raqamli” so‘ziga shunday ta’rif berilgan:

raqamli

ing. digital

rus. Цифровой

Raqamlardan tashkil topgan ma’lumotlarga hamda bu ma’lumotlardan foydalanadigan jarayonlar va funksional qurilmalarga tegishli tushuncha. [1; 199]

Xuddi shu lug‘atda “raqamli” atamasi bilan bog‘liq 27 ta birlikning izohi berilgan. Demak, yana shuncha retronim borligi ham aniq.

Bunday holatni biz “onlayn” so‘zi bilan ham ko‘rishimiz mumkin. 2020-yildagi pandemiya natijasida tilimizda bu so‘z bilan bog‘liq bir qancha tushunchalar faollashdi. Tashqariga chiqa olmay qolgan insonlar endi barcha ishlarini raqamli tarmoqqa ko‘chirishdi. Buning natijasida esa yana tilimizda bir guruh retronimlar paydo bo‘ldi:

an’anaviy maktab – onlayn maktab

yuzma-yuz konferensiya – onlayn konferensiya

oddiy dars – onlayn dars

oddiy do‘kon – onlayn do‘kon

Hatto shu holga keldiki, xalqimizning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblangan nikoh to‘yi ham onlayn tashkillashtirila boshlandi. Kelin yoki kuyov chet elda bo‘lgan holatlarda onlayn to‘y ham qilina boshlandi. Bularning barchasi esa tildagi o‘zgarishlarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda.

Xulosa. Raqamli texnologiyaning paydo bo‘lishi va rivoji nafaqat jamiyat hayotini yaxshilashga, shuningdek, ma‘lum bir tilning lug‘at boyligini oshirishga ham xizmat qilar ekan. Yangi turning paydo bo‘lishi eski turning qaytadan nomlanishiga va buning natijasi hisoblangan retronimlarning ko‘payishiga olib kelar ekan. Ushbu tadqiqotimizda texnologik yangiliklarning retronimiyaga sabab bo‘lishi haqida bahs yuritdik. Aslida jamiyatdagi har bir sohadagi o‘zgarish leksikamizning boyishiga ta‘sir qiladi. Shu jihatdan retronimlarni chuqur o‘rganish, ularning paydo bo‘lish sabablarini izohlash, leksikografik xususiyatlarini aniqlash oldimizda turgan muhim masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. (2010). Toshkent.
2. Sari I. (2013). Tilda qayta nomlash ehtiyoji: retronimlar. Turkbilig.
3. Xolmonova S. (2021). O‘zbek matbuotida qo‘llangan retronimlar. Middle European Scientific Bulletin.
4. Yuldashev M. (2020). O‘zbek tilida retronimlar.
5. Yo‘ldoshev I. (2022). Millat tili – millat madaniyati.

**ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA
YECHIMLARI****Abdullaev Akhrorjon Axadjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi

ahrorjon1611@gmail.com

